

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR**O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)

Isa Habibeyli (Ozarbayjon)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Vahit Turk (Turkiya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Nazef Shahrani (AQSh)

Boqijon To'xliyev

Muhammadjon Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkiya)

Qosimjon Sodiqov

Zulxumor Xolmanova

Mustafa O'ner (Turkiya)

Nurboy Jabborov

G'aybulla Boboyorov

Kimura Satoru (Yaponiya)

Imran Ay (Turkiya)

Aftondil Erkinov

Nadir Mamadli (Ozarbayjon)

Rashid Zohidov

Otabek Jo'raboyev

Bulent Bayram (Turkiya)

Qo'ldosh Pardayev

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

Oysara Madaliyeva

Hilola Nazirova

MUNDARIJA**MATNSHUNOSLIK****Rashid Zohidov**

Ilmiy-tanqidiy matn mashaqqati 4

Shermuhammad Amonov

Tabibiy debochalari 16

Sohiba Madirimova

Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari 40

ADABIYOTSHUNOSLIK**Orzigul Hamroyeva**

Qofiya harflarining nazariy asoslari tadqiqi 67

Alisher Razzoqov

"Lison ut-tayr" kompozitsiyasi va obrazlari uyg'unligi 93

LINGVISTIKA**G'aybulla Boboyorov**

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarining o'zbekcha o'girmalaridagi ayrim yanglish ochiqklamalar to'g'risida 111

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLOGY****Rashid Zohidov**

Difficulty of Scientific-critical text 4

Shermuhammad Amonov

Tabibi's prelude 16

Sohiba MadirimovaPrinciples of creating a scientific-critical
text of Mutrib's works 40**LITERATURE****Orzigul Hamroyeva**Research of theoretical foundations of
rhyming letters 67**Alisher Razzakov**"Lison ut-tayr" composition and
harmony of images 93**LINGUISTICS****Gaybulla Babayarov**On the some mistakes in the Uzbek translations
of Mahmud Kashgari's "Dīwān Luyāt at-Turk" 111

MATNSHUNOSLIK

TEXTOLOGY

Ilmiy-tanqidiy matn mashaqqati

Rashid Zohidov¹

Abstrakt

Badiiy matnni tahlil qilishda asliyatga yaqin, mukammal ilmiy-tanqidiy matnlar asosida tayyorlangan asar matni bilan ishlash talab etiladi. Shunga ko'ra matnshunoslik fani oldida har bir adabiy merosning mukammal nashrini yaratish vazifasi turadi. Ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashda barcha manbalar uchun umumiy qonuniyatlar bilan bir qatorda har bitta manbani o'rganish jarayonida yuzaga chiqadigan alohida xususiyatlar ham mavjud. Umumiy xususiyatlari ko'p nusxali matnlarni qiyoslash, saralangan nusxalarni guruhlash va asos nusxani tanlash bilan belgilansa, alohida xususiyatlari o'rganayotgan manba yo'nalishidan kelib chiqib, ilmiy apparatini shakllantirishdir.

Maqolada So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash jarayonida kechgan matn tadqiqi bilan bog'liq kuzatishlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: *ilmiy apparat, ishonchli matn, mantiqiy dalillash metodi, matn tahriri, matn islohi, "Sabot ul-ojizin", silsilaviy tizim, spetsifik xususiyat, umumiy qonuniyat.*

Kirish

O'zbek matnshunosligi tarixidan ma'lumki, ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashda barcha manbalar uchun umumiy qonuniyatlar bilan birga har bitta manba tadqiqida yuzaga chiqadigan spetsifik xususiyatlar mavjud. Umumiy qonuniyatlar ko'p nusxali matnlarni o'zaro qiyoslab saralash, saralangan nusxalarni o'xshash va farqli jihatlariga ko'ra guruhlash, guruhlardagi yetakchi qo'lyozmalar asosida tayanch yoki asos nusxani tanlash bilan belgilansa, spetsifik xususiyatlar muayyan adabiy manba yo'nalishi va tabiatidan kelib chiqib, uning ilmiy apparatini shakllantirish bilan bog'liqdir.

Matnshunoslikda "ilmiy apparat" tushunchasi matn tar-

¹Rashidov Zohid Fozilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

Iqtibos uchun: Rashidov, Z. F. 2023. "Ilmiy-tanqidiy matn mashaqqati". *Oltin bitiglar* 2: 4–15.

kibini detallashtirib, har bir qismni ilmiy ko'rsatkichlar orqali izohlashni anglatadi. Ilmiy-tanqidiy matn bitta emas, turli davrlarga oid bir nechta nusxalar asosida tiklanar ekan, matn islohi jarayoni faqat yetakchi qo'lyozmadan shunchaki nusxa ko'chirish yo'li bilan emas, balki qiyosiy-mantiqiy dalillash orqali olib boriladi. Ishonchli matnni tiklash faoliyati – matnning umumiy va xususiy detallarini ko'z bilan ko'rish, muayyan shaklni xotirada saqlab qolish, nusxalarni o'zaro solishtirib, muayyan matnni tanlash kabi mexanik xatti-harakatlardan iborat deb tushungan kishi adashadi. Aslida, bu xatti-harakatlar ayni paytda tafakkur maydonida kechayotgan “inkor” va “tasdiq”lar suronining izmida bo'ladi.

“Sabot ul-ojizin” asari ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash jarayonidagi matn tadqiqi bilan bog'liq kuzatishlar

Fikrimizni isbotlash sifatida So'fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash jarayonida kechgan matn tadqiqi bilan bog'liq ayrim kuzatishlarni keltiramiz. Ishonchli matnni tiklash silsilaviy tizimda kechdi. Bunda *birinchi halqa* – “asos nusxalar”, *ikkinchi halqa* – “faol nusxalar”, *uchinchi halqa* – “yordamchi nusxalar”dan tashkil topdi. Asos halqa matn poydevorini, faol halqa matndagi muhim farqlarni, yordamchi halqa zarur o'rinlarda ikkinchi darajali farqlarni gavdalantirdi.

“Sabot ul-ojizin”ning “Hazrat Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sifatlarining bayoni” bo'limida *Dalil uldurki, kiydi toji “lavlok”* misrasi birinchi halqadagi C2, ikkinchi halqadagi 2061, uchinchi halqadagi C161 nusxalarida *Dalil uldurki, keldi toji “lavlok”* deb yozilgan. A1057 asos nusxada va A1074 faol nusxada bu bo'lim tushib qolgani uchun har ikki shaklni tanlash imkoni baravar kelib qoldi. Natijada, bayt voqeligidagi badiiy mantiqqa e'tiborni burdik:

*Emas mavjud aningdek gavhari pok,
Dalil uldurki, kiydi toji “lavlok”.*

Ya'ni: “Jumla mavjudot ichra poklikda Muhammad alayhissalomga teng keladigani yo'q. “Lavlok”, ya'ni “Agar sen bo'lmaganingda falaklarni yaratmas edim”¹ degan hadis tojining u zotga kiydirilishi buning dalilidir”. “Lavlok” – hadis jumlasidagi avvalgi so'z. Hadis butunlikni anglatga, undan ajratib olingan bir qism o'sha butunlikka ishora qilinib, bayt mazmuniga singdirib yuborilmoqda. Agar “lavlok”dan oldin “toji” izofasi bo'lmaganida

¹ “لو لاك لما خلقت الافلاك” Qudsiy hadis. Aliyul Qori “Tazkiratul mavzu'ot” asarida bu hadisni mavzu' degan. Ammo “Sharhul mavohib” asarida shu ma'noda kelgan ba'zi hadislar zikr qilingan.

edi, “kiydi”ning o‘rniga “keldi” so‘zini ishlatish mumkin bo‘lardi. Chunki “lavlok”dan hadis iroda qilinyapti. “Hadisni kiydi” deyishdan ko‘ra “hadis keldi”, ya‘ni “bu xususda shunday hadis kelgan” deb aytish mantiqqa yaqinroq. Ammo hadis o‘zining yuksak mazmuni bilan tojga o‘xshatilayotgan ekan, endi “toj keldi” deyishdan ko‘ra, “tojni kiydi” deb aytish to‘g‘riroq va bayt taqozo qilgan badiiy mantiqqa to‘la muvofiqdir. Shuning uchun ilmiy-tanqidiy matnda “kiydi” so‘zi tanlandi.

“Farishtalarning bayoni” bo‘limida *Niso ermas alarning vasfi er ham* degan misra bor. Qadimiy nusxalarning barchasida (A1057, A1074, 2061, 4149, 1420) va keyingi davrlarga oid ba‘zi nusxalarda (C1, IO, HT¹) mazkur misradagi “niso” so‘zi o‘rnida – *tishi* so‘zi qo‘llangan. Arabcha “niso” so‘zi “ayol” ma‘nosida bo‘lib, qadim turkiydagi “tishi” lafzi ham shu ma‘noni anglatadi. Navoiy turkiy tilning forsiydan afzalligini misollar bilan dalillar ekan, “tishi” so‘zini shunday ishlatadi: “Va ov va qushki, salotin odob va rusumida har qaysi boshqa mutaayyin eshitur, ikkalasin, “shikor” derlar. Va ovda umdaki kiyikdur, turk aning erkagin “huna” va *tishisin* “qilchoqchi” der. Yana suyqunning ham erkagin “bug‘u” va *tishisin* “maral” der...” [Навоий 2000, 14].

To‘g‘ri, bu o‘rinda Navoiy *tishi* so‘zini insonning ayol jinsiga emas, hayvonning urg‘ochi jinsiga nisbatan qo‘llagan. Balki bu so‘zni shu ma‘noda ham tushunish borligi uchun ba‘zi kotiblar nazdida “farishtalar urg‘ochi ham emas, erkak ham emas” deyishdan ko‘ra “farishtalar ayol ham emas, erkak ham emas” deb aytish afzal tuyulgan bo‘lishi mumkin. Lekin, aslida, *tishi* so‘zining ma‘nosi qadim adabiyotda kengroq ma‘noda qo‘llangan bo‘lsa-chi? Masalan, “Qutadg‘u bilig” asarida bu so‘z shunday ifodalangan:

Nechə miñ azyg‘lyg‘eren erkəki

Tishilərdə oturu uzuldi kəki [Юсуф Хос Ҳожиб 1972, 674].

Ya‘ni: “Mardlarning mardi bo‘lgan necha ming baquvvat erlar xotinlar tufayli paylari kesilgan”.

“Turkiy tillarning etimologik lug‘ati”da ham *tishi* so‘zining *urg‘ochi* ma‘nosi bilan birgalikda *ayol*, *xotin* ma‘nolarida kelishi aytilgan [Севортьян 1974, 245].

So‘fi Olloyor aqida matnlarida farishtalarga berilgan ta‘rifni, ya‘ni farishtalar ayol va erkak degan jins bilan xoslanmaganini baytlar orqali sifatlar ekan, “ayol” yoki “xotin” so‘zining o‘rniga

¹ “Sabotul o‘jizin”ga yozilgan sharhlar: “Risolai Aziza” – RA; “Irshodul o‘izin” – IO; “Hidayatut tolibin” – HT shartli qisqartmalari bilan berildi.

umuman jinsni anglatuvchi “tishi” soʻzini ishlatgan boʻlishi mumkin. Qadim turkiy soʻzlarni qoʻllash “Sabot ul-ojizin”da kuzatilgan hodisa. Qolaversa, qadimiy nusxalarda bu misra: *Tishi ermas alarning vasfi er ham* shaklida kelmoqda. Shunga koʻra, matnda “niso” oʻrniga “tishi” soʻzi qabul qilindi.

“Sabot ul-ojizin” asari oʻz davrida “xalq kitoblari” kabi ommalashgan, sevib oʻqilgan. Hatto odamlar orasida bu kitobni yoddan aytish anʼanasi shakllangan. Shuning uchun boʻlsa kerak, “Sabot ul-ojizin”ning ayrim baytlari ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, goʻyo maqolga aylanib ketgan. *Otang erdur, sen ham erdek qiliq qil, / Yomonlik aylaganga yaxshilik qil*, bayti bunga misol boʻla oladi. Ammo ogʻzaki ayni variantni yozma nusxalarning birortasida uchratmadik. Faqat bittagina nusxa – B317 da toʻla boʻlmasa-da, shunga yaqinroq shaklda: *Otang erdur, sen ham yerdek qiliq qil* deb aytilgan. Eng qadimiy A1057 nusxasida: *Otang (yoki oting¹) erdur, sen ham yerdek qiliq qil*. C2, IO, RA, C1 da: *Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil*. HT, A1074, C1420 da: *Oting yerdur, sen ham yerdek qiliq qil*.

Bu misraning ogʻzaki variantda aytilganidek: “Otang erdur, sen ham erdek qiliq qil” – emasligiga bir nechta dalil bor. Avvalo, ushbu misradan oldin kelgan baytlarga nazar solaylik:

*Kel ey inson, agar boʻlsang chin erdek,
Ogʻirlik peshva qil dunyoda yerdek.*

*Agar tepsa sani har qaysi mavjud,
Ziyon qilma, taqi yetkur anga sud.*

*Yuraking qilsalar ohan ila chok,
Chiqar oldigʻa turluk neʼmati pok.*

*Agarchi olama sandin tegar nafʼ,
Oʻzingdin qilma tufrogʻ otini rafʼ.*

*Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil
Yomonliq aylaganga yaxshilik qil.*

Mazmuni: *Ey inson, agar haqiqiy er boʻlsang, bu dunyoda yerdek ogʻir boʻl. Seni qancha toptab, tepsalar-da, ularga ziyon yetkazma, manfaat keltir. Yerni haydagan kabi koʻksingni temir bilan tilib yorsalar ham, ularning oldiga yerga oʻxshab turli-tuman pok neʼmatlarni muhayyo qil. Toki bu olamga sendan bir manfaat yetib turgan ekan, “tuproq” degan nomni oʻzingdan koʻtarma,*

¹ Mazkur nusxada bu soʻz **اتنگ** shaklida yozilgan. Bu shaklni esa “oting” deb ham, “otang” deb ham oʻqish mumkin.

uzoqlashtirma. Otang – Odam alayhissalom yerdan bunyod qilingan edi, endi sen ham yerga o'xshab, yomonlikka yaxshilik qilish sifatini o'zingda mujassam et.

“Otang erdur, sen ham erdek qiliq qil” emasligiga matnning o'zidan chiqarilgan bu birinchi mantiqiy dalil. Bo'lim “Juvonmardlik nishoni” (Haqiqiy er kishining belgisi) deb nomlangan va manzumaning avvalgi baytidayoq “agar haqiqiy er kishi bo'lsang, yerdek bo'l”, degan mazmun ifodalanmoqda. Go'yo “er bo'lish uchun avval yer bo'lish kerak” deb, yer obrazi oldingi planga olib chiqilmoqda. Keyin uning har bir qirradi go'yo qabariq oyna orqali ko'rsatilib, yer bilan bog'liq mazmun baytdan baytga ulug'lik kasb etib bormoqda. Bu ulug'lik shu darajaga yetadiki, yer tushunchasi endi o'zining boshlang'ich nuqtasi bo'lgan “haqiqiy er bo'lish” maqomini ham bag'riga singdirib yuboradi: *Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil.*

“Yer” bayt voqeligida butun sifatida oldingi safni tabiiy ravishda egallaganidan so'ng uning o'rniga sun'iy yo'l bilan bir qismni olib kelish badiiy mantiqqa zid. Agar “erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin” maqolidagi yerga berilgan salbiy ottenkani dastak qilib, mazkur misrada “yer”ning o'rniga “er” bo'lgani ma'qulroq, deb qaraladigan bo'lsa, misra avvalidagi yer ulug'langan baytlarni butkul olib tashlashga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham bu o'rinda “yer” o'rniga “er” deb o'qilishi ma'qul emas, ya'ni aqlga nomuvofiq.

Otang erdur, sen ham erdek qiliq qil emasligiga ikkinchi dalil arab yozuvi bilan bog'liq: er – اير ; yer – ير . Joriy yozuvimizda “yer”ni hech qachon “er” deb o'qib bo'lmagani kabi eski o'zbek yozuvida ham bu ikki har xil shaklni chalkashtirishning iloji yo'q, ير (yer) deb yozilgan bo'lsa, “yer” deb, اير (er) deb yozilgan bo'lsa, “er” deb o'qiladi.

“Otang” deb emas, “oting” deyilishida ham mulohaza bor. Har ikkala holda ham insoniyatning otasi – Odam alayhissalom nazarda tutilmoqda. Odam alayhissalomning tuproqdan yaratilganiga ko'ra “otang yerdur” deyilsa, o'xshatish tom bo'ladi. Agar “oting yerdur” deyilsa, arabcha آدم – “odam” so'zining lug'aviy ma'nolariga murojaat qilishga ehtiyoj seziladi. *Odam* so'zining arab tilida – qora, qo'ng'ir; teri, oshlangan teri kabi lug'aviy ma'nolari bor. Tuproq – yerning rangi qora yoki qo'ng'ir tusda bo'lishini hisobga olsak, “oting yerdur” shaklida, butundan qism chiqarilib, butunning o'rnida taqdim qilinyapti. Butunga o'xshatish mumkin va to'g'riroq bo'lgan holda qismga o'xshatish tashbihning nomukammalligiga

sabab bo'ladi. Mana shu dalillarga ko'ra matnda *Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil* shakli tanlandi.

Ilmiy-tanqidiy matnni tiklashda ikkinchi va uchinchi halqani tashkil etuvchi faol va yordamchi nusxalardagi tafovutlar birinchi halqa asos nusxa matn variantini quvvatlash uchun xizmat qildi. Negaki, asos nusxalardagi o'zaro farqlarning qaysi biri ilmiy-tanqidiy matn uchun ixtiyor qilinishi ayni holda o'zining daliliy tasdig'ini topadi. Masalan: "*Qadam bosqon manozil erdi pur atr*" misrasidagi *bosqon* so'zi asos nusxaning birinchi manbasi A1057-raqamli qo'lyozmada mavjud emas, ikkinchi qo'lyozma C2 da – *باسغان* (*bosg'on*) shaklida, uchinchi manba – HT da *باسقان* (*bosqon*) ko'rinishida uchraydi. Ilmiy-tanqidiy matn uchun ulardan qay birini tanlashimiz o'rinni? Keyingi halqa manbalariga murojaat qilamiz: A1074 va C161 da – *باسگان* (*bosgan*), IO, C1, RA da – *باسقان* (*bosqon*). Demak, o'zaro qiyos natijasida qo'lyozmalarda bu so'zning uchta – *bosg'on*, *bosqon*, *bosgan* ko'rinishi mavjud bo'lib, aksar nusxalarda *bosqon* kelgani ishonchli matn uchun shu shakl tanlanishiga asos bo'ldi.

Yuqorida aytilganidek, o'zaro farqlanuvchi ko'p nusxali matn orasidan yagona ishonchli matnni tiklash ba'zan mantiqiy dalillashni talab etadi. Masalan: *Bu tunda tut butun iymonimizni, / Saboh qutqor tutundin jonimizni* baytini olib ko'raylik. Baytdagi *توتوندين* – *tutundin* so'zlari asos nusxa A1057, C2 va yordamchi nusxa C1 da *بو توندين* – *bu tundin* deb berilgan va aksar toshbosma, bosma matnlarda shu shakl ommalashgan. Qo'lyozmaning qadimiyligiga suyanadigan bo'lsak, *bu tundin* varianti to'g'ri. Ammo u holda mantiq buziladi. Avvalgi baytda: *Qo'noqmiz bir kecha dunyoyi hecha, / Na ishlar kechadur bizdin bu kecha* deyilar ekan, bu dunyo bitta *kechaga* o'xshatildi. Keyingi baytda shu mazmun davom ettirilib, bu tunda, ya'ni bu dunyoda iymonimizni butun tut, deb Yaratgandan so'raldi. Shu yerda dunyo voqeligi tugab, so'z oxirat olamiga ko'chdi: *Saboh, ya'ni tongla Qiyomatda jonimizni tutundan – jahannam olovining tutunidan qutqar*. Oxirat olamida jonimizni bu dunyodan qutqar, deyish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Chunki sog'lom aqidaga ko'ra, Qiyomatda bandaning o'y-xayoli bu dunyoning emas, oxiratning g'amida bo'ladi. Demak, mazkur o'rinda *bu tundin* emas, *tutundin* deb o'qilishi to'g'riroq.

Xudovando yongildim turfa yozdim, / Shayotin makri birla yo'ldin ozdim baytidagi *يانگلدیم* – *yongildim* so'zining A1057, HT kabi asos nusxalarda *ينگلدیم* – *yengildim* deb yozilishida umumiy mantiq buzilmasa-da, mazmun saktaroq ifodalangan: "Ey Yaratguvchi zot,

shayton bilan jangda turli gunohlarni qilib yengildim” deyish to‘g‘ri, albatta. Ammo bunda So‘fi Olloyorning so‘z qo‘llashdagi badiiy mahoratiga biroz putur yetadi. “Adashdim” ma‘nosidagi *yongildim* qadim turkiy so‘zdir [Севортян 1974, 194]. *Yongildim* – yanglishdim, xatoga ketishning avvalgi darajasi. *Yozdim* – gunoh qildim, xatoning keyingi darajasi. *Ozdim* – ko‘p gunohlar qilib, yo‘ldan adashib ketdim, xatoning so‘nggi darajasi. Asos ma‘nosi bitta bo‘lgan uchta so‘z bir baytga sig‘dirilgan. Agar bu o‘rinda *yengildim* so‘zi qo‘llansa, So‘fi Olloyorga xos ruh ochilmay qoladi. Shu mantiqqa ko‘ra, ilmiy-tanqidiy matnda C2 asos va C1 yordamchi nusxalardagi *yongildim* so‘zi maqbul ko‘rildi.

“Sabot ul-ojizin” matnida bugun iste‘molda bo‘lgan ayrim turkiy so‘zlarning arxaik shaklda uchrashi kuzatiladi. *Uyalma ma‘rifatni o‘rganurdin* misrasi ko‘pchilikka tanish va yod bo‘lib ketgan. “Sabot ul-ojizin”ning Markaziy Osiyoga tarqalgan qo‘lyozma va toshbosma nusxalarida mazkur misra yuqoridagi tarzda kelgan. Rossiya FAsining Sharq qo‘lyozmalari instituti (Sankt-Peterburg) fondida saqlanayotgan eng qadimiy A1057 – asos, A1074 va “IO” – faol, B4149, C1420, “RA” – yordamchi va “GQ” nusxalarda misradagi “*o‘rganurdin*” so‘zi “*o‘granurdin*” deb yozilgan. Garchi uchta asos nusxalarning ikkitasi (C2, “HT”) da bu so‘z “*o‘rganurdin*” deb yozilgan va tilimiz shu shaklga moslashgan bo‘lsa-da, matn aniqligiga erishish maqsadida izlandik. E.V.Sevortyaning “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati” asarida bu so‘zning o‘zagi va undan yasalgan o‘zakdosh so‘zlar shunday ifodalangan: “ö – tushunmoq; ö-g – aql; ö-gur – tushuntirmoq; ö-güt (<ögür-t) – maslahat; ög-rä-n – tagiga yetmoq, o‘rganmoq; ög-rä-t – o‘rgatmoq” [Севортян 1974, 501].

Shuningdek, boshqa manbada “ög-rä-n” dagi birinchi bo‘g‘in undoshi – g bilan ikkinchi bo‘g‘in undoshi – r davrlar o‘tib o‘rin almashgani va bugun biz talaffuz qilayotgan holga kelgani aytilgan [Рахматуллаев 2000, 484-485]. Demak, So‘fi Olloyor yashagan davrlarda bu qadim turkiy so‘zning asl shakli saqlangan va adabiyotda qo‘llangan. Bunga “o‘granur” shaklining eng qadimiy manbalarda uchragani dalildir. Shuningdek, *yog‘mur (ko‘karmas tosha yog‘mur yog‘sa ham ko‘p), telmurmoq (tuban boshingni, telmurtur ko‘zingni)* so‘zlarini ham bunga misol qilsa bo‘ladi.

Matnshunoslik tadqiqida mantiqiy dalillash metodi qanchalik zarurat hisoblanmasin, qo‘lyozmada aks etgan real tarixiy matnga nisbatan ikkilamchi hodisadir. Ham mazmun, ham badiiy mantiq talab qilayotgan so‘z matnshunosga nechog‘li muvofiq ko‘rinmasin, qadimiy nusxa matnidani farqlanar ekan, bunday

vaziyatda yechimni subyektiv o'zanga burish natijani ilmiylikdan yiroqlashtiradi.

Ilmiy-tanqidiy matnning ishonchliligi ayni jarayonda o'ziga ma'qul bitta qo'lyozma, bitta nusxa, bitta matn atrofida o'ralashib qolmasdan, balki ta'sirlardan yuqoriroq ko'tarilib, farqlarga obyektiv nazar bilan qarash malakasining shakllanishiga bog'liq. Chunki tayyorlanayotgan matn matnshunosniki emas, uning o'z muallifi bor. Matnshunos har tomonlama asoslangan ilmiy-tanqidiy matnni tiklar ekan, bu bilan u go'yo muallif matnini taqdim qiladi. "Matnning muallif ishtirokisiz amalga oshirilgan har qanday tahriri esa asar mohiyatiga zarar yetkazishi jihatidan maqsadga muvofiq emas" [Жабборов 2013, 7]. Ilmiy-tanqidiy matn taqdimi shu darajada mas'uliyatli va jiddiy masala.

Muqoyasa jarayonida bir necha marta shunday vaziyatga duch keldik. Misol sifatida birinchi halqaning uchinchi – HT va uchinchi halqaning beshinchi qo'lyozmasi – C1 nusxalarda kelgan *To'shab qalin, yopib toat jamolin, / Qo'yubsan boshinga bolin vabolin* baytini keltirish mumkin. Baytning sharhi: *Ibodot soatida tagingga qavat-qavat qalin ko'rpachalarni to'shab va shu ishing bilan toat jamolini yopib, to'sib, boshingni zarar-ziyon bolishiga qo'yib, g'afolatga botib yotibsan.* Boshqa baytlarning ma'nosi va manzumaning umumiy mazmuni mazkur baytni shunday sharhlashni taqozo qilyapti. Chunki manzuma *Kel, e zohid, qo'lungdin berma toat, / Ziyod et toating soat basoat* deb boshlangan va *toat* mavzusi baytdan-baytga davom ettirilgan. Manzumaning umumiy ruhi va badiiy mantiq ushbu o'rinda *toat* so'zining ishlatilishini har tomonlama tasdiqlayapti. Ammo birinchi halqa qo'lyozmalarning eng qadimiysi – A1057 va C2 asos nusxalarda, ikkinchi halqaning eng qadimiy – A1074 va IO sharh nusxalarida bu o'rinda *toat*ga ham mazmunan, ham shaklan zid bo'lgan *bid'at* so'zi qo'llangan: *To'shab qalin, yopib bid'at jamolin, / Qo'yubsan boshinga bolin vabolin.* Arabcha *bid'at* so'zining lug'aviy ma'nosi "yangilik"dir. Shariat istilohida *bid'at* deganda shar'iy dalili yo'q, hech bir asossiz dinning tarkibiga qo'shib qo'yilgan narsa tushuniladi. Demak, kimki xoh aqidada, xoh so'zda, xoh amalda shar'iy asosga ega bo'lmagan yangi bir ishni dinga bog'lasa, bu *bid'at* hisoblanadi.

Endi bu ma'noni qanday qilib baytga joylaymiz? Manzumaning umumiy mazmuni, badiiy mantiq butun bo'y-basti bilan bu harakatimizga qarshi. Qolaversa, *bid'at* tushunchasi salbiy hodisaga dalolat qilar ekan, qanaqasiga bu salbiylikni ijobiy ma'nodagi *jamol* so'zi bilan sifatlash mumkin?

Lekin boshdan-oyoq qurollangan bu mantiqiy dalillar tarixiy qat'iyat bilan to'la zirhlangan qadimiy matn oldida hamisha o'jiz. Matnning ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra, bitta umumiy nusxadan ko'chirilmagani aniqlangan, har biri alohida, mustaqil qo'lyozma sifatida yuzaga chiqqan qadimiy matnlarning barchasida na tasodifan, na ongli ravishda bir xil xato sodir etilishi mumkin bo'lmagan ish. Demak, qadimiy nusxalarda kelgan matn shakli ustida jiddiyroq izlanishga majburmiz.

*To'shab qalin, yopib **bid'at** "jamol" in,
Qo'yubsan boshing bolin vabolin.*

Ya'ni: *Ibodot mahalida qalin ko'rpa-to'shaklarga burkanib yotishing – dinda bo'lmagan ishni paydo qilishingdir, asli yomon va xunuk bo'lgan ishni yaxshi va chiroyli qilib ko'rsatishingdir. Bu ishing bilan boshingni ziyon-u zarar bolishiga qo'yibsan.*

Agar baytga mazkur sharh orqali yondashsak, manzumaning umumiy mazmuniga xos toat mavzusi uning ziddi bo'lgan holatni keltirish bilan chuqurlashmoqda. Yo'qni bor, yomonni yaxshi, xunukni chiroyli qilib ko'rsatish toatni tark qilgan mahalda yuzaga chiqib, bu illatlar bid'atparastlik, kazzoblik, munofiqlikning alomati ekani baytdan anglashilmoqda. *Jamol* so'zi lug'atda "go'zallik", "chiroy" ma'nosini anglatadi. Lug'aviy ma'nodagi sifat (*go'zal, chiroyli*) inson tanasidagi eng qadrli joy – yuzga nisbatan ishlatilib, bora-bora *jamol* deyilganida mutlaq yuz, chehra tushuniladigan bo'lgan. Shuning uchun ham qachonki, *jamol* so'zi qo'llansa, daf'atan *inson yuzi* tasavvurga keladi. Agar baytdagi "jamol" lug'aviy ma'nosi bilan izohlansa, "bid'at chiroyi" birikmasi hosil bo'ladi. Bunda bid'at – haqiqiy, chiroy – majoziy ma'noda qo'llanilmoqda. Ya'ni: *aslida yo'g'-u, lekin bordek, aslida yomon-u, ammo yaxshidek, aslida xunuk-u, biroq chiroyli qilib ko'rsatilayotgan bid'at kiyimini ustingga yopib...* Balki ayni shu ma'noga ko'ra "Irshod ul-ojizin" sharhida *yopib bid'at jamolin* iborasi "bid'at kiyimin yopinib" deb izohlangan. Baytdan shu mazmun tushunilgani uchun ham matnning joriy yozuvdagi shaklida *jamol* so'zi qo'shtirnoq ichiga olindi.

HT nusxasida yana bir qiziq hol kuzatiladi. "Sezmoq", "his qilmoq" ma'nosidagi "tuymoq" fe'li ko'p holda "bilmoq" fe'li bilan o'rin almashgan. Masalan:

*Inoyat nomasin qo'lg'a olurlar,
U kunni o'tganin **bilmay** qolurlar...
Agar banda mu'azzab bo'lsa anda,
Qolur **bilmay** bu ishni ul daranda...*

*Tuzuk yo'l deb qadam o'tru solursan,
Quduqg'a tushganing **bilmay** qolursan.*

Qadimiy nusxalarning barchasida baytda kelgan *bilmay* so'zining o'rnida *tuymay* so'zi qo'llangan. Bu ikki so'z ma'nosi maqsad e'tibori bilan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, amalda namoyon bo'lishi jihatidan farqlanadi. *Bilmay qolish* kechinmasiga *tuymay qolish*dan ko'ra ko'proq vaqt sarf bo'ladi. Chunki *bilmay qolish* fe'li ongda, *tuymay qolish* esa sezgida namoyon bo'ladi. Psixofiziologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, sezgi o'ylash, fikrlash va sonsiz tushunchalar oralab kechadigan ong faoliyatidan ancha tez ro'y beradigan jarayondir. Keltirilgan baytlardagi voqelik esa ayni tezlikni taqozo qilyapti. Shunga ko'ra, ilmiy-tanqidiy matn uchun qadimiy nusxalardagi *tuymay* varianti tanlandi.

So'fi Olloyor hayoti bo'yicha izlanishlar olib borgan Sh. Sirojiddinov tadqiqotlaridan birida So'fi Olloyorning o'g'li, to'g'rirog'i, uning ismi xususida adabiyotlardan adabiyotlarga o'tib kelayotgan ma'lumotni shubha ostiga qo'yib, "aslida uning ismi Muhammad Sodiq emas, balki Muhammad Siddiqdir" deydi [Сирожиддинов 2001, 9]. Adabiyotshunos olim hijriy 1408/1988-yili Tehrondagi "Al-maktabat ul-islomiyya", Gunbadi qobus – Hoji Tilloyi matba'a nusxasidagi ma'lumotlarga asosan bu fikrni ilgari surgan edi. Albatta, bitta bosma nusxadagi ma'lumotdan xulosa yasab, tarixiy haqiqatni shakllantirish mushkul ish. Ammo eng qadimiy nusxalar sanalgan A1057 va C2 nusxalarda kelgan bu faktga oid matn Sh. Sirojiddinovning So'fi Olloyor o'g'lining ismi haqidagi qarashi to'g'riligini uzil-kesil hal qildi:

*Ko'zumni ravshani **Siddiq** (صَدِيق) Muhammad,
Yiroq bo'lsun ko'zingdin diydai bad.*

Xulosa

So'fi Olloyor XVII–XVIII asr o'zbek adabiyotida o'z ovozi, o'z o'rniga ega ijodkorlardan. Bu davrda va undan keyin ham hech bir manba xalq orasida So'fi Olloyor asarlari darajasida ommalashmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu asarlar, ayniqsa, "Sabot ul-ojizin" kitobi doimo olimlar e'tiborini tortib kelgan. Ushbu tadqiqotimiz ham So'fi Olloyor ijodini o'rganish yo'lidagi tarixiy silsilaning uzviy davomidir.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. 2000. *Мезон ул-авзон*. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд. Тошкент: Фан.
Жабборов, Н. 2013. "Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи".

Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари, 7-12. Қарши: Насаф.

Сирожиддинов, Ш. 2001. *Сўфи Оллоёр илоҳиёти*. Тошкент: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси.

Севортян, Э.В. 1974. *Этимологический словарь тюркских языков*. Москва: Наука.

Раҳматуллаев, Ш. 2000. *Ўзбек тилининг этимологик луғати*. Тошкент: Университет.

Юсуф Ҳос Ҳожиб. 1972. *Қутадғу билиг*. Нашрга тайёрловчи: Қажом Каримов. Тошкент: Фан

Difficulty of Scientific-critical text

Rashid Zohidov¹

Abstract

When analyzing a literary text, it is necessary to work with the text of the work, close to the original, prepared on the basis of excellent scientific and critical texts. Accordingly, the science of textual criticism faces the task of creating a perfect edition of any literary heritage. When compiling a scientific-critical text, there are general rules for all sources, as well as features that arise when studying each source.

If common features are determined by comparing several copies of texts, grouping disassembled copies and choosing the main copy, then the features lie in the formation of a scientific apparatus based on the direction of the source being studied.

The article presents information about the observations related to the study of the text in the preparation of the scientific-critical text of the Sufi work of Olloyar "Sabot ul-Odzhizhin".

Key words: *scientific apparatus, reliable text, method of logical proof, text editing, text correction, "Sabot ul-ojizin", serial system, specific feature, general law.*

References

Alisher Navoiy. 2000. *Mezon ul-avzon*. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. Toshkent: Fan.

¹ *Rashid F. Zohidov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

For citation: Zohidov R. F. 2023. "Difficulty of Scientific-critical". *Golden scripts* 2: 4–15.

- Jabborov, N. 2013. "Adabiy manbalarda matn tahriri masalasi". *Adabiy manba: o'rganishning zamonaviy tamoyillari va nashr muammolari*, 7-12. Qarshi: Nasaf.
- Sirojiddinov, Sh. 2001. *So'fi Olloyor ilohiyoti*. Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi.
- Sevortyan, E.V. 1974. *Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov*. Moskva: Nauka.
- Rahmatullaev, Sh. 2000. *O'zbek tilining etimologik lug'ati*. Toshkent: Universitet.
- Yusuf Hos Hojib. 1972. *Qutadg'u bilig*. Nashrga tayyorlovchi: Qayum Karimov. Toshkent: Fan

Tabibiy debochalari

Shermuhammad Amonov¹

Abstrakt

Odatda, devonlarning kirish qismida muallif tomonidan, baʼzan boshqalar tomonidan maxsus yoziladigan soʻzboshi (muqaddima)lar – debochalar yozilgan. Bunda devon yoki muayyan majmuani tuzilishiga sabab boʻlgan omillar, toʻplamning tuzilishi yoki tarkibiga oid maʼlumotlar, muallifning uzrxohligi va duoyu iltimosi oʻz aksini topadi. Tabibiy ham “Munisu-l-ushshoq” devonida ana shunday mazmunda debocha yozgan. Ushbu debocha matni shu paytgacha toʻliq tabdil etilmagan. Umuman, debochalar shoir adabiy-estetik olamini aniqlashda muhim hisoblanadi.

Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devoni hajman yirik boʻlib, unga mumtoz adabiyotimizning gʻazal, mustazod, murabbaʼ, muxammas, musaddas, musabbaʼ, musamman, mutassaʼ, muashshar, masnaviy-soqiynoma, ruboiy, qasida, shiru shakar, varsoqi kabi sheʼr namunalari kiritilgan.

Ushbu maqolada Tabibiyning devonlari uchun yozgan debochasi matni haqida mulohazalar bildirilgan va debocha matnining toʻliq tabdili keltirilgan.

Kalit soʻzlar: *qoʻlyozma, manba, debocha, devon, tazkira, biografiya, janr, nazm.*

Kirish

OʻzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qoʻlyozmalar fondida Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonining ikkita qoʻlyozmasi 6226 va 3461-raqamlari bilan saqlanadi. Bulardan 6226-raqamli qoʻlyozma “Munisu-l-ushshoq”ning mukammal varianti hisoblanadi.

Ushbu qoʻlyozma manba qalin qora muqovada boʻlib, muqova ustida ham oxirida ham 3 tadan unvon bor. Mazkur manba Ahmad Tabibiyning oʻz devonlari uchun yozgan maxsus debochasi bilan boshlanadi. 1^b-sahifa oʻrtasida qizil siyoh bilan “*Debochai Tabibiy*” deb sarlavha qoʻyilgan. Soʻng “*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*”

¹ Amonov Shermuhammad Normurotovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: shermuhammad1106@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-3962-1774

Iqtibos uchun: Amonov, Sh. N. 2023. “Tabibiy debochalari”. *Oltin bitiglar* 2: 16–39.

bilan debocha matni keltirilgan. Debocha matni 9^a -sahifada tugaydi (1-rasm).

Shuningdek, ushbu fondda 8949-raqami ostida saqlanayotgan toshbosma manbada ham Ahmad Tabibiyning ikkita turkiy devoni jamlangan. Bular “Munisu-l-ushshoq” va “Hayratu-l-ushshoq” devonlaridir. Ushbu manbada toshbosmaning qachon va qayerda bosilgani haqida hech qanday ma’lumot berilmagan. Toshbosma matni ham debocha bilan boshlanadi (2-rasm).

Debochada janrlar tafsifi

Mumtoz she’r nazariyasiga doir manbalarda, jumladan, Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog’a” asarida she’r janr (nav’)lari haqida quyidagicha ma’lumot beriladi: *“Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she’rning aqsomi, ulkim mo’tabardur, o’n nav’ kelibtur: qasida, g’azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval, fard”* [Тарозий 1996, 32].

Tabibiy turkiy devonlari debochasida quyidagilarni yozadi: *“Alqissa, “Al ma’muru ma’zurun” hadisi mafhosicha bu xidmati zi saodatni joni ko’ngul bila qabul qildim. Bu farmoni vojibul iz’onni bitkargali boshdin qadam qilib yeldim. O’n nav’i nazmkim tashbib, g’azal, mustazod, musammat, ya’ni murabba’dan to muashshar-g’acha, tarje’band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit’a, fard itloq qilurlar. Jam’i o’n rang guldurkim tab’iyat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog’lab huzuru vofiru-s-sarvarig’a yetkurdum. Hazrati vohibu-l-atoyo va g’ofiru-l-xatoyodin umid qilurmenkim maqbuli tab’i anvari va matbu’i xotiri safoparvari qilg’ay”*.

Shayx Ahmadning she’riy janrlar haqidagi fikrlari Tabibiy qarashlari bilan hamohang. Taroziy keltirgan she’r nav’laridan 9 tasini Tabibiy ham qayd etadi. Tabibiy mutavval janrida she’r yozgan bo’lsa-da, negadir she’r navlarini sanaganda bahri tavilni qo’shmaydi.

Ma’lumki, bahri tavil she’r shakli Sharq klassik adabiyoti, ayniqsa, turk-o’zbek va forsiy-dariy adabiyotida bir xil ustoz shoirlar tomonidan qo’llanilib kelingan. Ushbu she’riy shaklning tavil bahri deb nomlanishi haqida aniq ma’lumot yo’q. Lekin uning misralari o’ziga xos cho’ziqlikka ega bo’lishi bois, bu ismga mashhur bo’lgani taxmin etiladi. Eski shoirlar uchun tavil bahri, badiiy qobiliyatini sinash uchun bir an’ana bo’lgan. Tavil bahri Sharq mumtoz she’riyatida hajviy, tanziy (kinoya, ta’na qilmoq) va sevgi-muhabbat mavzulari ifodasi uchun qo’llanilgan. Tavil bahri misralarining har bo’lagi son va raqam qo’yish bilan bir-biridan

ajratilgan va har bir satri (misrasi) o'ziga xos qofiyaga ega. Ba'zi adabiyotshunos olimlar tavil bahrini aruziy vaznidan qochish deb taxmin etadilar. Aruz ilmida ham "tavil" bahri mavjud. Lekin ular orasida vazn jihatdan hech qanday aloqa yo'q. Chunki ushbu aruziy vazn arab she'riyatiga xos bo'lgani bois o'zbek she'riyatida kam qo'llanilgan. Aruziy vaznlardan sanalmish "tavil bahri" aruziy bahrlarning *muxtaliful-arkon* turkumiga kirib (fa'ulun, mafo'ilun, fa'ulun, ma'fo'ilun)ning har misrada bir marta takrorlanishidan hosil bo'ladi [Aminiy 1389/2007, 71-72].

Tabibiy she'r nav'laridan bahri tavilning o'rniga qasidaning kirish qismi bo'lgan – tashbibni keltiradi. Qasidaning muqaddimasi *tashbib* deb atalgan. Tashbibda tabiat manzaralari, sevgi va ishq mavzulari latif va nozik shoirona taxayyul bilan tarsim (surat, rasm) etiladi. Tashbib lug'atda yoshlikni eslatish demakdir. Tashbib adabiy istiloda "tag'azzul" va "nasib" deb ham yuritiladi. Qasidaning ikkinchi qismi (muqaddimadan madh yo zamga o'tish (madu zam – ta'riflamoq yoki yomonlamoq) husni taxallus yo gro'z (qochmoq) deb ataladi. Bunda shoirning asosiy maqsadi zikr etiladi. Uchinchi qismi "sharita" (shart bog'lamoq yoki shart qo'ymoq) deb ataladi [Aminiy 1389/2007, 18-19].

Istiqolol yillarida debochalar alohida tadqiqot mavzusi sifatida keng o'rganila boshlandi. Bunday tadqiqotlarning ayrimlarida Ahmad Tabibiyning devonlari uchun yozilgan debochasi yuzasidan ham qisman fikrlar bildirildi [Каримова 2004, 36-37]. Albatta, shoir ijodi tadqiqi bilan bog'liq ishlar e'tiborga loyiq. Biroq shu paytgacha shoirning birorta she'riy devoni to'liq tadqiq etilmadi, ulardan birortasi nashr qilinmadi. Shoir ijodi bilan bog'liq tadqiqotlarda ham Tabibiy asarlari matni ayrim nuqsonlar bilan tabdil qilinmoqda.

"Majmuayi si shuaro'i payravi Feruzshohiy" tazkirasining bir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 1152-raqami bilan saqlanadi. Ushbu manba matni "*basmala*" va she'riy debocha bilan boshlanadi. Debochaning hajmi 300 misrani tashkil etadi. Tazkiradagi ilk nazm 12 baytli masnaviy va Feruzning "*paydo*" radifli g'azali bilan boshlanadi. Ma'lumki, ushbu manbada shoirning o'z she'rlaridan ham kiritilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tazkira yuzasidan ayrim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ushbu manbani matniy tadqiqi to'la amalga oshirilgani yo'q.

Debochada Tabibiy tarjimayi holi tavsifi

Tazkirada Tabibiy muayyan shoir she'rlarini keltirishdan oldin ijodkor haqida tavsif (masnaviyalar) berib o'tadi. Tazkira matnini kuzatar ekanmiz, shoir o'zi haqida quyidagilarni yozadi:

"Dedi bu g'azalni Tabibiy nazor, Yurub lashkar izida misli g'ubor", "Tabibiy nechuk surgay uzun maqol, Ki bu xayl aro bordur oshufta hol. G'arazkim qilib jahdlar behisob, Bo'lub payravi Xisravi Jam janob", "Tabibiy mahzunu zoru nazor, Ki bori payravi shoh jism iqtidor. Dedi bu g'azalni itoat bila, Duogo'y o'lub sidqi niyat bila", "Tabibiyda yo'q garchi ilmu amal, Vale tobe' o'lmoqq'a topmish mahal. Sanoxon o'lub ushbu dargoh aro, G'azal degali jahd etar borho. Hama nazm ahlinidur sodasi, Oning tab'ining bu erur zodasi", "Tabibiyki bori nazm eli chokari, Demas nazm Haq bo'lmasa yovari. G'araz degusi nazmi laylu nahor, Bo'lub payrav Xisravga komgor".

Ushbu masnaviyalardan ham ko'rinib turibdiki, yuqorida ta'kidlanganidek, Tabibiy tazkirasida ijodkorlarning biografiyasi bilan bog'liq ma'lumotlar berilmagan. Biroq Tabibiy o'zining devonlariga yozgan debochasida, ba'zi bir she'rlarida o'zining ijtimoiy ahvoli haqida ayrim ma'lumotlarni keltiradi. Jumladan, shoir devoni debochasida o'zi haqida shunday yozadi:

"... Ori fozil kimsa fuzalo va ulamonavoz bo'lub va ilmu ma'rifat kunhiga yetgan kishi ulamo bila suhbat tuzub nuqtaparvoz bo'lg'ay bovujud men ham bu xonadong'a bandai zamim va xizmatga sarafgandai qadim bo'lub aboanjad xonazoda g'ulomi pok e'tiqod erdim.

Nazm:

*Otam bu borgahg'a erdi banda,
Onam bu ostong'a sarfiganda.*

*Bas emdi men erurman xonazoda,
Bu ikkidin manga nisbat ziyoda.*

*Ne tong faxr aylasam ahli jahong'a,
Ki bor men bandai shohi komrong'a.*

*Chu men bekasda **qulluq nisbati bor,**
Jahon ahlini bikkull davlati bor.*

*Angakim yor esa qulluqda mansub,
Saodat haylidan bo'lg'usi mahbub.*

Ammo jahl va nodonlig' kasratidin junun va parishonlig' shiddatidin bu gardunnishon ostonidin yiroq tushdum huzuru g'ofir us-sarvarig'a musharraf bo'lmag'onlig' hasratidin behuzurlig'ga

tushdim. Baharhol ushbu g'ussaning dofe'i va bu illatning nofe'i bo'lmoq umidi bila gohi g'azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg'a yetkurub iltifoti shohona va 'atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob bo'lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig'a manzur va kaminqullar qatorida otim mazkur bo'lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz balki hama fozillar ichida mumtoz bo'ldum".

Ko'rinadiki, shoir ijtimoiy kelib chiqishi haqida "Chu men bekasda qulluq nisbati bor" degan fikrni aytadi. Bunday fikrlar shoirning ayrim g'azallarida ham uchraydi. Jumladan, shoir turkiy tilda tuzilgan "Munisu-l-ushshoq" devoni debochasida o'zini "Nokomlig' bodasining sargardoni va beoromlig' zoviyasining majnuni hayroni ahqaru-l-ibod mulku-s-samad va aqsari umam hazrati Muhammad ibn hoji Ali Muhammad almutaxallis bit-Tabibiy Ahmad g'afarollohu zunubahumo va satara uyubohumo o'z ahvolidin bu nav' ajz va qusur bila takallum surar", – tarzida tanishtiradi.

Mazkur devonning bir necha o'rnida shoir o'zining ijtimoiy ahvoli bilan bog'liq ayrim baytlarni keltiradi. Jumladan, devonning 71-g'azalida "Mani bechora miskin abo'anjad g'ulomiman, Ishim qilmoq duoi sidq ro'zu shab anga, yo Rab", 466-g'azalida "Tabibiykim, abo'anjad g'ulomi kamtarinidur, Oni qil, xizmatida borho nazm ila madhxon", 475-g'azalida "Muruvvatdinmu solmoq emdi ko'zdinkim abo'anjad, Sari xoni navolingdin g'ulomi luqmaxoringman", 479-g'azalida "Miskin Tabibiykim, abo'anjad g'ulomidur oning, Lutfi inoyoti sori qilg'il oni doim qarın" 599-g'azalida "Mango boqma haqorat birlakim, man ham Tabibiydek, Abo'anjad g'ulomi shohi davrondurman, ey soqiy" kabi misralarni uchratish mumkin. Bunday baytlarni shoirning turkiy (o'zbek) tilidagi she'rlari jamlangan ikkinchi devoni "Hayratu-l-ushshoq"da ham uchratish mumkin. Masalan, "Hayratu-l-ushshoq" devonidagi 510-g'azal quyidagicha yakunlanadi:

*Tabibiykim aboi anjad g'ulomi xonazodingdur,
Iloho, madhinga ul shoiri vaqti shior o'lsun.*

Ilmiy izlanishlar natijasida Ahmad Tabibiy tomonidan "Tavorix al-xavonin" ("Xonlar tarixi") degan tarixiy asar yozilgani aniqlandi¹. Asar maxsus debocha bilan boshlanadi. Jumladan,

¹Ushbu asar Xiva "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy kotibi Komil Xudoyberganov shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.

debochada quyidagilarni o'qish mumkin: *"Bismillohir Rahmonir Rahim! Hamdi bag'oyat va sanoe bilo nihoyat ul Podshohi alal itloq va xudoyi Razzoq dargohig'a boistadurkim oning vujudig'a ne ta'rix iibtido paydo va ne Xoliqliqig'a zamoni intiho. Bemisl, bechun, besharik, berahnamun, avval va oxir va zohir va botin Uldur "kamo fiy qavlihi taolo huvallohul avvalu val oxiru vaz zohiru val botin laysaka mislihi shay'un va huvas sami'ul basir..."*

Debochada kitob muallifi o'zini:

"Ammo bu ovoni behjat iqtironida ushbu faqiru haqiru kasiru taqsir a'jaz ibodul malikul ahad Ahmad al-mutaxallis bit-Tabibiy inb Hoji Ali Muhammad g'afarollohu zunubihimo va satara uyubihimokim, bu xonadoni oliyning abananjaddi bandai qadimiysi va bu dudmoni mutaoliyning afgandayi samimisi erdi" [Tabibiy, 3] – tarzida tanishtiradi.

Asarning yozilish va uning nomlanishi haqida esa quyidagilarni yozadi: *"Ongo ishorati oliya va bashorati nomutanohiya nizomul-mulku val-millat vazir sohibi tadbiri ioratdastgoh vazoratpanosida Islomxo'ja valadi arshad Ibrohimxoja marhumining vasotati bila mundoq sudur toptikim, jahon mulki xoblig' bila tav'am balki jam'i ashyo o'z vaqti bila bir-bir adamdur bas... Ammo bazoatim kam va istitoatim adab bo'lg'onliq jihatidin ko'unglima mustaribliq voqe' bo'lsa ham al-ma'muru ma'zur fahvosig'a amal etib zamini ubudiyat bo'sa qildim va bu ish shuru'in o'zimga mo'jibi davlati uzmo bildim. Janobi boriyi Taolo jalla sha'nuhudin ummid ulkim bu kitob og'ozin xayriyat bila anjom tammati davlatiga musharraf qilib podishohi mamduh hazratlari tab'ig'a maqbul qilg'oy. Omin va mon tavfiqi illo billo. Mahfiy qolmog'oykim, bu kitob besh bob bila murattab bo'lib, "Tavorix ul-xavonin" ismi bila mavsum bo'ldi" [Tabibiy, 4].*

Demak, ushbu asar Isfandiyorxon davrida Islom Xo'janing buyrug'iga ko'ra yozilgan. Qo'lyozma fabrika qog'oziga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Sarlavhalar, nazmiy qismlar va muhim voqealar nomi qizil rang bilan yozilgan. Qo'lyozma o'lchami 35x22sm. Tabibiyning ko'rsatishicha "bu kitob besh bob bila murattab bo'lib" [Tabibiy, 4], bunda Islom Xo'ja xonadonining tarixi ham yoritilishi kerak bo'lgan. Ushbu asarida ham muallif o'zini *"Ahmad ibn Hoji Ali Muhammad"* tarzida tanishtiradi.

Ushbu ma'lumotlar Ahmad Tabibiyning ijtimoiy kelib chiqishi haqida aniq tasavvur beradi. Bu esa Xodim tazkirasidagi shoir biografiyasiga oid ma'lumotlar haqiqatga yaqin, degan taxminga asos beradi.

Tabibiy adabiy merosi adadi

Ahmad Tabibiy adabiy merosi manbalarining tadqiqi shoirning mukammal va terma devonlari mavjud ekanini ko'rsatadi. Shoir o'z devoni debochasida quyidagi ma'lumotni keltiradi:

“Maxfiy qolmasinkim bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on mudavvan kitobning jumlası besh devondurkim, uch devon turkiy lafzi bila fasohatorodur va ikki kitob forsiy alfozi bila balog'at payrovdır. Avvalg'i devong'akim sultoni oliyjoh janobi mu'allo al qobig'a hadyalig' sababidin “Tuhfatu-s-sulton” deb tasmiya qilindi. Va ikkinchi devong'a ushshoq unsiyati jihatidin “Munisu-l-ushshoq” ismi bila musammo bo'ldi. Va uchlanchi devong'a ishq holotin mu'oyana ko'rguzguvchi vajhidin “Mir'otu-l-ishq” oti bila mavsum etuldi. To'rtlanchi devong'a oshiqqlar o'qub mutolaa qilur hangomlarida hayratfazolig' mo'jibi bila “Hayratu-l-ushshoq” deb ism berildi. Beshlanchi devonni bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo'lg'on boisi bila “Mazharu-l-ishtiyoq” deb ataldi”.

Demak, Tabibiy beshta she'riy devon tartib bergan. Jumladan, uning “Tuhfatu-s-sulton”, “Munisu-l-ushshoq”, “Hayratu-l-ushshoq” devonlari turkiy tildagi lirik asarlardan tarkib topgan bo'lsa, “Mir'otu-l-ishq” va “Mahzaru-l-ishtiyoq” devonlarida shoirning fors-tojik tilidagi she'riy asarlari jamlangan. Bundan tashqari, shoir “Vomiq va Azro” dostonining o'zbekcha she'riy variantini yozdi. Eronlik shoir Vahshi Bofiqiyning “Nozir va Manzur” dostonini, ozarbayjonlik shoir Muhammad Fuzuliyning “Haft jom” asarini forsiydan o'zbekchaga tarjima qildi. Fuzuliyning tarjimasi ta'sirida o'zining “Yetti ravza” nomli asarini yozib, Xorazm shoirlari tazkirasini tuzdi.

Tabibiy devonlari tadqiqi shoirning bu mavzuga nechog'li keng o'rin ajratganini ko'rsatadi. Masalan, “Munisu-l-ushshoq” devoni debochasidan boshlab, devonning oxirigacha diniy-ma'rifiy mavzular aks etgan lirik asarlar ko'chirilgan. Shoir turkiy devonlari uchun yozgan debochasida o'nlab Qur'on oyatlari va hadisi shariflar uchraydi. Masalan, debochadagi quyidagi parchaga e'tibor qaratsak:

“Jalla jalaluhu va 'amma navaluhu bisyor salavot amta'asi va beshumor tahiyyat hadoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobig'a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig'a hadyai takror alat takrordurkim “Ana afsahu...” gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va “Ana amlahu...” shakkaristonining to'tiyi shirin maqoli va malihlisonidur bovujud muncha fasohat va balog'at va muncha mu'allo daraja va martabat bila ham “al faqru faxri” hadisig'a notiq “Ma 'arafnaka haqqo ma'rifatika” mazmunig'a

shoyiq erdi **“Ya ayyuhar rasulu ballig’ ma unzila ilayka...”** karimasi mazmunining xitobi mustatobi mo’jibincha kutubi osmoni va suhufi Rabboniyning mazomin aynaqa va ma’niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri ongo muttale’ va muttabe’ erdi. Fasohatbayon lison va balog’at tarjemoni zabon bila taqrir zuhurg’a kelturdi **“va ma alar rasuli illal balag’u...”** mafodincha ulchakim tengri taolo va taqaddasa hazratidin ahkom va bayyina va masoili yaqiniya tablig’ig’a ma’mur va marsul bo’lmish erdi. Kalom gavhari intizomi bila **“Qulu amanna billahi va ma unzila ilayna...”** mazmunin zuhurg’a yetkurub tabiat zulmatobodi sargashtalarin ogohlig’ shahristoni shoh rohi tarafig’a boshqarib: **“Haza sirotiy mustaqiman fattabi’uhu”** ishorati bila dini islom tariqi sulukig’a buyurdi”.

Bu bitta parchadagi misol. Bundan tashqari, debocha hamd, na’t, chori yorlar tavsif etilgan nazm namunalari bilan boyitilgan. Ta’kidlash kerakki, Tabibiy debochasi to’liq oyat va hadislardan iqtiboslar asosida bitilganki, bu hol devonning badiiy qimmatini nechog’li baland ekanini ko’rsatadi. Shoir devonlaridagi aksariyat g’azallarda oyat va hadislarini singdirib yuborgan. Shoir ijodida Qur’on oyatlari va payg’ambar (s.a.v.) hadislarini to’g’ridan-to’g’ri g’azallarda hamd, na’tlar orqali hamda chori yorlar tavsif etilgan **“Ey vujudingg’a emas zohir zamoni ibtido”**, **“Zihi ermas vujudingg’a azal satrida had paydo”**, **“Zihi bor qudrating osoridin kavnu makon paydo”**, **“Sano bo’lsun ongakim bordurur ul Qodiri Yakto”**, **“Izhoru qudrat aylabon, ey Xoliqi arzu samo”**, **“Zihi jamolingga mazhar erur hama ashyo”**, **“Zihi sun’ing bila ashyo ikki olam aro paydo”**, **“Zihi vujudinga yo’q vaqti ibtido paydo”**, **“Ey jumlai guruhi nabilarga peshvo”**, **“Assalom, ey shahriyori, hoshimiy Makkiy laqab”**, **“Ey berib, me’roj izzu rutbasin tangri Sango”**, **“Zihi sanga beribon Tangri rutbai darajot”** g’azallar bilan boshlanadi. Yana, shoirning kichik lirik janrlarga oid lirik asarlarida ham ushbu mavzu yetakchilik qiladi. Quyida Ahmad Tabibiyning o’z devonlari uchun yozgan debochasi matni tabdili to’liq keltirildi.

“Debochai Tabibiy” “Bismillohir-Rahmonir-Rahim”

Hamdi bag‘oyat va sanoye benihoyat ul mutakallimi kalomi ofarin va qoyili kitobi Furqoni mubiyn dargohig‘a loyiq va sazovor va borgohig‘a tuhfa va nisordurkim mumkinot nazmin adami tab‘idin qudrat aruzi kamoli bila vujud devonig‘a kelturuvi inson vujudi majmuasi g‘azaliyotig‘a borcha masnuotdin ziyodaroq badoye’ va sanoye’ izhor etib tilin har turluk nutqg‘a notiq va mezoni tab‘in anvoi’ suxanni sanjida qilmoqg‘a loyiq erkonin bildurdi.

Nazm:

*Qodirikim hama jahon yaratib,
Onda har nav’ insi jon yaratib.*

*Borchadin ashraf aylab insonni,
Bildurub oncha rozi pinhonni.*

*Ko’nglin etti ulumg‘a loyiq,
Tilini qildi nuktaga notiq.*

*Toki hamdig‘a bo‘lsun ul zokir,
Borcha ahvolig‘a bo‘lub shokir.*

*Budurur qudrat Xudoyi Karim,
Ki erur vasf ongo sami’un aliyim.*

*Har nekim bordur oshkoru nihon,
Borchasi keldi oni sun’i O’g’on.*

*Shohidi sun’i keldi masnuot,
Mazhari ilmi jumla ma’lumot.*

Jalla jalaluhu va ‘amma navaluhu bisyor salavot amta’asi va beshumor tahiyat hadoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobig‘a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig‘a hadyai takror alat takrordurkim “Ana afsahu...” gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va “Ana amlahu...” shakkaristonining to’tiyi shirin maqoli va malihlisonidur bovujud muncha fasohat va balog‘at va muncha mu’allo daraja va martabat bila ham “al faqr-u faxri” hadisig‘a notiq “Ma ‘arafnaka haqqo ma’rifatika” mazmunig‘a shoyiq erdi “**Ya ayyuhar rasulu ballig‘ ma unzila ilayka...**” karimasi mazmunining xitobi mustatobi mo’jibincha kutubi osmoni va suhu-fi Rabboniyning mazomin aynaqa va ma’niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri ongo muttale’ va muttabe’ erdi. Fasohat-

bayon lison va balogʻat tarjimoni zabon bila taqdir zuhurgʻa kelturdi
“**va ma alar rasuli illal balagʻu...**” mafodincha ulchakim tengri
taolo va taqaddasa hazratidin ahkom va bayyina va masoili yaqiniya
tabligʻigʻa maʻmur va marsul boʻlmish erdi. Kalom gavhari
intizomi bila “**Qulu amanna billahi va ma unzila ilayna...**”
mazmunin zuhurgʻa yetkurub tabiat zulmatobodi sargashtalarin
ogohligʻ shahristoni shoh rohi tarafigʻa boshqarib: “**Haza sirotiy
mustaqiman fattabiʻuhu**” ishorati bila dini islom tariqi sulukigʻa
buyurdi.

Nazm:

*Rasulikum edi guftori afsah,
Oning har lazzati ming jondin amlah.*

*Hama hayli rusulning podishohi,
Boʻlub makshuf asrori ilohiy.*

*Boshida garchi erdi toji “Lav lak...”,
Tilida erdi lekin “Ma ‘arafnok”.*

*Kelib husni mah avji hidoyat,
Dogʻi shahanshoi mulki risolat.*

*Guvohi nuri husni “Va-z-zuho”dur,
Sochi “Va-l-layl” taʻrifi bajodur.*

*“Fauhiya” sharbatidin laʻli shirin,
Koʻzi “Mazogʻa-l-basar”gʻa keldi tazyin.*

*Oningdek rutbai oliygʻa yetdi,
Nabiylarni oʻzigʻa chokar etdi.*

*Erur chun manzilatda shohi kavnayn,
Kelib qurbigʻa shohid “Qoba qavsayn”.*

*Uruj etkan chogʻida shomi Meʻroj,
Anga boʻldi munavvar dini minhoj.
Jami moʻjizoti moʻtabardur,
Biri ul jumlaning shaqqul qamardur.*

*Bayongʻa nechakim til boʻlsa mohir,
Erur taʻrifin aylar chogʻda qosir.*

*Ilohi ul habibing hurmatidin,
Oni topqon maqomi rifʻatidin.*

*Nasibimizni andin qil inoyat,
Ki yaʻni roʻzi Mahsharda shafolat.*

Nechakim bor euru afʻolimiz shum,

Vale sen qilma andin bizni mahrum.

Va yana behad salom va salovot va beaded durudi tahiyot va avlodi va as'hobi va ahfodi va ahbobi kiromig'a bo'lsunkim, "As'habi kannujumi al iqtidau val ihtidau bi ayyihim iqtadaytum ihtadaytum" adosi va javohiri mashhun mazmuni fahvosincha tuz yo'l soliklari ollida har birlari iqtido burjining duraxshanda axtari va ihtido durjining to banda gavharidurlar, xususan, ul hazratning oliy miqdor saodatosor chahoryori izomig'a bo'lsunkim gavhari ummoni valoyat va nujumi osmoni hidoyatdurlar va shariati g'arroi Ahmadi va millati bayzoi Muhammadiyning to'rt rukni a'zami va to'rt devori mustaqimidurlar. Ul jumlaning avvali va afzali va asdaq hazrat Abu Bakr Siddiq roziyollohu anhukim yori g'ori bo'lub soniyi isnayni "**avhumo filg'ori...**" oning sha'nida nozil va avvali tasdiqi islom qilg'oni ham siddiqlig'ig'a dalili komildir.

Nazm:

*Chu yori avvalin Bu Bakri Siddiq,
Safo jomidin ichkan rohi tahqiq.*

*Diyonat durji ichra durri g'alton,
Sadoqat avji uzra mehri raxshon.*

*Bo'lub shomil anga lutfi ilohi,
Xilofat masnadin avvalg'i shohi.*

*Anbiyog'a aningdek yor erur kam,
Xalo birla maloda shaxsi maxram.*

*Mafuzi zotig'a keldi diyonat
Fi'olig'a musallamdur sadoqat.*

*Oning bu rutbasi bor asru foyiq,
Ham istehsong'a har vajah ila loyiq.*

*Binoi shar' rukni a'zamidur,
Mukarram haylining ham akramidur.*

Va ikkilanchi hazrat Umar ul-foruq roziyollohu anhukim alarning a'dali va rusumi hukumatda akmalidur.

Nazm:

*Ikkinchi amiri xilofat Umar,
Hukumatda koni adolat Umar.*

*Bo'lub xavfi ta'ziridin bahri Nil,
Ravonlig' ul nav'ikim salsabil.*

Ki ya'ni erur jori bir hol ila,

Taqrir topub har mahi sol ila.

*Tutub yer yuzin adlining savlati,
Ko'ngullarga larza berib hay'ati.*

*Sifoti kelib qotili mushrikin,
Baland o'ldi asrida a'lomi din.*

*Ne butxonau butdin o'lsa hisob,
Nasibi sa'yidin bo'ldi jumla xarob.*

*Bino topdi mehrob minbarisi,
Masojidg'a zeb ila zevarisi.*

*Laqab keldi Foruq anga muttafiq,
Bo'lub zohir ollida butloni hiq.*

*Bo'lub odati sarf oning borho,
Qilurg'a masofu jihat va g'azo.*

*Qoshida qilib kufr eli iztirob,
Tushar erdi ajsomig'a larzu tob.*

*Bu vajh ila din kishvarin sarbasar,
Musahhar etib bo'ldi oliy guhar.*

Uchlanchi hazrati Usmon zunnurayn roziyollohi anhukim
hilmu hayoning koni va jomi' avroqi kalomi Rabboniydur.

Nazm:

*Ulki vasfi jomi' ul Qur'on erur,
Bilgil oni hazrati Usmon erur.*

*Ma'dani hilmu hayo ta'rifidur,
Manba'i judu saho tavsifidur.*

*O'zi yordur jumla yoron ahlami,
Keldi Haq marg'ubi xalq a'zami.*

*Bor anga ta'rifi zunnuraynlig',
Topti to tashrifi zunnuraynlig'.*

*Mustafog'a ikki yo'l domod edi,
Ikki olam ham anga obod edi.*

*No'sh qildi chun shahodat sharbatin,
Totdi Kavsar sharbatining lazzatin.*

*Ko'ngli sof ul nav'ikim mirot o'lub,
Hilmi har af'olidin isbot o'lub.*

To'rtlanchi hazrat Ali karramallohi vajhahukim sohibi

sayfi zulfiqor ashja'i Duldulsuvor sur'at paymoi maydoni "Lofato",
"Qotilil mushrikin va kofirin fi yavmil jihadi val g'azo" dur.

Nazm:

*Aliyul Murtazo 'ammu payg'ambar,
Shijoat arsasida sheri safdar.*

*Kelibdur jome'i tavhidi asror,
Jami'i ilm ila fandin xabardor.*

*Jihod amri uchun gar minsa Duldul,
Tushar kuffor hayli ichra g'ul-g'ul.*

*Naziri ilmu fanda yo'qdur aslo,
Rasululloh anisidur mudomo.*

*Payg'ambar dedikim: "Men kishvari ilm,
Ali lekin anga bo'lmish dari ilm".*

*Faroiz ilmig'a yorutti ma'dan,
Shijoatg'a kelib holoti ma'dan.*

*Nabiyuno birladur bir jonu bir tan,
Nabiyuno dushmanidur anga dushman.*

Va yana salomu farovon va tahiyyoti bepoyon va ul jigar-go'shai rasuli kavnayn va ul nuri nurul aynlarg'a bo'lsunkim, birining ismi va kunyati Abu Muhammad al-Hasan va birini Abu Abdulloh al-Husayndur roziyollohu taoli anhumo.

Nazm:

*Humuli ikki ozodai fozilayn,
Kidurlar nabiyuno uchun nuri ayn.*

*Biri mehri avji saodat edi,
Biri shohi mulki shahodat edi.*

*Xavorijdin asru suubat ko'rub,
Dema jonlari lahza rohat ko'rub.*

*Chekib tashnalik ranjini behisob,
Dame bo'lmayin dahraro komyob.*

*Ko'rub ummat uchun azobu ano,
Zamoni malolatdin o'lmay judo.*

*Ilohi hamul yorlar hurmati,
Baliyatg'a duchorlar hurmati.*

*Karam birla qil jurmimiz mag'firat,
Boq ahvolimizg'a etib marhamat.*

*Alardin shafolat nasib aylagil,
Hamisha hidoyat nasib aylagil.*

*Agarchi erur jurmimiz beshumor,
Ummidi shafolat vale bizda bor.*

Va sallollohu ala alihi va as'habih va avladihi va ahfadihi va ahbabih ajma'in ila yavmiddin ammo ba'd balo mayxonasining bodano'shi jafo paymonasining mastu madhushi malomat ko'chasining benangi ori va malolat rishtasining sohibi ajzu inkisori va ishq vafo yo'lida borho sobitqadam parivashlar jafosidin doimo asiri alam.

Nazm:

*Tushub bo'ynig'a ishq ichra kamandi,
Hamisha dardu kulfat yori bandi.*

*Balo dayrining o'lg'on boda xori,
Qilib jonni parivashlar nisori.*

*Vafo ichra qilib sobitqadamlig',
Bo'lub dildordin tuni kun sitamlig'.*

*Bu odatdin topib fayzi futuhi,
Bo'lub ishq ila doim toza ruhi.*

*Sharobi ishqni aylarga odat,
Tilab g'am chekmagin har dam ziyodat.*

*Bilib bechoralig'ni o'zga chora,
Tarabni tark qilg'on bora-bora.*

*Parishonlig' chekib bir dilrabodin,
Dame ayrilmag'on ranju anodin.*

Nokomlig' bodasining sargardoni va beoromlig' zoviyasining majnuni hayroni ahqaru-l-ibod mulku-s-samad va aqsari umam hazrati Muhammad ibn hoji Ali Muhammad almutaxallis bit-Tabibiy Ahmad g'afarollohu zunubahumo va satara uyubohumo o'z ahvolidin bu nav' ajz va qusur bila takallum surar va o'z ishtig'olidin mundoq taqsir va favr bila nuktadonlar arosida dam urarkim chun zamoni behjat iqtironi Xivaqi Firdavs xavarnaq shahrining mamlakat manba'i fayzi haqqi hazrati saltanatdastgoh mutaoliy joygoh xilofatpanoh Iskandar hashmat Sulaymon martabat xurshid manzilat gardun rif'at ma'lo alqob Jamshid janob.

Nazm:

*Shahanshohiki hashmatda Sikandar,
Anga kelmish g'ulomi amr gustar.*

*Abo anjad salotini jahondur,
Ulus boshi uza zilli O'g'ondur.*

*Inoyotu sahovat manba'idur,
Adolotu muruvvat matla'idur.*

*Chu shar' oyinini yaxshi bilibdur,
Rivoji shar' oyini kelibdur.*

*Yana asrida ko'b topdi masojid,
Madoris birla anvo'i ma'obid.*

*Kitob o'ldi necha asrida ta'lif,
Necha devoni nazmi, nasri, tasnif.*

*Gahi fozilg'a pasha nuqtada tablig',
Gahi atrok sori tarjimonlig'.*

Qayu insonki bu dam keldi fozil,

*Bu vajah ila oning asrida tun-kun.
Suxandon hayli bo'ldi haddin afzun.*

Sarvari salotini olam sardaftari xavoqini muazzam saltanat burjining oftobi olamtobi makrumat durjining gavhari noyobi xilofot farqining afsari gavhar yarosi jalolat tojining durri garon bahosi malozil muluki oliyjah marj'i xavoqin davlatpanoh nosibi rioyot millat bayzo rofe' alom shariati g'arro hodimi asosi zulm va shiqoq mohiyi osori kufr va nifoq, madanul adolat va sahovat malikul mamlakati vas-saltanat mu'izul millati vad-davlat almuayyidu tabayudotil mulk almannon val muntasiru binusratil hayyil mustaon xalifatur Rahmon zilli Subhon Abulmuzaffar val Mansur abul fath Sayyid Muhammad Bahodirxoni soniy domo umruhu va iqbolihu va zayyada davlatahu va ijlahuning hatai ixtiyori va qabzai iqtidorida erdi va ul hazratning say'i va ko'shishlari doim ul avqot ulamo va fuzalo va shuaro izyodig'a masruf bo'lub bazl va baxshishlari aksar holot fusaho va bulag'o haylining sof e'tiqodig'a ma'tuf bo'lur erdi. Bu sababdin men dog'i altofi ehsonidin barumand bo'lg'ali shoyiq va jonu ko'nglumni fuzalo ahvolotin tamosho qilurda taassufg'a loyiq bilib ulamo va fuzalo xizmatin ulchakim mumkin erdi bajo kelturdum har majlisdakim fazl va donish sham'i ravshanlig' topsa anga parvona yanglig' o'zumni yetkurub lekin bebuzoatlig' va qillati istitoatlig' borho mone' erdi va beilmi donish jihatidin ko'bdin ko'b taraddudim zoe' erdi va ul hazratning gohi o'z tab'i latif va fikri shariflaridin nazmi jon fizo va she'ri dilkusho zuhurg'a kelganda fozili mudaqqiq va komili muhaqqiqlar iborati ma'noaro

va mazomini diqqat piroyasin mafhumig'a yetib farqig'a taqsin va ofarin gavharlarin sohib duo va sano va til ochar erdilar. Ori fozil kimsa fuzalo va ulamonavoz bo'lub va ilmu ma'rifat kunhiga yetgan kishi ulamo bila suhbat tuzub nuktparvoz bo'lg'ay bovujud men ham bu xonadong'a bandai zamim va xizmatga sarafgandai qadim bo'lub aboanjad xonazoda g'ulomi pok e'tiqod erdim.

Nazm:

*Otam bu borgahg'a erdi banda,
Onam bu ostong'a sarfikanda.*

*Bas emdi men erurman xonazoda,
Bu ikkidin manga nisbat ziyoda.*

*Ne tong faxr aylasam ahli jahong'a,
Ki bor men bandai shohi komrong'a.*

*Chu men bekasda qulluq nisbati bor,
Jahon ahlini bilkull davlati bor.*

*Angakim yor esa qulluqda mansub,
Saodat haylidin bo'lg'usi mahbub.*

Ammo jahl va nodonlig' kasratidin junun va parishonlig' shiddatidin bu gardunnishon ostonidin yiroq tushdum huzuru g'ofir us-sarvarig'a musharraf bo'lmag'onlig' hasratidin behuzurliqg'a tushdim. Baharhol ushbu g'ussaning dofe'i va bu illatning nofe'i bo'lmoq umidi bila gohi g'azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg'a yetkurub iltifoti shohona va 'atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob bo'lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig'a manzur va kaminquillar qatorida otm mazkur bo'lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz balki hama fozillar ichida mumtoz bo'ldum. Bas, bu asnoda kunlardin bir kun g'oyati adolat va nihoyati marhamatidin ishorati oliya va bashorati jaloliyya bu hokisori zarravor tarafig'a andoq sudur toptikim hama ash'orimni jam' qilib devon tartibin tuzgaymen va ul murattabni janobi gardunmaobg'a tuhfa va hadiya yo'sinida ko'rguzgaymen va yana hamul onda va dubora haddin ziyoda otifat bila bu nav' kalomi maymanat anjom buyurdilarkim zodai tab'ing ya'ni bu ash'ori dilpising xohi qabih va yo xudmalih hama farzandi arjumanding balki tamomi jigarbandingdurlar. Bizga dog'i xonazod va bandai samimul e'tiqoddurlar. Bas alarni bu tariqa ovvora va parishon qilmoq va har kimning qo'lida pora-pora va sargardon qilmoq va muruvvatrasmidin yiroqda odamiyyat shevasidin uzoqdur.

Nedinkim va andog'i hama ayon va nihoni nopoydordur. Lekin kalomi nasr va nazm har kimsadin yodgordurkim onga zamon osibi yetushmas va o'lmak savdosi oning boshig'a tushmas.

Nazm:

*Erur she'r farzandi shoir mudom,
Jigar porasi balki keldi tamom.*

*Agar ul qabih o'lsun yo malih,
Onga jumla farzandi bo'lg'ay sarih.*

*Jahon mulki chun bor emas poydor,
Va lekin suxan bo'lg'usi yodgor.*

*Bas endi oning jam'i vojib erur,
Mudavvan qilurg'a munosib erur.*

*Parishonlig'i marhamatdin emas,
Oni hechkim dog'i yaxshi demas.*

*Har odamki ul qildi jam'i suxan,
Jahon bazmida yoqdi sham'i suxan.*

*Yetushmas anga hech bodi xazon,
Bo'lur balki jumla alamdin omon.*

*Ajal jismini garchi barbod etar,
Xaloyiq va lekin oni yod etar.*

Chun bu guftori guharborni eshitdim joni hazinimg'a nishot va zamiri anduhginimg'a inbisot yetushdi. Ammo bebizoatlig'din sharmisor qilib istitoat jihatidin iztiror o'ti jonu dilimga tushdi, nedinkim devon tartibin tuzmak suxan jam'ig'a mayl ko'rguzmak har beilm va funun qo'lidin kelmas. Balki har devona va majnun oni bilmas.

Nazm:

*Qayu odamkim ul devona bo'lg'ay,
Xiraddin borho begona bo'lg'ay.*

*Xalolig' topsa donishdan zamiri,
Zamoni ilm bo'lg'ay dastgiri.*

*Nechuk ul aylagay tartibi devon,
Ki ul bor shevai xayli suxandon.*

*Suxanning jam'i keldi asru mushkul,
Ki oni qilg'usi albatta oqil.*

*Ne chora aylayin men zori mahzun,
Ki ko'ngliga kelibdur jahli afzun.*

*Madad qilmas esa Tangri Taolo,
Qila olurmi til bir harf insho.*

Alqissa, "Al ma'muru ma'zurun" hadisi mafhosicha bu xidmati zi saodatni joni ko'ngul bila qabul qildim. Bu farmoni vojbul iz'onni bitkargali boshdin qadam qilib yeldim. O'n nav'i nazmkim tash(b)ib, g'azal, mustazod, musammat, ya'ni murabba'dan to muashshar-g'acha, tarje'band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit'a, fard itloq qilurlar. Jam'i o'n rang guldurkim tab'iyat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog'lab huzuru vofir us-sarvarig'a yetkurdum. Hazrati vohibul atoyo va g'ofirul xatoyodin umid qilurmenkim maqbuli tab'i anvari va matbu'i xotiri safoparvari qilg'ay. Agarchi nazm va nasrim sadafidin ahqar, balkim xazafg'a barobardur. Ammo inoyat ko'zi bila boqib iltifoti partavin solsa qiymatbaho gavhar, balkim javhari jondin afzar bo'lg'usidur.

Nazm:

*Agar ahqar erur nazmim sadafdin,
Sadafni demayin balkim xazafdin.*

*Vale ul vaqtkim aylab muruvvat,
Qilurg'a lutf ila izhori shafqat.*

*Inoyat ko'zidin qilsa tamosho,
Bahoda bo'lg'usi ul durri yakto.*

*Agarchi jurmdur, Yo Rab, menga fan,
Vale sendin umid etkum oni man.*

*Ki qildim bu sifat guftori zohir,
Shahimg'a qil oni mahbuli xotir.*

*Atosi jomi birla shodlig' ber,
Ko'ngulga g'ussadin ozodlig' ber.*

*Ilohi toki bor bu charxi davvor,
Ilohi toki yerga sakan izhor.*

*Ilohi toki olamdur huvaydo,
Ilohi toki anda xalq paydo.*

*Binoi davlati umrini doim,
Baqo birla jahonda ayla qoim.*

*Ikki olamda komini ravo qil,
Mu'inin podishohi anbiyo qil.
Munavvar bo'lsun ayni adlidin dahr,
Hamaga yetkur andin toabad bahr.*

*Nasibin ayla tun-kun ayshu ishrat,
Zamirig'a yeturma huznu kulfat.*

*Anga iqboli davlat chokar o'lsun,
Inoyoting hamisha yovar o'lsun.*

*Qilib hukmiga doxil yer yuzini,
Salotin sarvari qilgin o'zini.*

*Bori shohlar anga bo'lsun mulozim,
Mulozim yo'qki, o'trusida xodim.*

*Hamul odamki madhig'a til ochsa,
Duo durrin oning farqig'a sochsa.*

*Oni altof birla komron qil,
Atosi birla ko'nglin shodmon qil.*

*Til ochmas kimki madhig'a zamoni,
Ilohi gungi lol bo'lsun zaboni.*

Omin va yo Robbal a'lamin.

Maxfiy qolmasinkim bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on mudavvan kitobning jumlası besh devondurkim, uch devon turkiy lafzi bila fasohatorodur va ikki kitob forsiy alfozi bila balog'at payrovdır. Avvalg'i devong'akim sultoni oliyjoh janobi mu'allo al qobig'a hadyalig' sababidin "Tuhfatu-s-sulton" deb tasmiya qilindi. Va ikkinchi devong'a ushshoq unsiyati jihatidin "Munisul-ushshoq" ismi bila musammo bo'ldi. Va uchlanchi devong'a ishq holotin mu'oyana ko'rguzguvchi vahhidin "Mir'otu-l-ishq" oti bila mavsum etuldi. To'rtlanchi devong'a oshiqlar o'qub mutolaa qilur hangomlarida hayratfazolig' mo'jibi bila "Hayratu-l-ushshoq" deb ism berildi. Beshlanchi devonni bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo'lg'on boisi bila "Mazharu-l-ishtiyoq" deb ataldi.

Emdi nazar qilg'uvchi muhaqqiqi fozil va mutolaa qilg'uvchi mudaqqiqi komillardin rajoi vosiq va umidi sodiq uldurkim, agar so'z tartibi va ash'or tarkibida faqirning aybig'a ittilo topsalar marhamat yuzidin islohin tuzgaylar va yo aybpo'shlig' ko'rguzgaylar.

Ruboiy:

*Har kimki muni o'qub qilib istehson,
Ruhimni duolar bila qilib shodon,
Do'zax o'tidin qutqoribon oni Haq,
Jannatda makonin aylasin obodon.*

Nuktai Quroni majid va Furqoni hamid dog'i **"Va ma huva**

biqovli shoir” oyotining **“Mo”si “Moi nafiya**” bo’lg’onining sababi she’r va shoir mazammati uchun ermasdur, balkim ba’zi muonid va ko’tahnazarlar oyoti kalomi qadim va sura’i Kitobi Aziymni she’r deb aytmasunlar va she’rg’a isnod bermasunlar degan tanbehdur. Rasul alayhissalomnikim, Qur’on ahkomin xaloyiqg’a yetkurguvchidurlar shoir tuhmatin qilmasunlar degan tavsiyadur. Lekin she’r ul sifat ne’mat uzmodurkim har kimsaning komi ondin lazzatgir bo’lmas va andoq davlati kubrodurkim har inson tab’i andin bahrapazir bo’lmas. Nedinkim Qur’onda ham necha mavzuda nazm bila so’z voqe’ bo’lubdur. Andoqkim **“Summa antum haulai taqtuluna”** va ba’zi hadis ham shoe’ bo’lubdurkim “Man akroma oliman faqod akromani” va bir necha azizlardin va avliyoi sohibtamizlardin ko’b kimsalar nazmogo’yilg’ qilg’onlari ham shohiddur. Va yana shayx Farididdin Attor quddisa sirruhu buyurmishlar. Nazm: *“Shoiri xabari dilist az payg’ambari, Johilonash kufrxonad az xari”*.

Ollohumma marzuqna min ne’matihil uzma va ja’alna min davlatil kubro. Omin va yo Robbal a’lamin.

Adabiyotlar

- Аминий Муҳаммад Козим. *Ўзбек адабиётида шеърнинг шакл ва мазмун жиҳатдан турлари*. 1389/2007. Афғонистон-Форёб.
- Amonov, S. 2020. "Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisul-ushshoq" devoni nusxalari". *Oltin bitiglar–Golden Scripts* 1: 22-42.
- Bobojon, Tarroh – Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Каримова, Фарида. *Навоийдан кейинги даврда яратилган debochalар*. 2007. Наманган.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm. 1992.
- Табибий, Аҳмад. 1968. *Танланган асарлар*. Тошкент: Бадий адабиёт нашрети.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №6226.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №3461.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Toshbosma*, O’zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyoq. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir’otu-l-ishq. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №928.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №1134.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo’lyozma*. O’zRFASHI, №1152, №5018.
- Тарозий, Шайх Аҳмад ибн Худойдод. 1996. *Фунун ул-балоба*. Тошкент: “Ҳазина”.
- Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent.
- Ганихўжаев, Фатхулла. 1978. *Аҳмад Табибий*. Тошкент: Фан.

Tabibi's prelude

Shermuhammad Amonov¹

Abstract

Usually, introductions that written by the author, sometimes by others, are written in the introduction of divans. Factors that were became main reasons of the creation of divans, information that were based on the structure, humility and request of the author were described. Tabibi also wrote an introduction in the book "Munisu-l-Ushshaq" in this context. The text of this prelude has not yet been fully translated. In general, preludes are important in determining the poet's literary-aesthetic world.

Tabibi's book "Munisu-l-Ushshaq" is very large, and it includes ghazal, mustazad, murabba', mukhammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar, masnavi-saqinama, rubai, qasida, shiru shakar of our classical literature.

This article provides thoughts about the text of the debocha for Tabibi's divans and given the whole translation of the prelude.

Key words: *manuscript, source, debocha, divan, tazkira, biography, genre, poem.*

References

- Aminiy Muhammad Kozim. *O'zbek adabiyotida she'rning shakl va mazmun jihatdan turlari*. 1389/2007. Afg'oniston-Foryob.
- Amonov, S. 2020. "Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisu-l-ushshoq" devoni nusxalari". *Oltin bitiglar-Golden Scripts* 1: 22-42.
- Bobojon, Tarroh – Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Karimova, Farida. *Navoiydan keyingi davrda yaratilgan debochalar*. 2007. Namangan.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm. 1992.
- Tabibiy, Ahmad. 1968. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Badiiy adabiyot nashryoti.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №6226.


¹ *Shermuhammad N. Amonov* – Candidate of Philological Sciences, dotsent, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: amonov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-3962-1774

For citation: Amonov, Sh. N. 2023. "Tabibi's prelude". *Golden scripts* 2: 16-39.

- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3461.
Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
Tabibiy, Ahmad. *Devon. Toshbosma*, O'zRFASHI, №8949.
Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyof. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.
Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1134.
Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1152, №5018.
Taroziy, Shayx Ahmad ibn Xudoydod. 1996. *Funun ul-balog'a*. Toshkent:
"Xazina".
Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent.
G'anixo'jayev, Fatxulla. 1978. *Ahmad Tabibiy*. Toshkent: Fan.



1-rasm. Ahmad Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devoni debochasi.
O'zRFA SHI. Qo'lyozma. № 6226. 1^b sahifa.



دربارچه طبخا

سهم کارکن تاریخ

حمد بیخاست و تنهای بدیناست اول مستطک لعل تم آنترین و قابل کنایه قیام بسیرت
 لایق و سزاوار و بارکاتی غنچه بختار و در کج حکمت نظیر عدم طبی وین
 قدرت عروصی کالی سبزه وجود و یوانیزه کیستوروی انسان وجودی محمود
 نوزکیا تیز بارچه مصنوعات دین زیاده راق بدایح و ضایح اظهار تیزترین
 انواع سخن نه سنجیده حکما قفلا لایق ایرکامین چله دروی نظم قادری کیم
 هر جهان بر تپ + آند اهر نوع انس جان بر تپ + بارچه دین انزین
 اجلاب لسان نه + جیلد و رب الکفار از جهان نه + کوه کین ای معلوم نه
 تیلی نه قیلدی مکتبه کما طلق + تا که حمد یغیر بوسون اول ذاکر + بارچه جواهر
 بولوب شاگر + لور و در قدرت خدای کریم + که ایدر وصف آنکا سبک
 هر نه کیم بار و در آشکار او نهان + بارچه سی کسیدی آنی نسخ او نهان +
 شاه مصنوعی کسیدی مصنوعات + سطر علمی جمله معلومات + جل جلاله
 و علم نواله بسیار معلومات متهدی در پیشیا رتجیات مدایه سی اول بخت
 سریری امیری نیکی صابغی ایش رو اولی رسالت خطا نیکی پذیریشان

طالع
کتابخانه

2-rasm. Ahmad Tabiyyning "Munisu-l-ushshoq" devoni debochasi. O'zREFA SHI. Toshbosma. № 9849. 1^b sahifa.

Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari

Sohiba Madirimova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhiti shoiri Muhammad Hasan Mutrib Hoji Tabib o'g'lining (1853–1923) adabiy merosi matnshunoslikning nazariy-amaliy muammolari asosida o'rganilgan. Mutrib Xonaxarobning shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondidagi 903/IV, 906/VII, 2679/II inventar raqami ostida saqlanayotgan devon qo'lyozmalari, shoir yashagan davrda tuzilgan bayoz, tazkira hamda majmualardagi she'rlari haqida ma'lumot berilgan.

Shoir she'rlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda bir qancha tamoyillar ishlab chiqilgan. Bular, asosan, Y. Bertels, D.S.Lixachev, H. Sulaymonov, P. Shamsiyev kabi matnshunos olimlarimizning ilmiy mulohazalari asosida yoritilgan.

Mutribning devon qo'lyozmalari, yuzdan ortiq bayozdagi she'rlari asosida tayanch va yordamchi manbalar aniqlab olingan. Shoir she'rlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda “Devonning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun devon qo'lyozmalarini lotin alifbosining dastlabki uch harfi – A, B, D bilan belgilash”, “Shoir she'rlari sarlavhalarini muvofiqlashtirish tamoyili”, “Devondagi she'rlarning alifbo tartibida joylashuvini qayta ko'rib chiqish tamoyili”, “Qo'lyozma majmualar va bayozlardagi she'rlarni tayanch manba uchun tiklashda shartli belgilarni qo'yish tamoyili” kabi sakkizta tamoyil ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *qo'lyozma, tazkira, she'r, bayoz, g'azal, devon, Mutrib Xonaxarob.*

Kirish

Mumtoz asarlarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish lirik hamda tarixiy asarlarning nisbatan mukammal matnlari yuzaga

¹ Madirimova Sohiba Mahmudovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz; madirimova555@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

Iqtibos uchun: Madirimova, S. M. 2023. “Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari”. *Oltin bitiglar 2*: 40–66.

chiqishining asosidir. Bu borada Y. Bertels [Бертельс 1960, 9], M.Osmonov [Осмонов 1968, 137], D.S.Lixachev [Лихачёв 1962, 602], I.Sultonov [Султонов 1947, 140], H.Sulaymonov [Сулаймонов 1961, 120], P. Shamsiyev [Шамсиев 1952, 134], L.Xalilov [Халилов 1997, 114], M.Rashidova [Рашидова 1991, 133], F.Is'hoqov [Исхоқов 1997, 130] kabi matnshunoslar tomonidan dastlabki ishlar amalga oshirilgan. Olimlar har bir o'rganilayotgan asar matniga doir xususiyatlarni aniqlab, ilmiy-tanqidiy matn yaratishning o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqqanlar.

Ma'lumki, matnshunoslik fani muayyan manbalar asosida aniq, tarixiy faktlarga asoslangan holda ish ko'radi. Qo'lyozma manbalarni o'rganish, ilmiy istifodaga kiritish, ilmiy-tanqidiy matnlarni tuzishda belgilangan tizim asosida yondashish o'ziga xos o'rin tutadi. Bunda mavzuning mohiyatidan kelib chiqib, ma'lum bir tamoyillar, ilmiy tasnif va tavsiflar asosida tadqiqot olib borish talab etiladi.

Hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqotlardagi ilmiy-tanqidiy matn tamoyillari ustoz matnshunos olimlarning tajribalariga tayanilgan holda amalga oshirilmoqda. Biroq shu vaqtga qadar qabul qilingan tamoyillar qat'iy o'zgarmas qolip sifatida ishlab chiqilmagan. H.Sulaymonov, P.Shamsiyev, I.Sultonov kabi matnshunoslar tajribalari asosida yuzaga kelgan tamoyillar keyingi tadqiqotchilar uchun nisbatan umumiy tamoyil vazifasini o'tab kelmoqda.

Matnshunoslikda ilmiy tamoyillar

Tamoyil - so'zi usul, yondashuv kabi ma'nolarni anglatadi. Qo'lyozma manbalarning nisbatan mukammal variantini tiklashda ilmiy-tanqidiy matnning o'rni juda muhim. O'z navbatida ilmiy-tanqidiy matnning ma'lum bir tizimga asoslangan tamoyillar asosida tuzilishi maqsadning aniq yuzaga chiqishiga imkon beradi.

Matnshunoslikka oid nazariy tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ilmiy-tanqidiy matnni yaratishda quyidagi uch tamoyil qo'lyozma manbaning nisbatan to'liq variantlarini ishlab chiqishga zamin yaratadi:

1. Umumiylik tamoyili.
2. Alohidalik tamoyili.
3. Xususiy tamoyil.

1. *Umumiylik tamoyili.* Biror bir qo'lyozma manba ustida ilmiy izlanish olib borish jarayonida tadqiqotchi matnshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan avval o'rganilgan tadqiqotlarda

erishilgan ilmiy natijalardan, xususan, tamoyillardan istifoda etishi mumkin. Bu tamoyil avval xususiy ko‘rinishga ega bo‘lib, keyinchalik hamma uchun umumiy bo‘lgan tamoyilga aylanadi. Bunday tamoyil barcha qo‘lyozma manbalar ilmiy-tanqidiy matnini yaratish uchun zamin bo‘la oladi. Rus olimlari Y. E. Bertels [Бертельс 1960, 9], D.S.Lixachev [Лихачёв 1962, 602]larning tadqiqotlarida hamda P.Shamsiyev tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar hozirgi kunda ham qo‘lyozma manbalarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda foydalanib kelinmoqda [Шамсиев 1952]. M.Hamidova ham 1994-yilda “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi” [Ҳамидова 1994, 130] mavzusidagi doktorlik ishida mazkur tamoyillarga alohida e‘tibor qaratadi va ulardan o‘z tadqiqotida foydalanadi. Jumladan, olima “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda mavzu xususiyatidan kelib chiqib, o‘n uchta tamoyil ishlab chiqadi. F.G‘anixo‘jayevning 1998-yildagi “Ogahiyning “Ta‘viz ul-oshiqin” devoni va uning ilmiy-tanqidiy matni” [Ғанихўжаев 1998, 77] nomli tadqiqotida ham ushbu tamoyillar asos vazifani o‘tagan.

2. Tamoyillarning ikkinchi guruhi bo‘lgan *alohidalik tamoyili* unikal bir hodisadir. Bir asarning yillar va asrlar davomida qayta-qayta ko‘chirilishi natijasida muallif variantidan katta tafovutlar bilan yiroqlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bunda asarning muallif variantiga yaqin variantini tiklash uchun barcha manbalarning qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshirilishi talab etiladi. Matnshunos olim R.Zohidov So‘fi Ollohyor “Sabot ul-ojizin” asari ilmiy-tanqidiy matni uchun 25 ta (15 ta qo‘lyozma va 10 ta toshbosma) turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma va toshbosma manbalarni o‘rganib, hamma uchun umumiy bo‘lgan *xillash, tasniflash, qiyoslash, saralash* [Зоҳидов 2018, 194] kabi to‘rtta tamoyilni ishlab chiqadi. Bu o‘z navbatida “Qo‘lyozmalarning shartli xronologik nisbati”ni yuzaga keltiradi.

3. Tamoyillarning uchinchi guruhi bo‘lgan *xususiy tamoyil* qanday yuzaga kelishi mumkin, degan savol bo‘lishi tabiiy. Bu jarayon bir asarning muallif davrida ko‘chirilgan turli variantlari asosida har bir o‘rganilayotgan asar tekstologiyasidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Masalan, yuqorida qayd etilgan M.Hamidova, F.G‘anixo‘jayev, Y.Tursunov kabi olimlar tadqiqotlarida ham bunday hodisa yuzaga kelganini ta’kidlash kerak. Bular faqat P.Shamsiyev tamoyillaridan tashqari ilmiy-tanqidiy matn yaratishning qulay va oson bo‘lgan eng maqbul variantlarini ishlab chiqishgan.

Mumtoz adabiyotimiz rivojiga o‘zining munosib hissasini

qo'shgan ijodkor Mutrib Xonaxarob asarlarini o'rganish, u qoldirgan merosning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish dolzarb vazifalaridan. Shoir asarlari 1950-yildan e'lon qilina boshlangan. Hozirgi kunda shoir ijodi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar u qadar ko'p emas. 2001-yili M.Pirnazarov tomonidan nashrga tayyorlangan "Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)" risolasi shoir ijodini targ'ib qilishga doir e'tiborga molik ishlardan [Пирназаров 2001]. Ushbu nashrda shoirning yuzga yaqin she'rlari joriy imloga tabdil qilinib, nashr etilgan. Biroq bu nashrdagi she'rlar qo'lyozma variantlari bilan qiyoslanganda, nashrda matniy nuqsonlar borligi ko'zga tashlanadi. Matnda so'zlarning tushib qolishi, so'zlarning noto'g'ri o'qilishi hamda baytlarning tushib qolishi shular jumlasidandir.

Professor N.Jabborov o'zining "Matn tarixini o'rganish – ilmiy haqiqat mezon" nomli maqolasida har bir asarning dastlab matnshunoslik izlanishlari bo'lmasa, adabiyotshunoslik tadqiqotlari aksar hollarda o'z ahamiyatini yo'qotadi. Agar adabiy manbani yaxlit bir imoratga qiyoslansa, matnshunoslik uning poydevoridir. Adabiyotshunoslik ana shu poydevor ustiga qurilmog'i zarur. Aks holda u poydevorsiz inshoot singari omonat bo'lib qoladi" [Жабборов 2020, 50-57] kabi fikrlari buning isbotidir. Shunday ekan, har bir asarni dastlab matniy jihatdan o'rganish, nisbatan to'liq variantlarini yuzaga keltirish matnshunoslikning dolzarb muammolaridandir.

Ilmiy-tanqidiy matn uchun ishlab chiqilgan tamoyillar

Mutrib Xonaxarob asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish uchun o'zbek matnshunosligida shu kunga qadar yig'ilgan tajribalarni inobatga olib, quyidagilar asosida *xususiy tamoyillar* ishlab chiqildi:

1. *Devonning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun devon qo'lyozmalarini lotin alifbosining dastlabki uch harfi – A, B, D kabilar bilan belgilash* (Dastlab bu tamoyil P.Shamsiyev tadqiqotlarida qayd qilingan [Шамсиев 1952, 94]) *tamoyili*;

Manbalarning shartli belgilari:

qo'lyozma – 2679/II, Mulla Abdulkarim devon ko'chirgan – A.

qo'lyozma – 903/IV, Mulla Karimbergan devon ko'chirgan – B.

qo'lyozma – 906/VII Mullo Boltaniyoz usto Qurbonniyoz

mulaqqabi bin Xarrot ko'chirgan – D.

2. *Shoir she'rlari sarlavhalarini muvofiqlashtirish tamoyili*:

- she'rlarga qo'yilgan sarlavhalarning "2 qasida Mutrib Xonaxarob" kabi berilishi kerak bo'lgan o'rinda "Qasida Mutrib"

holatida ko'chirilgan. Qasidaga qo'yilgan raqam hamda shoirning "Xonaxarob" taxallusi tushib qolgan. A(135^b-bet). Yoki yana bir o'rinlarda "126-G'azali Mutrib", "Musaddas" shakllarida ham uchraydi. A (126^b hamda 132^a-b.);

- asosiy matnga yoki hoshiyalarga ko'chirilgan she'rlarning ba'zi o'rinlarida sarlavha berilmagan. Masalan, A (129^a-b.) tayanch manbada 134-o'rindan keyin kelgan "*Bu kecha aqlimni toroj ayladi bir gul'uzor...*" misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g'azalga "135-g'azali Mutrib Xonaxarob" sarlavhasini qo'yish kerak. Bu tartib B (251^a-b.), D(224^b-b.) tayanch yordamchi manbalarda saqlangan, ya'ni sarlavha qo'yilgan;

- tayanch manbada uchramaydigan g'azal, muxammas, murabba'larni kiritganda sarlavhalar qo'yish lozim. Masalan, 1134-raqamli qo'lyozma majmuaga shoirning 5 ta muxammasi o'rin olgan. Bu muxammaslar *A tayanch manbada* hamda *B, D tayanch yordamchi manbalarda* uchramaydi. Ushbu muxammaslarga navbatdagi raqamni qo'yib, "17-Muxammas Mutrib Xonaxarob" kabi sarlavhalash lozim.

3. *Devondagi she'rlarning alifbo tartibida joylashuvini qayta ko'rib chiqish tamoyili.*

Ba'zi o'rinlarda g'azallarning alifbo tartibidagi joylashuvida xatolik bor:

- ﺩ (dol) harfiga yozilgan g'azallar joylashuvi orasiga ﺯ (zol) harfiga yozilgan 7 baytli g'azal ko'chirilgan. Masalan, "*Bahra ruxsori rohat murg'i dilim parvona shud...*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli fors-tojik tilidagi g'azaldan keyin "*Jumlayi ne'matdin nigoro obi hayvoning laziz...*" deb boshlanuvchi 7 baytli turkiy g'azal o'rin olgan. Bu g'azaldan keyin yana 10 ta ﺩ (dol) harfiga yozilgan fors-tojik hamda turkiy tildagi g'azallar beriladi. Bundan ko'rinadiki ﺩ (dol) harfiga yozilgan g'azallar orasiga ﺯ (zol) harfiga yozilgan g'azal noo'rin joylashtirilgan. A tayanch manba (63^{a/b}-65^a-b.);

- گ (gof) harfiga yozilgan g'azallar orasida ham yuqoridagi harflar joylashuvi singari ک (kof) harfidagi g'azal ko'chiriladi. Masalan, "*Bir nafas ushshoq xaylidan mani yod etmading...*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azaldan keyin "*Shukrkim, bu kecha ul sarvi xiromon kelajak...*" kabi 6 ta g'azal berilib, undan keyin yana "*Ochg'il yuzing, ey dilbar, ul sarvi ravong'a o'xshading...*" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal o'rin olgan. Bu orada yana "*Bir dam muruvvat yo'qmudur o'lturdi hijron, ey go'zal...*" hamda "*Sayri gulshan aylarga, ey go'zal, xiromon qil...*" kabi ل (lom) harfi bilan tugaydigan ikkita 7 baytli g'azal, undan keyin "*Mani avval gul husninga zor etmakni*

mashq etding...” misrasi bilan boshlanuvchi g’azal joy olgan. A tayanch manba (146^a-156^b-b.).

4. *Qo’lyozma majmualar va bayozlardagi she’rlarni tayanch manba uchun tiklashda shartli belgilarni qo’yish tamoyili.*

Bu holatda qo’lyozma majmua va bayozlarning aslidagi tartib raqami saqlanishi maqsadga muvofiq. Chunki manbalar soni ko’p bo’lishi evaziga chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin. Bular:

- qo’lyozma majmualar – 1152, 1134, 1127, 1129;

- qo’lyozma bayozlar – 6816, 6927, 6928, 6932, 6951, 6952, 6969, 6939, 6971, 6976, 6990, 7023, 7039, 7122, 2024, 2025, 2028, 2036, 5894/II, 5894/III, 5894/IV, 5894/V, 5884/V, 1125, 1126, 1128, 1172, 1176, 1177, 1179, 1182, 1184, 1185, 1186, 1190, 1191, 1192, 1195, 1196;

- toshbosma manbalar – 12561, 14420, 9543.

5. *Qo’lyozma majmua va bayozlardan olingan she’rlarni ilmiy-tanqidiy matnga kiritish tamoyili;*

A tayanch manbada uchramaydigan g’azallarni ilmiy-tanqidiy matn tarkibiga kiritganda arab alifbosi tartibida ko’chirilgan harflarning oxirgi sonidan kelib chiqib, hozirgi joriy alifbodagi harflar ketma-ketligi asosida raqamlash lozim. Masalan, A tayanch manbadagi ا (alif) harfiga yozilgan g’azallar soni 39 ta. Yangi topilgan ا (alif) harfiga yozilgan g’azallar soni 5 tani tashkil etadi. Bular 40^a, 41^b, 42^d, 43^e, 44^f kabi joylashtiriladi.

ت (te) harfiga yozilgan g’azallar 2 ta (1tasi fors-tojik tilida, 1 tasi turkiy tilda): 31^a, 32^b.

د (dol) harfiga yozilgan g’azallar 2 ta: 36^a, 37^b.

ر (re) harfiga yozilgan g’azallar 1 ta: 89^a.

س (sin) harfiga yozilgan g’azallar 2 ta: 11^a, 12^b.

ق (qof) harfiga yozilgan g’azallar 1 ta: 10^a.

ك (kof) harfiga yozilgan g’azallar 1 ta: 7^a.

گ (gof) harfiga yozilgan g’azallar 2 ta: 38^a, 39^b.

ل (lom) harfiga yozilgan g’azallar 9 ta: 24^a, 25^b, 26^d, 27^e, 28^f, 29^g, 30^h, 31ⁱ, 32^j.

م (mim) harfiga yozilgan g’azallar 11 ta: 104^a, 105^b, 106^d, 107^e, 108^f, 109^g, 110^h, 111ⁱ, 112^j, 113^k, 114^l.

ن (nun) harfiga yozilgan g’azallar 12 ta: 121^a, 122^b, 123^d, 124^e, 125^f, 126^g, 127^h, 128^l, 129^j, 130^k, 131^l, 132^m.

و (vov) harfiga yozilgan g’azallar 5 ta: 26^a, 27^b, 28^d, 29^e, 30^f.

ی (i) harfiga yozilgan g’azallar 2 ta: 57^a, 58^b.

A tayanch manba va B, D tayanch yordamchi manbalarda murabba’ janridagi she’r uchramaydi. Yangi topilgan murabba’ soni

1 ta: 1^a.

A tayanch manbada jami 16 muxammas bor. Yangi topilgan muxammaslar soni esa 6 ta. Bular: 17^a, 18^b, 19^d, 20^e, 21^f, 22^g.

Jami she'rlar soni: 60 ta.

Yuqorida keltirilgan she'rlar qatorida "Xorazm xabarlarini" gazetasiga ko'chirilgan 2 ta musaddas (72 misra), 6 ta masnaviy (124 misra)lar hisobga olinmadi. Sababi bu she'rlar matnining asli o'qib bo'lmas darajada shikastlangan.

6. *Matn tarkibida tovush o'zgarishlari hamda imloviy, uslubiy xatoliklarga uchragan so'zlarni bir tizimga solish tamoyili.* Masalan, - ايتدى "etdi" va ايتتى "etti" so'zlari ham ikki xil ko'rinishda ko'chirilgan.

414-g'azalning birinchi misrasi: *Mani bir surati zebo ko'ringach beqaror etdi...* A (208^b-b.) tayanch manba. B (259^b-b.) hamda D(266^b-b.) tayanch yordamchi manbalarda esa "etti" shaklida uchraydi.

422-g'azalning birinchi misrasi: *Manga bir dilbari ra'no ajab noz ettiyu ketti...* A (209^b-b.). B (260^{a/b}-b.), D (276^b-b.) tayanch manbalarda ham A tayanch manbadagi variant saqlangan.

Mutrib asarlari til xususiyatlarida "-g'a", "-a" jo'nalish kelishigi qo'llanilgan. Kotib manbani ko'chirishda "-g'a" jo'nalish kelishigini "-g'a" hamda "-ga" shaklida bergan, bir xillik saqlanmagan. Masalan, 10-g'azalning o'n birinchi misrasi: *Ko'rgach xiromon qomating savdoyi zulfingga mani...* A (84^b-b.). B hamda D tayanch yordamchi manbalarda bu g'azal uchramaydi.

96-g'azalning uchinchi misrasi: *Tor zulfingga asir etding, dame g'ofil topib...* A (118^b, 119^a-b.), B (219^b-220^a-b.), D (248^b-b.) tayanch yordamchi manbalarda ham "**Zulfingga**" kabi ko'chirilgan.

256-g'azalning beshinchi misrasi: *Qilsam qoshing hijronig'a bu dam sujud, ey nozanin.* A (263^b-b.), B (238^b-b.), D(269^a-b.) tayanch yordamchi manbalarda ham "*hijronig'a*" kabi uchraydi.

"-g'a" jo'nalish kelishigi o'rnida "-a" shaklining qo'llanilishi ham uchraydi. Biroq "-a" ni "-g'a"ga o'zgartirish vaznga ta'sir etadi. Quyida rajazi musammani solim vaznida yozilgan g'azaldan misol keltirdik:

453-g'azalning beshinchi misrasi: *Lutf ila majnun ko'nglima har tun ruhi gulzoridin...* A (219^a-b.). B(261^b-b.) tayanch yordamchi manbada ham A dagi variant saqlangan. D tayanch yordamchi manbada bu g'azal yo'q.

- shoir she'rlarida "-ni" tushum kelishigi hamda "-ning" qaratqich kelishigi faol qo'llanilgan. Biroq she'rlarni ko'chirgan kotib

“-ning” qaratqich kelishigi o‘rnida “-ni”ni noo‘rin qo‘llagan o‘rinlar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, 350-g‘azalning to‘qqizinchi misrasi: *Damo-dam **muddaiyni** so‘zi birla jahli qatlimg‘a...* A (186^{a/b}-b.), B (250^{a/b}-b.). 1152 (583^b-b.) raqamli qo‘lyozma majmuada esa “-ning” qaratqich kelishigi berilgan. D tayanch yordamchi manbada bu g‘azal yo‘q.

357-g‘azalning o‘n uchinchi misrasi: *Xiromon qomatingg‘a tushsa **Mutribni** ko‘zi, ey sho‘x...* A (189^a-b.), B (250^b-b.). 1152 (656^a-b.) raqamli qo‘lyozma majmuada “-ning” saqlangan. D tayanch yordamchi manbada bu g‘azal yo‘q.

“Muddaiyni”, “Mutribni” kabilardagi “-ni” tushum kelishigiga nisbatan “-ning” qaratqich kelishigi moslashuvli birikma hisoblanib, bu hol mazmunni yanada to‘liq tushinish imkonini beradi.

L.Xalilovning quyidagi fikrlari ushbu mulohazaning dalilidir: *“Gapda o‘rin va jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarning grammatik xususiyatlari boshqa bo‘lganligi tufayli bu kelishiklarning biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash xatodir”* [Халилов 1997, 39].

- izofalar tushib qolgan o‘rinlar ham bor. Bu esa she‘r vazniga ta‘sir etadi. Masalan, 129-g‘azalning o‘ninchi misrasi: *“**Boda** vaslingg‘a, ey gul, bo‘lmisham behad xumor...”* A (126^b-bet). B, D tayanch yordamchi manbalarda bu g‘azal yo‘q.

Aslida, *“**Bodayi** vaslingg‘a, ey gul, bo‘lmisham behad xumor...”* kabi berilsa vazn saqlanadi.

Ushbu g‘azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. *بَادَة* so‘zidagi “” izofa belgisi berilmagan. Yana bir misol, rajazi musammani mahzuf vaznida yozilgan 262-g‘azalning o‘n uchinchi misrasidagi *شَعْلَه* so‘ziga ham yuqoridagi kabi “” izofa qo‘yilmagan: *“Ishq ichra jonim o‘rtadi bu **shula** husning sani...”* A (167^{a/b}-b.). B (240^{a/b}-b.) hamda D (259^b-b.) tayanch yordamchi manbalarda quyidagicha to‘g‘ri ko‘chirilgan:

*Ishq ichra jonim o‘rtadi bu **shulayi** husning sani...*

Bu kabi farqlar she‘rlar matnida nisbatan ko‘p uchraydi. Buni ham tizimlashtirish lozim.

7. *Arab, fors, turkiy tillarga oid so‘zlarni eski o‘zbek yozuvi imlo qoidalari asosida yozish tamoyili.*

Mutrib she‘rlari matnida arab, fors, turkiy tillarga oid so‘zlar eski o‘zbek yozuvi imlo qoidalariga to‘liq amal qilinmagan. Bular “Gof” harfi o‘rnida “Kof”, “Zoyi’ (zoye’) so‘zidagi “Zod” harfi o‘rnida “Zo”, “Ko‘nglum” so‘zidagi “Vov” harfining boshqa o‘rinda “i” bo‘lib ko‘chirilishi va hokazolarda ko‘zga tashlanadi. So‘zlarning bir xilda ko‘chirilmasligi shoir til xususiyatining yo‘qolishiga sabab

bo'lgan. Bu kabi farqlarni ilmiy-tanqidiy matnda aks ettirish shart emas. Bu haqda matnshunos P.Shamsiyev: "Kotibning ochiq ko'rinib turgan xatolarini ham bet ostida qayd eta berishning keragi yo'q" [Шамсиев 1969, 20] degan fikri o'rinlidir. Shu ma'noda shoir she'rlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda arab, fors, turkiy tillarga oid so'zlarni eski o'zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilib, so'zlarning yozilishi, so'zlarda aks etgan unlilar bir xilligini yaxlit tizimda saqlash lozim bo'ladi.

Tadqiqotda Mutrib she'rlari matnidagi arab, fors, turkiy tillarga oid so'zlarning eski o'zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilinmagan o'rinlarga e'tibor qaratildi. Mulohazalarimiz asosi sifatida, dastlab [g] tovushini beradigan so'zlarning "ک" (kof) harfi bilan yozilgan o'rinlardan misollar keltiramiz. Masalan,

- کل (f.)

143-g'azalning uchinchi misrasi:

کل کبی عارض آجیب مهر وفا فاش ایتکی

(**Gul** kabi oraz ochib mehru vafo fosh etgali...). A (130^b-b.).

- کریان (f.) hamda کل عذار (f.-a.).

116- g'azalning maqta' qismi:

عشق ایچرا کریانمن ایشیت ای کلزارای کلزار

(Ishq ichra **giryonman** eshit, ey gul'uzor, ey gul'uzor...). A (123^b, 124^a-b.).

- کل رنک (f.).

219- g'azalning beshinchi misrasi:

نوش ایتیب میی کل رنک عاشقانه سوز باشلاب

(No'sh etib mayi **gulrang** oshiqona so'z boshlab...). A (150^{a/b}-b.).

- کر (f.).

184- g'azalning oltinchi misrasi:

کل پایمال مقد مینک کر بولسه خندان لبلارینک

Gul poymol maqdaming **gar** bo'lsa xandon lablaring... A(143^a-b.).

"گ" (gof) harfi qo'llanilishi kerak bo'lgan barcha o'rinlarda "ک" (kof) ishlatilgan. Bu hol ma'noga ta'sir etishi mumkin: Gul-kul, Giribon-kiribon, Gul'uzor-kul'uzor, Gulrang-kulrang, Gar-kar kabi. Yana shunga o'xshash bir farqli o'rinni keltirib o'tsak: ضایع (a.) (zoyi') сўзидаги "ض" (zod) harfi A tayanch manbada "ظ" (zo) bilan ko'chirilgan. Masalan, 113-g'azalning o'n uchinchi misrasi:

وه که ظایع قیلما غمزنک اوقلارینی اوزکاغه

(Vahki, **zoyi'** qilma g'amzang o'qlarini o'zgag'a...). A (123^a-b.).

Bu so'z B (250^a-b.) hamda D (222^a-b.) tayanch yordamchi

manbalarga to'g'ri ko'chirilgan.

- شکوفته (f.) (shukufta) so'zi tarzida و (vov) harfi berilmasdan ko'chirilgan. Shu bilan birga ushbu misrada kelgan غنچه (g'uncha) so'zidagi izofa ham tushib qolgan. Masalan, 1-qasidaning to'qqizinchi misrasi:

آچیب لب غنچه شکوفته لارکیم لاله فاش ایلاب

(Ochib lab g'uncha shukuftalarkim lola fosh aylab...). A(135^b-b.).

Bu qasida hazaji musammani solim (V---/V---/V---/V---) vaznida yozilgan.

- بتار (f.) so'zi A tayanch, B tayanch yordamchi manbada بتار (bator) shaklida, ya'ni ا (alif) harfi bilan berilgan.

194-g'azalning sakkizinchi misrasi:

سالدی منکا آندین بتار یوز شور سوداعار ضینک

(Soldi manga ondin **bator** yuz sho'ri savdo orazing...). A (144^b-b.), B (232^a-b.).

1152 (429^b-b.) raqamli "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" qo'lyozma majmuaga to'g'ri ko'chirilgan. D tayanch yordamchi manbada bu g'azal uchramaydi.

- so'z oxiridagi [a] tovushining ifodalanishida ham farqlar ko'rinadi, ya'ni u "ه" yoki "ا" harflari bilan yozilgan. A tayanch manbada "ichra" so'zi ایچره hamda ایچرا kabi ikki xilda uchraydi.

5-musaddas to'rtinchi band:

پریشان حال اولوب صبح مسا عشق ایچره زارینک من

(Паришон ҳол ўлуб, субҳу масо ишқ **ичра** зорингман...). A (232^b, 233^a-b.).

Shu musaddasning beshinchi bandi:

مرادیم کلشنی دهر ایچرا کلزار جمالینک دور

(Murodim gulshani dahr **ichra** gulzor jamolingdur...). A (o'sha sahifa).

- کونکلم so'zi کونکلم shaklida ham uchraydi. "و" harfining "ی" ga o'zgarishi ma'noga etmasada, bir xillik saqlanmagan. Masalan,

289-g'azalning uchinchi misrasi:

شاد اولمین کونکلم منی بیرلحظه هجران ایلکیدین

(Shod o'lmayin **ko'nglum** mani bir lahza hijron ilkidin...). A (174^b-b.).

103-g'azalning maqta' qismi:

نیچوک شاد اولسون ای مطرب حزین کونکلم بوغملاردین

(Nechukshodo'lsun, ey Mutrib, hazin **ko'nglim** bug'amlardin...). A

A (119^b-b.).

- يوزونك hamda يوزينك so'zlari ham shunday yozilgan:
441-g'azalning birinchi misrasi:

جانا يوزيكن كوركان چاغى بى اختيارا تدينك منى

(*Jono, yuzing ko'rgan chog'i beixtiyor etding mani...*). A (116^b-b.).

Shu g'azalning o'n birinchi misrasi:

كوركاچ يوزونك تابانى نى ناكه چمن سيرانيدا

(*Ko'rgach yuzung tobonini nogah chaman sayronida...*). A (o'sha sahifa).

8. *She'r matnlarida yuzaga kelgan tafovutlarni bartaraf etishda ishora belgilardan foydalanish tamoyili.*

Mutrib she'rlari matnida mingdan ortiq matniy farqlar uchraydi. Bu matniy farqlar, asosan, bayt, so'z, birikma va qo'shimchalarning tushib qolishi, noto'g'ri ko'chirilishida ko'rinadi. Bularni, ya'ni so'z va birikmalarning mazmunan bir-biriga yaqin variantlari tanlanganda shoir uslubi, mantiqiy izchillik hamda vazn eng asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Rus matnshunosi D.S.Lixachevning quyidagi fikrlari buni tasdiqlaydi: "Yodgorliklar teksti ularning faqat tashqi belgilariga qarab emas, balki mazmunining o'zgarishiga va g'oyaviy yo'nalishiga qarab ham o'rganilishi lozim" [Лихачёв 1962, 51].

Quyida shoir she'rlari matnidagi tafovutlarni ishora belgilari asosida berishni lozim topdik. Bu ishora belgilar shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Bular:

- tushib qolgan baytlar uchun satr avvaliga ikki yulduz "***" qo'yish lozim. Tiklangan manba oldidan "T:" shakli ko'rsatiladi. Ilmiy-tanqidiy matn yaratishda qo'yiladigan bu ishora belgisi farq ko'rsatilgan matn ostida qayd qilingani maqsadga muvofiqdir. Masalan, 1152 (439^b, 440^a-b.) raqamli "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" qo'lyozma majmuada "Vahki, hajridin tunganmas nolayi zorim maning" misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g'azal ko'chirilgan. Bu g'azal A (141^{a/b}-b.) tayanch, B (230^b, 232^a-b.) tayanch yordamchi manbalarga 7 bayti ko'chirilib, qolgan 4 bayt tushib qolgan. D tayanch yordamchi manbada bu g'azal uchramaydi. Tushib qolgan baytlar quyidagicha:

يا رب ايتكايمو مشاميم نى معطر بير كيچه -
كلشنى وصلى بيله زلف نكونساريم منينك

*Yo Rab, etgaymu, mashomimni mu'attar bir kecha***,

Gulshani vasli bila zulfi nigunsorim maning.

حسرتی وصلی دا جانیم چقغوسی دوروه نیتا ی
ایلامس لطف کرم بیر لحظه دلداریم منیک

*Hasrati vaslida jonim chiqq'usidur vah, netay,
Aylamas lutfu karam bir lahza dildorim maning.*

نالیشیم نی عشق ارا عیب ایلامانک لار وه نیکم
کوییده بریاد ایرور ناموس ایله عاریم منیک

*Hasrati vaslida jonim chiqq'usidur vah, netay,
Aylamas lutf-u karam bir lahza dildorim maning.*

ایلابان لطف عنایت مطربی سرکشته نی
محرم ایتک ی وصلی غه یاری وفاداریم منیک

*Aylabon lutfu inoyat Mutribi sarkashtani,
Mahram etgay vaslig'a yori vafodorim maning.*

177/ 8, 9, 10, 11. A (141^{a/b}-b), 160 / 8, 9, 10, 11. B (230^b, 232^a-

b.) da tushgan.

***D. T: 1152 (439^b, 440^a-b.).

Xiva Ichonqal'asida saqlanayotgan 5894/II (245^b-b.) raqamli "Bayozi ash'or"dagi "Yetdi halovat jonima xurshid ruxsorin o'pib" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal A (92^b-bet) tayanch manbada 6 bayt qilib berilgan. Maqta'dan oldingi bayt esa tushib qolgan. B (208^a-b.) tayanch yordamchi manbada bu g'azal olti yarim bayt, ya'ni o'n uch misrasi ("Joni hazinimdin chiqib, ko'rgan hamano huzni g'am" misrasi tushib qolgan) ko'chirilgan. D tayanch yordamchi manbada bu g'azal yo'q:

جان حزینم دین چقیب کورکن همانا حزن غم
مسرور ایرور من بونفس طاوس رفتارین اوپوب

*Joni hazinimdin chiqib, ko'rgan hamano huzni g'am**,
Masrur erurman, bu nafas tovusi raftorin o'pib.*

37/6 A (92^b-b.) da tushib qolgan.

30/7^a B(208^a-b.) da tushib qolgan.

***D. T: 5894/II (245^b-b.).

- misra tushib qolgan o'rnlarni bir yulduz "*" bilan belgilash.

"Sabr ayladim hijroninga, ey mehribon, ey mehribon" misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azalning A (173^a-b.) tayanch manbaga ikkinchi hamda uchinchi misrasi ko'chirilmay qolgan. B (243^a-b.) tayanch yordamchi manbaga olti yarim bayt, ya'ni "Qildim duolar joninga, ey mehribon, ey mehribon" misrasi tushirib qoldirilgan. G'azal 1186 (88^b, 89^a-b.) raqamli qo'lyozma bayozga to'liq ko'chirilgan. D

tayanch yordamchi manbada bu g'azal uchramaydi.

صبر ایلا دیم هجر انینکا ای مهربان ای مهربان
 قیدیم دعالارجانینکا ای مهربان ای مهربان *

*Sabr ayladim hijroning, ey mehribon, ey mehribon,
 Qildim duolar joning, ey mehribon, ey mehribon*.*

* فرقت غمیدین بیر نفیس عالم کوزیمکا تارایور
 یتمی قولوم دامانینکا ای مهربان ای مهربان

Furqat g'amingdin bir nafas olam ko'zimga tor erur.
 Yetmay qo'lum domoning, ey mehribon, ey mehribon.*

279/1^b A (173^a-b.), 273/1^b B (243^a-b.)da tushgan. ***D. T: 1186 (88^b, 89^a-b.).

279/2^a A (173^a-b.)da tushgan. ***D. T: B (243^a-b.), 1186 (88^b, 89^a-b.).

- so'zlar va qo'shimchalarning tushib qolishi " - ":

She'rlar tarkibida so'z va qo'shimchalarning tushib qolishi ham boshqa farqlardan kam emas. Bu so'z va qo'shimchalar ham shoir yashagan davrda ko'chirilgan qo'lyozma bayoz va majmualar matnidan tiklandi. Bunday farqlarning yuzaga kelishiga devon matnining muallif nazorati ostida ko'chirilmagani sabab bo'ladi. Shu bilan birga kotib bilim saviya darajasi ham bunga bog'liq. Quyida so'z va qo'shimchalarning tushib qolgan o'rinlarni qayd qilganda ilmiy-tanqidiy matn uchun "-" ishora belgisi beriladi. Masalan, B (205^b-b.), D (239^b-b.) tayanch yordamchi manbalarga, 1152(37^a-b.) raqamli "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" qo'lyozma majmuaga "Mushabbak aylagan jismimni paykoningg'a sallamno" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal ko'chirilgan. Bu g'azalning to'rtinchi misrasidagi "Isyonim" so'zidagi "-im" egalik qo'shimchasi A(86^b-87^a-b.) tayanch manbadan tushib qolgan. Bu qo'shimcha B, D tayanch yordamchi hamda 1152-raqamli manbalar asosida tiklandi:

منی اول وصالینک محرمی ایلارکا عهد ایلاب
 نی ایرکن جرم عصیانیم پشیمانینکغه سلّما

*Mani avval visoling mahrami aylarga ahd aylab,
 Ne erkan jurmi isyonim pushaymoningg'a sallamno.*

19/2^b A (86^b-87^a-b.). نی ایرکن جرم عصیان پشیمانینکغه سلّما
 T: B (205^b-b.), D (239^b-b.), 1152 (37^a-b.).

B (120^b-b.) tayanch yordamchi manbaga ko'chirilgan "Nedur" radifli 7 baytli g'azalning birinchi misrasida "ichra" so'zi uchraydi. Bu so'z A (119^b-b.) tayanch manba matnidan tushib qolgan. D tayanch

yordamchi manbada bu g'azal yo'q.

جانا منى عشق ايچره زار آيلا ب سنكا مطلب نيدور
لعينك شرايغه خمار آيلا ب سنكا مطلب نيدور

*Jono, mani ishq **ichra** zor oylab sango matlab nedur,
La'ling sharobig'a xumor oylab sango matlab nedur.*

جانا منى عشق __ زار آيلا ب سنكا مطلب نيدور
***D. T: B (120^b-b.).

“Netdim, ey gardun, sani kajravlik izhor aylading” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal A(144^a-b.) tayanch manbaga bir qancha saktaliklar bilan ko'chirilgan.

Ushbu g'azalning uchinchi misrasi “Bu nafas to'ti maqolim__ judo aylab sani” misrasidagi “maqolimdin” so'zida “-din” qo'shimchasi tushib qolgan, “Mani” so'zi esa “sani” bo'lib ko'chirilishi g'azal mazmuniga hamda vazniga ta'sir etgan. 1152(386^b-b.) raqamli qo'lyozma majmuaga “Bu nafas to'ti maqolimdin viroq aylab mani”, B (232^a-b.), D (255^a-b.) tayanch yordamchi manbalarga esa, “Bu nafas to'ti maqolimdin judo aylab mani” kabi ko'chirilgan. Ko'ringanidek B, D tayanch yordamchi manbalarda to'g'ri berilgan. Ushbu bayt quyidagicha:

بو نفس طوطى مقاليم دين جودا ايلا ب منى -
دايما بتياره ناكس لارييله يار ايلادينك

*Bu nafas to'ti maqolimdin judo aylab mani^{+/+},
Doimo butyora nokaslar bila yor aylading.*

بو نفس طوطى مقاليم __ جودا ايلا ب سنى 187/2^a A (144^a-b.)

بو نفس طوطى مقاليم __ جودا 171/2^a B (232^a-b.), 77/2^a D (255^a-b.)

ايلا ب منى

T: 1152(386^b-b.).

Ushbu g'azalning beshinchi misrasidan ham “-din” qo'shimchasi A tayanch manbadan tushib qolgan:

- بزم وصىلى دين دل ناشاد ديمى شاد ايتماين
عشق ارا رنج مشقت لار غه دوچار ايلادينك

*Bazmi vaslidin dili noshodimi shod etmayin...
Ishq aro ranju mashaqqatlarg'a duchor aylading.*

بزم وصىلى __ دل ناشاد ديمى شاد ايتماين 187/3^a A (144^a-b.)

T: B (232^a-b.), D (255^a-b.). 1152 (386^b-b.).

A(185^b-b.) tayanch, B (250^a-b.) tayanch yordamchi manbalarga ko'chirilgan “Noz ila gulshan sari qilsang xirom, ey siymtan” misrayi bilan boshlanuvchi g'azalning sakkizinchi misrasida jiddiy

xatoga yo'l qo'yilgan. A qo'lyozma devonga "Xavf etar__ doim__manga ko'prak erur" misrasida "-man" qo'shimchasi hamda "afsuning" so'zi tushib qolgan. B tayanch yordamchi manbada esa faqat "afsuning" so'zi (*Xavf etarman doim ____ manga ko'prak erur*) tushgan. 1152 (624^b-b.) raqamli "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" qo'lyozma majmuada esa quyidagicha to'g'ri berilgan:

خوف ايتارمن دايم افسونينک منکا کوپراک ايرور
 قيلمه غای ناکس مبدا بزم وصلينک نی وطن

*Xavf etarman, doim afsuning manga ko'prak erur,
 Qilmag'ay nokas mabodo bazmi vaslingni vatan.*

خوف ايتار__ دايم ____ منکا کوپراک ايرور (۱۸۵^b-b.)
 310/4^b B (۲۵۰^a-b.) خوف ايتارمن دايم ____ منکا کوپراک ايرور
 ***D. T: 1152 (386^b-b.).

- bayt tarkibidagi so'z va qo'shimchalarning o'zgarishi, qo'shilishi "+":

Mutrib she'rlari matnida bir so'zning ikkinchi so'z tarkibiga qo'shib ketishi, so'zlarning ortiqcha berilishi, noto'g'ri ko'chirilishi kabi holatlar ham ko'zga tashlanadi. Bu xatolar she'r qolipida saktalikni yuzaga keltiradi. A tayanch manbadagi bu holat B, D tayanch yordamchi manbalardagiga nisbatan kam bo'lsa-da, ilmiy-tanqidiy matn uchun so'zlarning eng maqbul variantlarini tanlab olish muhim ahamiyatga ega.

Bayt tarkibidagi so'z va qo'shimchalarning o'zgartirgan hamda qo'shilgan o'rinlarida "+" ishora belgisi qo'yilib, manbalardagi farqlar aks etgan bayt misralarini berish *a* va *b* shaklida hamda ko'chirilgan g'azalning tartib raqami matn ostida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Masalan: A (149^a-b.) tayanch manbaga "Chiqmas g'ami pinhoning, ey oromi dil, oromi dil" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning to'qqizinchi misrasidagi "Ozori" so'zi "Oz ila" kabi ko'chirilgan. Ushbu so'zni 6816 (224^a-b.), 1179 (2^b, 3^a-b.) raqamli qo'lyozma bayozlarga ko'chirilgan variant asosida tiklandi:

آزار هجرانينک ارا ايکی لبينک صهباسيدين *
 يوق قطرة احسانينک ای آرام دل آرام دل

Ozori hijroning aro ikki labing sahbosidin,
 Yo'q qatrayi ehsoning, ey oromi dil, oromi dil.*

زايله هجرانينک ارا ايکی لبينک صهباسيدين (۱۴۹^a-b.)
 ***B, D.

T: 6816 (224^a-b.), 1179 (2^b, 3^a-b.).

A (149^a-b.) tayanch manbaga ko'chirilgan "Mandin g'ami

furqatni ol, ochib jamol, ochib jamol” misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g’azalning to’rtinchi misrasida “Ey” so’zi qo’shilib qolgan. 6928 (161^b-162^{a-b}), 6816 (226^{a-b}) raqamli qo’lyozma bayozlarda to’g’ri berilgan.

ايلا ب خرامان بز ميمه يوز مينك اداناز ايله
اظهار ايتب فيض وصال آچيب جمال آچيب جمال

*Aylab xiromon bazmima yuz ming adou noz ila,
Izhor etib fayzi visol, ochib jamol, ochib jamol**.

217/ 2^b A (149^{a-b}.) اظهار ايتب اي فيض وصال آچيب جمال آچيب جمال
***B, D.

T: 6928 (161^b-162^{a-b}), 6816 (226^{a-b}).

D (243^b-b.) tayanch yordamchi manba, 1152 (134^b-b.) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo’lyozma majmuadagi “*Tushdi hajringdin dili jon ichra o’t*” misrasi bilan boshlanuvchi 6 baytli g’azalning yettinchi misrasida “bor erur” birikmasi uchraydi. Bu birikma A (95^b-bet) tayanch, B (210^{a/b}-betlar) tayanch yordamchi manbaga “**borida**” bo’lib ko’chirilgan.

+ نى كناھيم بار ايرور ھردم سالور
درد عشقينك جسم ويران ايچره اوت

Ne gunohim bor erur, har dam solur,
Dardi ishqing jismi vayron ichra o’t...*

نى كناھيم باريدا ھردم سالور (.47/4^a A(95^b-b.), 43/4^a B(210^{a/b}-b

T: D(243^b-b.), 1152(134^b-b.).

A (178^b-b.) tayanch manbaga ko’chirilgan “*Jono, ne debyuzingni mandin nihon etarsan*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g’azalning ikkinchi misrasida “hajr” so’zi uchraydi. Bu so’z Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari” 12561 (74^{a/b}-b.) raqamli tazkirasiga “ichra” tarzida to’g’ri ko’chirilgan. B, D tayanch yordamchi manbalarda bu g’azal uchramaydi.

جانا نى ديب يوزينكى مندين نھان ايتارسن
+ درد فراقينك ايچره بغيريمنى قان ايتارسن

*Jono, ne deb yuzingni mandin nihon etarsan,
Dardi firoqing ichra bag’rimni qon etarsan**.

درد فراقينك ھجر بغيريمنى قان ايتارسن. 315/1^b A (178b-b.).

***B, D.

T: 12561 (74^{a/b}-b.).

“*Husn ahlini ko’zgidur, ey sho’xi yakto, orazing*” misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g’azalning o’n beshinchi misrasi A (144^b-

b.) tayanch manbaga “*Ko’hi g’amingda yig’labon tun-kun yaqomni chok etib*”, B(232^a-b.) tayanch yordamchi manbada esa “*Ko’yi g’amingda yig’labon tun-kun yaqomni chok etib*” kabi ko’chirilgan. D tayanch yordamchi manbada bu g’azal yo’q. 1152(429^b-b.) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo’lyozma majmuaga quyidagicha to’g’ri berilgan:

+ **كويىنك** غمدا يغلبلان تونكون يقامنى چاك ايتب
ايلارمن هر دم جستجو قلماق تماشا عارضينك

Ko’ying g’amida yig’labon tun-kun yaqomni chok etib+,
Aylarman har dam justujo’ qilmoq tamosho orazing.

كوهى غمينك دا يغلبلان تونكون يقامنى چاك ايتب
195/8^a A (144^b-b.). كويى غمينك دا يغلبلان تونكون يقامنى چاك ايتب
186/8^a B (۲۳۲^a-b.).
***D.

T: 1152(429^b-b.).

Muzori’i musammani axrabi makfufi mahzuf (- -V/ -V-V/ V- -V/ -V-) vaznida yozilgan “*Bo’lsun salom beaded, ey shohi anbiyo*” misrasi bilan boshlanuvchi g’azalning beshinchi misrasi A (83^a-bet) tayanch manbaga “*Ul oqshomi ki. Haq amri birla aylading uruj*” tarzida, “-ki” qo’shimchasining ortishi hamda “birla” so’ziga “r” harfining qo’shilishi evaziga vazn buzilgan. B (204^a-b.), D (239^a-b.) tayanch yordamchi manbalarda bu misra “*Ul oqshomki. Haq amri bila aylading uruj*” kabi uchraydi. 1152 (29^a-b.) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo’lyozma majmuada quyidacha to’g’ri ko’chirilgan:

+ اول آقشامى حق امرى بيلا ايلادينك عرج
تنكرى ميسر ايلادى عالى مكان سنكا

Ul oqshomi Haq amri bila aylading uruj+,
Tangri muyassar ayladi oliy makon sango.

اول آقشامى كه حق امرى بيرا ايلادينك عرج
6/3^a A(83^a-b).
6/3^a B(204^a-b.), 6/3^a D(239^a-b)
اول آقشامى كه حق امرى بيلا ايلادينك عرج

T: 1152(29^a-b.).

“Fido” radifli 7 baytli g’azalning beshinchi misrasidagi **قتليم** (qatlim) so’zi A (87^a-b.) tayanch manbaga **اقلیم** (iqlim) tarzida ko’chirilgan. B (205^b-b.), D (239^b-b.) tayanch yordamchi manbalarga hamda 1152 (45^a-b.) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” majmuaga “qatlim” shaklida to’g’ri ko’chirilgan:

+ هر زمان ناوک اورار قتليم اوچون جادوكوزينك
قيل ترحم ناوكينك غا قطرة قانيم فدا

Har zamon novak urar **qatlim** uchun jodu ko'zung*,
Qil tarahhum novakingg'a qatrayi qonim fido.

هر زمان ناوک اور اراقليم اوچون جادو کو زینک

T: B(205^b-b.), D(239^b-b.), 1152(45^a-b.).

Iqlim so'zi arab tilida mintaqa, qit'a degan ma'nolarga ega.
"Qatlim" so'zi o'ldirmak, so'ymoq ma'nolarini ifodalaydi.

Ayni baytdagi "qatlim" so'zi misra mohiyatiga mos tushadi.
Keyingi misrada (Qil tarahhum novakingg'a qatrayi qonim fido)
mohiyat oydinlashadi: *yorning jodu ko'zi o'q otishi natijasida
oshiqning "qatl"ga ham rozi ekanligi, novakiga qatra qoni fido
bo'lishi tasviri keltiriladi.*

Mutakarrir san'atini ifodalab kelgan "Gulshani vaslingg'a
tun-kun bo'lmisham, ey gul'uzor, Intizoru, intizoru, intizoru, intizoru"
misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azalning to'qqizinchi
misrasida quyidagicha farqlar kuzatildi. A (125^a-b.), B (223^a-b.)
tayanch, tayanch yordamchi manbada:

No'sh etarman zahri g'amni ro'zi shab,

Beshumoru, beshumoru, beshumoru, beshumor.

D (250^b-b.) tayanch yordamchi manbada:

No'sh etarman bu qil tarahhum tun-kun hijron zahrini,

Beshumoru, beshumoru, beshumoru, beshumor.

Ushbu bayt har manbaga ham xato ko'chirilgan. Bizningcha,
baytdagi bu xatolikni kotibning e'tiborsizligi bilan izohlash
mumkin. Zero, shoir asar matni va uning vazniga jiddiy munosabatda
bo'lishi ayon.

Bu g'azal misrasining nisbatan to'g'ri varianti 1152
(243^{a/b}-b.) raqamli "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy"
qo'lyozma majmuaga ko'chirilgan:

نوش ایترمن قیل ترحم تونکون هجران زهرنی +
بیشمار، بیشمار، بیشمار، بیشمار

No'sh etarman, qil tarahhum, tun-ku(n) hijron zahrini*

Beshumoru, beshumoru, beshumoru, beshumor.

G'azal ramali musammani mahzuf (maqsur):-V--/V--/V--
/V-)vaznida yozilgan.

نوش ایترمن زهر غم نی روز شب

(.202/5^a A(125^a-b.), 136/5^a B(223^a-b)

(.95/5^a D(250^b-b)

T: 1152 (243^{a/b}-b).

1152 (94^a-b.) raqamli "Majmuat ush-shuaroyi payravi

Feruzshohiy” qo’lyozma majmuaga Mutribning “Aylab” radifli g’azali ko’chirilgan. Bu g’azalning uchinchi misrasidagi “mayi la’li” birikmasi A(92^a-b.) tayanch manbada “mani la’li” kabi ko’chirilgan. B, D tayanch yordamchi manbalarda bu g’azal yo’q. Ushbu bayt quyidagicha:

مىي لعلى بيله تاتانكغچه مغرور ايتيب اولشوخ +
ارى غملارنى جان كونكلومه بالكل حرام ايلاب

*Mayi la’li bila to tongg’acha mag’rur etib, ul sho’x,
Bori g’amlarni jon ko’ngluma bilkull harom aylab.*

منى لعلى بيله تاتانكغچه مغرور ايتيب اولشوخ. 35/2^a A (92^a-b.).

***B, D.

T: 1152 (94^a-b.).

(Ul sho’x labining qizilligi bilan to tongg’acha mag’rurlanib, barcha g’amlarni jon ko’nglumga butunlay harom (man’) ayladi).

Shoir “mayi la’li” birikmasi orqali ikki xil ma’noni qo’llagan. Birinchidan, labning qizilligi, ikkinchidan, mast qiluvchi lab ma’nosida. Bu orqali shoir iyhom san’atidan mohirona foydalangan.

Agar “mani la’li” birikmasi orqali g’azal misralarini tahlilga tortsak, ma’no biroz o’zgaradi. Bu misrada shoir “Ul sho’x, mani la’li labi bilan to tonggacha mag’rur etib, barcha g’amlarni jonu ko’nglumga butunlay harom (man’) ayladi” – mazmuni ifodalashi anglashiladi. Har ikki variant ham bayt mazmuniga daxl qilmaydi. Biroq mumtoz adabiyotimizda “mayi la’li” birikmasi an’anaviy birikma sifatida ko’p qo’llaniladi.

Ramali musammani mahzuf (maqsur) vaznida yozilgan “Jonfizo la’lidan hosil bo’ldi kecha komimiz” misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g’azalning beshinchi misrasi A(132^a-b.) tayanch, B tayanch (226^b-b.) yordamchi manbalarga quyidagicha ko’chirilgan:

*Soqiyo keltursa solib jomi marg’ub emdikim,
Sham’i husnidin munavvar bo’ldi tiyra shomimiz.*

Ushbu misra D(262^a-b.) tayanch yordamchi manba hamda 1152(331^a-b.) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo’lyozma majmuaga quyidagicha to’g’ri ko’chirilgan:

ساقيا كيلتور لبالب جام مرغوب ايمدى كيم +
شمع حسنيدين منور بولدى تيره شاميميز

Soqiyo, keltur labolab jomi marg’ub emdikim,
Sham’i husnidin munavvar bo’ldi tiyra shomimiz.*

ساقيا كيلتور سا ساليب جام. 239/6^a A(132^a-b.), 153/6^a B(226^b-b.).

مرغوب ایمدی کیم

T: D(262^a-b.), 1152(331^a-b.).

“Soqiyo, keltur labolab jomi marg‘ub emdikim” misrasidagi “labolab” so‘zi oshiq holatini to‘g‘ri anglash imkonini yaratadi. Oshiq soqiydan ko‘ngilni may “ishq” bilan limmo-lim to‘ldirishi uchun jomni to‘la taqdim qilishini xohlaydi. Ko‘rib turganimizdek, ushbu bayt mazmuni birinchi keltirilgan bayt mazmunidan poetik jihatidan ustun hamda muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr saqlangan.

A (155^a-b.) tayanch, B (236^b-b.) tayanch yordamchi manbalarga ko‘chirilgan “Bihamdillahki, bu dam baxtdin komim ravo topdim” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning to‘rtinchi misrasi “G‘alat erkan bu so‘zim, san nigorim bovafo topdim” kabi ko‘chirilgan.

Ushbu bayt 1191 (152^{a/b}-b.) raqamli qo‘lyozma bayozga to‘g‘ri ko‘chirilgan:

*Bukim derlar, vafovu mehri yo‘q, husn ahli ko‘nglida,
G‘alat erkan bu so‘zkim, man nigorimdin vafo topdim*.*

غلط ایرکن بوسوزیم سن .(236/2^b A(155^a-b.), 229/6^b. B(236^b-b

نکاریم با وفا تاپدیم

***D.

T: 1191 (152^{a/b}-b.).

Kotib birinchi bayt misrasini xato ko‘chirishi g‘azal mazmunida g‘alizlikni yuzaga keltirgan. Ikkinchi berilgan baytda g‘azal mazmuni to‘liq saqlangan. Baytdagi ma‘no: *oshiqning bu dunyoda kimgadir vafo borligini isbotlash tasviri va buni asoslashda esa o‘z yori orqali iqror bo‘lganligi mazmuni anglashiladi.*

“Bugun, ey mehribonim, yuz ochib kel, intizoringman” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azalning o‘n birinchi misrasi A (186^a-b.) tayanch manbaga “Ochib xurshid yonglig‘ yuzini kulbam sari, ey sho‘x” bo‘lib ko‘chirilgan. Bu misradagi “yuzini” so‘zi B (250^a-b.) tayanch yordamchi manba hamda 1152(592^{a/b}-b.) raqamli qo‘lyozma majmuaga quyidagicha to‘g‘ri ko‘chirilgan:

+ آجب خورشید یانکلیغ یوز منی کلیم ساری ایشوخ
خرام ایئسنک ایاقینکغه تنی جانی نثارینک من

Ochib xurshid yonglig‘ yuz, mani kulbam sari, ey sho‘x,
Xirom etsang ayoqingg‘a tani joni nisoringman.*

آجب خورشید یانکلیغ یوزی نی کلیم ساری ایشوخ 349/ 6^a A(186^a-b.)

***D.

T: B(250^a-b.), 1152(592^{a/b}-b.).

“*Gulgun kiyibmish ul parirol qadi dilju ustina*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli gʻazalning ikkinchi misrasidagi “qahr” soʻzi A (197^a-b.) tayanch, B (254^a-b.) tayanch yordamchi manbalarga “qad” boʻlib koʻchirilgan. Bu soʻz 1152 (693^b, 694^a-betlar) raqamli “Majmuat ush-shuaroi payravi Feruzshohiy” qoʻlyozma majmuada hamda 1177 (4^{a/b}-b.) raqamli qoʻlyozma bayozda quyidagicha uchraydi:

+ كلكون كيب ميش اول پريرو قد دلجو اوستينه
قهر ايله چين سالميش بوكون اول چين ابرواستينه

Gulgun kiyibmish, ul parirol, qadi dilju ustina,
Qahr ila chin solmish bugun ul chin abru ustina⁺.

چين ابرواستينه
چين سالميش بوكون اول .(375/1^b A(197^a-b.), 366/1^b B(254^a-b

***D.

T: 1177(4^{a/b}-b.), 1152(693^b, 694^a-b.).

Gʻazal *rajazi musammani solim* vaznida yozilgan. Agar ushbu misrada “qad” soʻzi boʻlsa vazn buziladi va maʼno oʻzgaradi. “Qahr” soʻzi esa har ikki tomonlama mos tushadi. Shoir bu gʻazalida kitobat sanʼatidan mohirona foydalangan.

Koʻngil oluvchi ul pari(paykar) ustiga gulrang, pushtirang (koʻylak) kiyganmish. Achchigʻlanib, qoshlarini (chin abru) chimirib (ustiga kiygan kiyimga qarab), nazar (chin) solganligi anglashiladi.

“*Kun emas roʻshnoligʻ ichra charx uza ruxsoricha*” misrasi bilan boshlanuvchi (8 bayt) gʻazalning maqtaʼ qismidagi oxirgi misra A(204^a-b.) tayanch manbaga “*Vahki, taʼsir ayla, taʼsir aylamas zulfining bir toricha...*” boʻlib koʻchirilgan. B (252^a-b.) tayanch yordamchi manbaga hamda 1152 (777^b-b.) raqamli qoʻlyozma majmuaga quyidagicha toʻgʻri berilgan:

جنت ايچرا مطر با مينك حور غلمان صحبتي
وه كه تاثير ايللا تاءثير ايللا ماس دور زلفي نينك بيرتار يچه +

Jannat ichra Mutribo, ming huri gʻilmon suhbat,
Vahki, taʼsir aylamasdur, zulfining bir toricha⁺.

وه كه تاءثير ايللا تاءثير ايللا ماس زلفي نينك بيرتار يچه

***D.

T: B (252^a-b.), 1152 (777^b-b.).

A (213^a-b.) tayanch, B (262^a-b.) tayanch yordamchi manbalarga koʻchirilgan “*Vahki, dildor oʻlmasa, bazm ichra sogʻarni netay*” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli gʻazalning oʻn beshinchi misrasida quyidagicha saktalik yuzaga kelgan:

Sayri gulshan etmasam ul sarvi gulamdomsiz.

Bog' aro gulni ne aylay, sunbuli tarni netay.

Ushbu bayt 1152 (806^b-b.) raqamli "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" qo'lyozma majmuaga hamda 5894/III (2^a-b.) raqamli qo'lyozma bayozga quyidagicha to'g'ri ko'chirilgan:

سیر کلشن ایتمسم اول سروی کل اندام اولما سا
باغ ارا کل نی نه ایلائی سنبل ترنی نیتای

Sayri gulshan etsam, ul sarvi gulandom o'lmasa⁺,

Bog' aro gulni ne aylay, sunbuli tarni netay.

سیر کلشن ایتمسم اول سروی. 432/6^a A (213^a-b.), 335/6^a B (262^a-b.).
کل اندام سیز

***D.

T: 5894/III(2^a-b.), 1152 (806^b-b.).

Birinchi bayt mazmuni: *gulshan sayrini ixtiyor etmasam-u lekin ul gulomdomsiz, (usiz) bog' ichidagi gulni, sunbulni nima qilaman*, mazmuni anglashilgan.

Ikkinchi baytda: *gulshan sayrini ixtiyor etsamu, lekin ul gulomdom bo'lmasa, (usiz) bog' ichidagi gulni, sunbulni nima qilaman, deyapti.*

Ko'rinadiki, ikkinchi baytda g'azal mazmuni saqlangan. Quyida ham shunga o'xshash bir misolni keltiramiz.

"Gulshani vaslingni dilbar, jannat-ul ma'vo bilay" misrasi bilan boshlanuvchi 5 baytli g'azalning ikkinchi misrasi A(215^a-b.) tayanch manbaga "Sham'i husningdin tajalli yuzini paydo qilay" misrasidagi "yuzini paydo qilay" birikmasi B (263^b-b.) tayanch yordamchi manba, 1152 (871^a-b.) raqamli qo'lyozma majmua, 1177 (150^b-b.) raqamli qo'lyozma bayozlarga "nurini paydo qilay" kabi to'g'ri ko'chirilgan. Bu variant g'azal mazmunini poetik jihatdan boyitgan:

کلشن وصلینک نی دلبر جنّت الما وا بیلائی
شمع حسنینک دین تجکی نوری نی پیدا قیلائی

Gulshani vaslingni dilbar, jannat-ul ma'vo bilay,

Sham'i husningdin tajalli nurini paydo qilay⁺.

شمع حسنینک دین تجلی یوزی نی پیدا قیلائی. 439/1^b A (215^a-b.).

***D.

T: B (263^b-b.), 1177 (150^b-b.), 1152 (871^a-b.).

Ushbu g'azalning uchinchi misrasida "ko'zguidek, chehrangni" birikmasi uchraydi. Bu birikma A tayanch, B tayanch yordamchi manbalarga "ko'zguidek mehringni" bo'lib o'zgargan. To'g'ri variant

esa quyidagicha:

كوزكوديك چهرنك نى پنهان ائتمه مندين بير نفض
لحظه لحظه كوزلاريم نينك تيره سين روشن قىلاي

*Ko'zgudek, chehrangni pinhon etma mandin bir nafas +,
Lahza-lahza ko'zlarimning tiyrasin ravshan qilay.*

كوزكوديك مھرينك نى پنهان (۲۱۵^a-b.), 419/1^b. B (۲۶۳^b-b.).
ائتمه مندين بير نفضس

***D.

T: 1177 (150^b-b.), 1152 (871^a-b.).

A tayanch manbada bitta g'azal negadir, kotib tomonidan oxirigacha ko'chirilmagan. Ushbu tushib qolgan g'azal quyidagicha:

*Tun-kun, ey pari, mag'ruri hijroning emasmanmu?
Balolar dashtida choki giriboning emasmanmu?*

*Qilursan lablaringdin o'zgalarni ro'zi shab masrur,
Bayon etib mustahiq¹ xayr-ehsoning emasmanmu?*

*Mani ushshoq xaylidan hisob etmassan, ey dilbar,
Firoqing shiddatidin chashmi giryoning emasmanmu?*

*Jununim xotiringda har nafas jo tutmas, ey dilbar,
Damodam shavq o'tig'a qalbi so'zoning emasmanmu?*

*Ishim ko'yi g'amingdur, ro'zi shab sargashtalik vahkim,
Yetushmay gulshani vaslingg'a hayroning emasmanmu?*

Chiqib²..... [A tayanch manba, 193^b].

Bu g'azallar B, D tayanch yordamchi manbalarda ham Mutrib lirik asarlari uchraydigan boshqa manbalarda ham uchramaydi. Buni shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda e'tiborga olish zarur.

Xulosa

Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini 8 ta tamoyil asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bular quyidagilar:

- devonning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun devon qo'lyozmalarini lotin alifbosining dastlabki uch harfi – A, B, D bilan belgilash tamoyili;

- shoir she'rlarining ilk misrasidan oldin qizil rangda qayd etilgan sarlavhalarni qayta ko'rish; butunlay tushib qolgan

¹ Munosib, loyiq, haqli.

² G'azal ko'chirilgan keyingi sahifa yo'q. Poygir sifatida "Chiqib" so'zi qizil siyohda yozilgan.

o'rinlarni tiklash hamda yangi topilgan she'rlarga janr xususiyatiga mos sarlavha qo'yish tamoyili;

- devonga ko'chirilgan she'rlarning alifbo tartibida joylashuv holatini qayta ko'rib chiqish tamoyili;

- qo'lyozma majmua va bayozlardagi she'rlarni tayanch manba uchun tiklashda o'ziga xos shartli belgilarni qo'yish tamoyili;

- shoir devoni qo'lyozmalarida uchramaydigan she'rlar qo'l-yozma majmua va bayozlardan olinib, arab alifbosi joylashuvi tartibida hamda navbatdagi raqamlar joylashuvi asosida devon tarkibiga kiritish tamoyili;

- matn tarkibida tovush o'zgarishlari hamda grammatik uslubiy xatoliklarga uchragan so'zlarni bir tizimga solish tamoyili;

- arab, fors, turkiy tillarga oid so'zlarni eski o'zbek yozuvi imlo qoidalari asosida yozish tamoyili;

- she'r matnlarida yuzaga kelgan tafovutlarni bartaraf etishda ishora belgilardan foydalanish tamoyili.

A tayanch manbadagi saktaliklar B, D tayanch yordamchi manbalar hamda 1152, 1134, 1127, 1129 majmualar, 6816, 6927, 6928, 6932, 6951, 6952, 6969, 6939, 6971, 6976, 6990, 7023, 7039, 7122, 2024, 2025, 2028, 2036, 5894/II, 5894/III, 5894/IV, 5894/V, 1125, 1126, 1128, 1172, 1176, 1177, 1179, 1182, 1184, 1185, 1186, 1190, 1191, 1192, 1195, 1196 qo'lyozma bayozlar hamda 12561, 14420, 9543 toshbosma manbalarga ko'chirilgan she'rlari aniqlanib, qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshirildi.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. 2021. *Муҳокамату-л-луғатайн*. Илмий-танқидий матн. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю. Турсунов. Тошкент: Фан.

Алишер Навоий. 1961. *Мажолис ун-нафоис*. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи С.Ғаниева. Тошкент: Фан.

Бертельс, Е. Э. 1960. Фирдавсий. *Шахнаме*. Критический текст. Москва.

Ғанихўжаев, Фатхулла. 1998. *Огаҳийнинг "Таъвиз ул-ошиқин" девони ва унинг илмий-танқидий матни*. Филол. фан. д-ри... дисс. Тошкент.

Ҳамидова, Мавжуда. 1994. *Алишер Навоий "Садди Искандарий" достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи*. Филол. фан. д-ри... дисс. Тошкент.

Исҳоқов, Фатҳиддин. 1997. *Гулханий "Зарбулмасал"нинг илмий-танқидий матни*. Филол. фан. номз. дисс. ... Тошкент.

Жабборов, Нурбой. 2020. "Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат

- мезони”. *Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари*, 50-57. Наманган.
- Лихачёв, Дмитрий. 1962. *Текстология на материале русской литературы X-XVII в. в.* Москва - Ленинград.
- Madirimova, S. 2019. “Mutrib Xonaxarob asarlari qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi”. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. 2023. “Analysis of text differences in Mutrib's works”. *American Journal Of Philological Sciences* 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. M. 2023. “Fundamentals of Scientific Biography of Mutrib Khanakharab”. *International Journal of Social Science Research and Review*, 6 (5), 207-214.
- Nurboy, J. 2015. *Times, criteria, poetry*. Tashkent: NMI named after Gafur Gulam.
- Осмонов, Магомед. 1968. *Разночтения и описки в списках “Шахнамы” и их фиксация в критическом тексте*. Письменные памятники Востока. Ежегодник. Москва.
- Пирназаров, Матназар. 1973. *Мутриб Хонахаробийнинг ижодий йўли*. Фил. фан. номз... дисс. Самарқанд.
- Пирназаров Матназар. 2001. *Мутриб Хонахаробий*. Рисола-мажмуа. Тошкент.
- Рашидова, Мавжуда. 1991. *Алишер Навоий “Назмулжавоҳир” асарининг матний тадқиқи*. Филол. фан. номз. дисс. ... Тошкент.
- Султонов, Иззат. 1947. *Навоийнинг “Мезонул-авзони” ва унинг критик тексти*. Филол. фан. номз. дисс. ... Тошкент.
- Сулейманов, Хамид. 1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои*. Дисс... доктора филол. наук. Ташкент, Москва.
- Шамсиев, Порсо. 1952. *Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида*. Филол. фан. номз. дисс. ... Тошкент.
- Шамсиев, Порсо. 1969. *Навоий асарлари матнларини ўрганишининг баъзи масалалари*. Филол. фан. д-ри... дисс. Тошкент.
- Халилов, Латиф. 1997. *Алишер Навоий “Тарихи мулки ажам” асарининг текстологик тадқиқи*. Филол. фан. номз. дисс. ... Тошкент.
- Зоҳидов, Рашид. 2018. *“Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари*. Филол. фан. д-ри... дисс. Тошкент.

Principles of creating a scientific-critical text of Mutrib's works

Sohiba Madirimova¹

Abstract

In this article, the literary heritage of the poet of Khorezm literary environment son of Haji Tabib, Muhammad Hasan Mutrib (1853-1923) is studied on the basis of theoretical and practical problems of textual studies. Information about Mutrib Khonakharob's poems in bayoz, tazkira and collections compiled during the poet's lifetime, kept under inventory number 903/IV, 906/VII, 2679/II in the funds of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Several principles have been developed in creating a scientific and critical text of the poet's poems. These are mainly explained on the basis of the scientific opinions of our textual scientists such as E.Bertels, D.S. Likhachov, H.Sulaymonov, P.Shamsiyev.

On the basis of Mutrib's divan manuscripts, more than a hundred poems in Bayaz, supporting and auxiliary sources were identified. In creating the scientific-critical text of the poet's poems, 8 principles have been developed such as "To compose the scientific-critical text of the Divan, mark the manuscripts of the Divan with the first three letters of the Latin alphabet - A, B, D", "The principle of coordination of the titles of the poet's poems", "Principle of revising the alphabetic arrangement of letters", "The principle of placing conditional symbols in the restoration of poems in manuscript collections and bayozs for the primary source".

Key words: *manuscript, tazkira, poem, bayaz, ghazal, devan, Mutrib Khanakharab.*

References

- Alisher Navoiy. 2021. *Muhokamatu-l-lug'atayn*. Ilmiy-tanqidiy matn. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Y. Tursunov. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1961. *Majolis un-nafois*. Ilmiy-tanqidiy matn. Tayyorlovchi S.G'anieva. Toshkent: Fan.
- Bertels, Ye. E. 1960. Firdavsiy. *Shaxname*. Kriticheskij tekst. Moskva.
- G'anixo'jaev, Fatxulla. 1998. *Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" devoni va uning*

¹*Sohiba M. Madirimova* – Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Assistant Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz; madirimova555@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

For citation: Madirimova, S. M. 2023. "Principles of creating a scientific-critical text of Mutrib's works". *Golden scripts* 2: 40–66.

- ilmiy-tanqidiy matni*. Filol. fan. d-ri... diss. Toshkent.
- Hamidova, Mavjuda. 1994. *Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi*. Filol. fan. d-ri... diss. Toshkent.
- Is'hoqov, Fathiddin. 1997. *Gulxaniy "Zarbulmasal"ining ilmiy-tanqidiy matni*. Filol. fan. nomz. diss. ... Toshkent.
- Jabborov, Nurboy. 2020. "Matn tarixini o'rganish – ilmiy haqiqat mezon". *O'zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari*, 50-57. Namangan.
- Lixachyov, Dmitriy. 1962. *Tekstologiya na materiale russkoy literaturi X-XVII v. v. Moskva - Leningrad*.
- Madirimova, S. 2019. "Mutrib Xonaxarob asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi". *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. 2023. "Analysis of text differences in Mutrib's works". *American Journal Of Philological Sciences* 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. M. 2023. "Fundamentals of Scientific Biography of Mutrib Khanakharab". *International Journal of Social Science Research and Review*, 6 (5), 207-214.
- Nurboy, J. 2015. *Times, criteria, poetry*. Tashkent: NMI named after Gafur Gulam.
- Osmonov, Magomed. 1968. *Raznochteniya i opiski v spiskax "Shaxnami" i ix fiksatsiya v kriticheskom tekste*. Pismennie pamyatniki Vostoka. Yejogodnik. Moskva.
- Pirnazarov, Matnazar. 1973. *Mutrib Xonaxarobiyning ijodiy yo'li*. Fil. fan. nomz... diss. Samarqand.
- Pirnazarov Matnazar. 2001. *Mutrib Xonaxarobiy* (risola-majmua). Toshkent.
- Rashidova, Mavjuda. 1991. *Alisher Navoiy "Nazmul javohir" asarining matniy tadqiqi*. Filol. fan. nomz. diss. ... Toshkent.
- Sultonov, Izzat. 1947. *Navoiyning "Mezonul-avzoni" va uning kritik teksti*. Filol. fan. nomz. diss. ... Toshkent.
- Suleymanov, Xamid. 1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi*. Diss... doktora filol. nauk. Tashkent, Moskva.
- Shamsiev, Porso. 1952. *Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik teksti va uni tuzish prinsiplari haqida*. Filol. fan. nomz. diss. ... Toshkent.
- Shamsiev, Porso. 1969. *Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari*. Filol. fan. d-ri... diss. Toshkent.
- Xalilov, Latif. 1997. *Alisher Navoiy "Tarixi mulki ajam" asarining tesktologik tadqiqi*. Filol. fan. nomz. diss. ... Toshkent.
- Zohidov, Rashid. 2018. *"Sabotul ojizin" asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari*. Filol. fan. d-ri... diss. Toshkent.

**ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE****Qofiya harflarining nazariy asoslari tadqiqi**Hamroyeva Orzigul³**Abstrakt**

Mumtoz qofiya ilmi alohida mustaqil ilm sifatida poetikaning tarkibiy qismi sifatida risolalar tarkibida alohida tadqiq etilgan. Poetikaga oid risolalarning barchasida adabiy tur va janrlar, badiiy san'atlar, aruz vazni kabi ilmlar qatorida qofiya ilmi nazariyasi alohida qismlar ostida taqdim qilingan. Mumtoz adabiyotda qofiyaning bir necha turlari o'rganilgan. Ta'kidlash kerakki, qofiyaning turli jihatlariga ko'ra bu turlarining mukammal tarzda qo'llanishi baytlar takomilini belgilab bergan. Bu qofiya turlarining aksariyati qofiya harflari ishtiroki bilan bog'liq. Maqolada poetikaga oid risolalarda keltirilgan qofiya harflarining nazariy asoslari qiyosiy tarzda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *qofiya harflari, xuruj, mazid, noyira, ridf, ta'sis, qayd, vasl, raviy, qofiya harakatlari, muassas, mujarrad, muqayyad, murdaf.*

Kirish

Mumtoz qofiya ilmida qofiya tarkibi qofiya turlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Qofiyaning tarkibiy qismi qofiyadosh so'z mukammaligini ta'minlab beruvchi asosiy unsurlardan biridir. Arab shoirlari qofiya asosida 6 huruf, 6 harakat bo'lishini ta'kidlaydilar. Ulardan hurufi ta'sis, daxil, ridf, raviy, vasl, xuruj kabilar qofiya harflari bo'lsa, itloq, xazv, rass, ishbo', tavjih, nafoz kabilar qofiya harakatlari (unlilar) sifatida keltiriladi. Ajam olimlari esa arab olimlaridan farqli o'laroq hurufi qofiyaning 9 taga yetkazadilar. Mumtoz qofiyaga oid manbalarda qofiyaning 9 harf va olti harakatdan iborat bo'lishi aytiladi. Qofiya harflari sifatida ta'sis (1), daxil (2), ridf (3), qayd (4), raviy (5), vasl (6), xuruj (7), mazid (8), noyira (9) keltiriladi.

³Hamroyeva Orzigul Jalolovna – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: arguvon87@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-3904-9712

Iqtibos uchun: Hamroyeva, O. J. 2023. "Qofiya harflarining nazariy asoslari tadqiqi". *Oltin bitiglar* 2: 67–92.

Qofiya harflari olimlar talqinida

Abu Abdulloh Xorazmiy qofiyaning 4 harfiga ta'rif beradi: raviy, xuruj, ridf, ta'sis. Bu harflarning 3 tasi asos tarkibida, bittasi asosdan keyin joylashadi. Qays Roziy qofiyaning 9 harfini alohida sarlavhalar ostida izohlaydi [Roziy 1997, 83-144].

Nosiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" asarining 2-fasli harakat va harflarning qofiyadagi o'rni haqida bo'lib, Nosiriddin Tusiy dastlabki ma'lumotni arab adabiyoti misolida tushuntiradi. Unga ko'ra arab she'rshunosligida qofiya hurufi - 6 ta: raviy, raviydan oldin keluvchi 3 harf: ta'sis, daxil, ridf; raviydan keyin keluvchi 2 harf: vasl va xuruj mavjud [Tusiy 1325, 110]. Olim "Dar bayoni huruf va harakote, ki ajzoi qofiya boshad" va "Dar ahkomi in huruf va harakot" sarlavhasi ostida arab she'riyatidagi qofiya harflari xususida to'xtalsa, "Dar huruf va harakoti qavofi nazdiki porsigo'yon va zikri radif" sarlavhali qismda fors she'riyatida qofiya harflari va harakatlarini tadqiqqa tortadi [Tusiy 1325, 110].

Ahmad Taroziy qofiya hurufiga munosabat bildirishda ajam olimlari tasnifiga tayanadi. Olim qofiya harflariga sharh berar ekan, sharhni raviydan boshlaydi [Taroziy 2016, 60]. Biroq Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a"da qofiya harflariga bag'ishlangan "Fasl"ning so'ngida "ustodlar bu to'qquz hurufdin boshqa raviydin yo ridfdin yo ta'sisdin burun bir harfni iltizom qilgan"liklarini aytadi. Bu har faslida qofiyadosh so'zlarda ohangdoshlikni yuzaga keltirmasa ham, olim aytmoqchi "luzum mo lo yalzum" qiladilar.

*Sarv desam qaddini, sarv uzra kim ko'rdi samar,
Qaddig'a qulluq uchun bog'ladi belga ne kamar.*

*Zulfichinda ko'rgali yuzungni burur mehr ila,
Har kecha to subh eshikinda asos yanglig' qamar.*

Baytdagi qofiyadosh *samar - kamar - qamar* so'zlaridagi "ro" harfi raviy bo'lsa, "mim" harfi iltizom qilingan harf sanaladi. Qolgan baytlarda "mim" harfi keltirilmasa ham, ya'ni *guzar - zarar* so'zlari ham yuqoridagi qofiyadosh so'zlarga qofiyadosh sifatida olinadi. Yoki:

*Xayli baxman rasidu botil kard,
Tobi xurshidu quvvati garmo.*

*Obro taxtaband kard zavol,
Shoxho kard jomho yag'mo.*

Ushbu baytdagi *garmo - yag'mo* so'zlaridagi alif (o) raviy bo'lib, "mim" iltizom qilingan harfdir. "Mim" keltirilmasa ham, *paydo*

– *daryo* – *anqo* soʻzlari yuqoridagi soʻzlar bilan oʻzaro qofiyadosh boʻlishi mumkin. Ahmad Taroziy bu holatni arab shuarosida eʼnot deyilishini aytadi. Mumtoz poetika ilmiga oid risolalarda ayni xususiyatga ega qofiyadosh soʻzlarning kelishi eʼnot sanʼati sifatida keltiriladi [Roziy 1997, 83-144; Husayniy 1981, 45].

Faxri Isfahoniyning “Meʼyor ul-jamoli” asarida qofiyaning 9 harfi taʼrifi ancha keng va mukammal keltiriladi [Isfahoniy 1337, 8-9]. Abdurahmon Jomiyning “Risolai qofiya” asarining 3-fasli qofiya harflari (hurufi qofiya)ga bagʻishlangan boʻlib, Jomiy qofiyaning 9 harfini sheʼr shaklida tushuntiradi.

*Raviy-u ridf-u dilgar qayd-u baʼd az on taʼsis,
Daxil-u vasl-u xuruj-u mazid-u noira don.*

*Yaʼniki Raviy-u, ridf-u, yana qayd undan soʼngra taʼsis,
Daxil-u vasl-u xuruj-u mazid-u noiradir bil* [Jomiy 2009, 302].

Vohid Tabriziy qofiya harflari va harakatlarini “Qofiya harflari roʻyxati” sarlavhasi ostida izohlaydi. Bu qismda qofiya harf va harakatlarining nazariy asoslari keltiriladi, qofiyadosh soʻzlar asosida tushuntiriladi. “Qofiya harflari va harakatlarini tushuntirish uchun misollar” sarlavhasi ostida esa qofiya tarkibidagi huruf va harakatlar baytlar misolida izohlanadi [Tabriziy 1959, 78-86].

Atoullloh Husayniyning “Risolai qofiya” asarining 2-qismi qofiya harflariga bagʻishlangan. Olim boshqa risolalarda keltirilgani kabi qofiya harflarining 9 tasini izohlaydi. Qofiya harflari soni borasida Nosiriddin Tusiy bilan munozaraga kirishadi. Maʼlumki, Tusiy qofiya harflarini 5 ta ekanligini taʼkidlaydi: raviy, ridf, birlik raviy, mazoʼaf, vasl, xuruj. Atoullloh Husayniy Tusiyning bu munosabati fors-tojik adabiyotigagina tegishli ekanligini aytadi.

Risolalarning aksariyatida qofiya harf va harakatlarining nomi maxsus sheʼr shakliga solingan holda taqdim qilinadi. Atoullloh Husayniy ham qofiyaning 9 harfi nomi va oʻrni keltirilgan sheʼr keltiradi:

*Qofiya dar asl yak raf ast hasht-u ro tabaʼ,
Chor pesh-u, chor pas, chun nuqtai onho doira.*

*Harf taʼsis-u daxil-u ridf-u qayd onga raviy,
Baʼd az on vasl-u xuruj ast va mazid-u noira*

[Husayniy 1393, 35].

Raviy

Raviy qofiya tarkibidagi tirkak tovush boʻlib, qofiyadosh

so'zlarni ulab turuvchi asosiy harfdir. Qofiya harflarining 4 tasi raviydan oldin, to'rttasi raviydan keyin joylashadi. Manbalarning aksariyatida qofiya harflari orasida raviy birinchilardan bo'lib, izohlanadi. Abu Abdulloh Xorazmiy "raviy qasida qofiyasi tuziladigan harf, shoirning "famuqamuha" so'zidagi mim harfidir" deb izohlaydi. Demak, Xorazmiy qofiyali so'zni tuzadigan asosiy harf sifatida raviyni ko'rsatadi.

Shamsiddin Qays Roziy qofiya harflari orasidan raviy harfi ta'rifi va qofiyadosh so'z tarkibida qo'llanish o'rinlari, tartibi borasida to'liq va keng ma'lumotni taqdim qiladi. Raviy qofiya asosidagi eng oxirgi harf bo'lib, "arqon" singari tuyalarni (qofiyadosh so'zlarni) bir-biriga bog'laydi [Roziy 1997, 83].

Ey nargis, bar xumor tu *mast*.

Misradagi *mast* so'zi qofiyadosh so'z sifatida keltirilib, "to" (t) harfi raviy sanaladi. Qays Roziy so'z oxiridagi har qanday tovush – harf ham raviy bo'lolmasligini ta'kidlaydi. Masalan, "hoi havvaz" (ه) harfi خند – xanda (kulgi), گريه – girya (yig'lamoq), نامه – noma so'zlarida h harfini emas, harakatdagi a unlisini ifodalagani uchun ham raviy bo'la olmaydi. Aksincha keyinchalik asosi tarkibiga birikkan (yasalish qonuniyati asosida) so'zlardagi harflar asos bilan bir butunlik hosil qilgani uchun raviy harfi sifatida qabul qilinadi. Masalan, رنجور - *ranjur*, مزدور – *mazdur* so'zlaridagi r undoshi, دانا – *dono*, بينا – *biyno* so'zlaridagi o (alif), دانشمند – *donishmand* va خداوند *xudovand* so'zlaridagi dol (d) harfi raviy sifatida olinadi [Roziy 1997, 84].

Qays Roziy "Al-mo'jam"da asos oxirida kela oladigan fors harflarini alifbo tartibida ketma-ket taqdim qiladi. Olim bu tartibni harflarning asosga qay tarzda qo'shilishi va o'rni, qanday ma'no anglatishini birma-bir berib o'tadi. Agar shunday qilinsa, misra oxiridagi harf nima maqsadda qo'shilganini bilish, raviy sifatida qabul qilinish-qilinmasligida adashilmaslik mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan, alif (ا) harfi haqida to'xtalganda, bu harf so'zlar oxirida murojaat, e'tibor (1) mazmunini: خداوندا – *Xudovando*, شاه – *shoho*; taqsimlash (2) mazmunini: اورا – *uro (unga)*, شمارا – *shumoro* (sizga); ko'plik (3) ma'nosini ifodalaydi: زرها – *zarho (oltinlar)*, گوهرها – *guvharho(gavharlar)*.

Raviyning o'rni qat'iy, u, albatta, so'zning oxirida joylashishi kerak. Har qanday she'riy shaklda qofiya bormi, demak, raviy bor. *Zarb – salb* so'zlari qofiyadosh so'zlar sanalsa, ularni ushlab turuvchi birlamchi harf "bo" harfi raviy sanaladi. Yoki *jumal – Zuhal* so'zlari o'zaro qofiyadosh so'zlar sifatida keltirilsa, ulardagi oxirgi tirkak tovush sifatida "lom" harfi raviy vazifasini bajargan [Tusiy

1325, 110].

Qofiyadosh soʻzda raviy boʻlmasa, soʻzning maʼnosi boʻlmaydi. Shamsiddin Qays Roziy va Vohid Tabriziy ham aynan shu taʼrifni keltiradi.

Har ki joʻyad nishoni fazlu karam,

Har ki dorad umri molu naʼam,

Lavhi naʼbi zamiri naqsh kunand

Muddao soniy shohu ajam. [Isfahoniy h.1337, 8-9].

Misralardagi qofiyadosh soʻzlar sifatida *karam*, *naʼam*, *ajam* soʻzlari ishtirok etgan boʻlib, “mim” (m) harfi raviy sanaladi. Asosiy ohangdoshlikni hosil qilib turgan “mim” harfi boʻlmasa, tabiiyki, soʻz maʼnosini yoʻqotadi. N.Tusiy raviyni ikki guruhga boʻladi:

1. Raviyi mufrad, yaʼni oddiy (yakka) raviy.

2. Raviyi muzoʻaf, yaʼni murakkab raviy.

Atoullah Husayniy Tusiyning bu fikriga qoʻshilmaydi. Chunki raviy oʻzgarmas, bir harfdan iborat boʻlishi kerakligini aytib, barcha qofiyadosh soʻzlarda raviy bitta boʻlishiga ishora qiladi. Raviy bir soʻzdan iborat boʻlsa, oddiy raviy sifatida baholanadi: خدا - *rido* - ردا. *Xudo* soʻzlaridagi o (“alif”). Raviyning muzoʻaf shakli ikki harfdan iborat boʻlishi aytiladi. Nosiriddin Tusiy ikki harfdan iborat raviyni murdof qofiya deyilishini taʼkidlaydi. Raviyi muzoʻaf maʼdudli harfdan iborat boʻlishi kerakligi aytiladi. Demak, Tusiy sukunli holatdagi ridf va qofiyadosh soʻz soʻngidagi(asos) harfni birgalikda raviy sifatida olinishiga ishora qilyapti.

Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogʻa” asarida ham dastlabki sharh raviydan boshlanadi [Taroziy 2016, 60]. Qofiya harflari orasida raviy qofiya tarkibidagi doimiy uchraydigan harfdir. Qolgan huruf qofiya tarkibida uchrashi, baʼzan uchramasligi mumkin. Ahmad Taroziy raviydan boshqa huruf qofiyadan “guzir”(tashqarida) ekanlini taʼkidlaydi. Olim taʼkidlaganidek, “qofiyaning asli raviy”dir. Ahmad Taroziy raviy qofiya tarkibida keluvchi, oʻzaro bir xil tovush ekanligini taʼkidlab, *sanam* va *manam* soʻzlarini namuna sifatida keltiradi. *Sanam* va *manam* soʻzlaridagi “mim” (m harfi) raviy sanaladi. Raviy misra oxirida baʼzan sokin, baʼzan mutaharrik (harakatli) tarzda boʻladi. Ahmad Taroziy raviyning bu ikki shakliga alohida misol keltirib, qofiya turlarini belgilab beradi. Agar raviy sokin boʻlsa, muqayyad, agar raviy mutaharrik boʻlsa, mutlaq qofiya sifatida baholanadi:

Suyulur koʻrsa lablaringni shakar,

Rashk olur koʻrsa oy yuzungni qamar.

Ushbu baytda qofiya sifatida *shakar* – *qamar* soʻzlari keltiriladi. Qofiyadosh soʻzlardagi raviy “ro” (r harfi) harfidir. Qofiyadosh soʻzlar raviy (r) bilan tugagan, demak, bunday qofiya muqayyad qofiya sifatida baholanadi. Ayni shu oʻrinda Ahmad Taroziy Xoja Kamoldan bir bayt keltiradi. Bu baytdagi qofiyadosh soʻzlarning oxiri sukunli raviy bilan tugagan, shu bois ham bunday qofiya muqayyad (kishanli) qofiya sifatida tushuntiriladi:

Man talab kardam visolat roʻzu shab,
Yoftam iynak ba hukmi man talab.

Ahmad Taroziy mutaharrik raviy bilan tugagan qofiyaga quyidagi baytni namuna sifatida keltiradi:

Ey labingdin xijil Misr shakari
Koʻrsa seni netar falak qamari

Ushbu baytdagi *shakar* – *qamar* soʻzlaridagi “ro” harfi raviy sifatida baholanadi. Ayni qofiyada “ro” harfi kasra - i harakati bilan birga kelgani bois bunday qofiya mutlaq qofiya sanaladi. Bunday qofiya turiga namuna sifatida Mavlono Umid Kamoliyning

Zulfi nigor guftki, man az qir chanbaram,
Shabi surati shibhi sifat mushk paykaram.

misralarini keltiradi. Baytdagi *chanbaram* - *paykaram* qofiyadosh soʻzlaridagi “ro” harfi raviy sanalsa, raviy mutaharrik tarzda kelgan. Demak, olim qofiya turini belgilashda raviyning oʻrni katta ekanligini koʻrsatib beradi.

Jomiy ham raviyni soʻz asosidagi soʻnggi harf sifatida baholab, “lom” (l) harfi raviy boʻlib kelgan baytni namuna sifatida keltiradi:

Dar azal naqshi tu bar taxtai gul didai dil,
Didu noi dili bechora furoʻraft ba gil.

Yusuf Aziziy raviyga “qofiya tarkibidagi asosiy harf, qofiyasiz sheʼr boʻlmaganidek, raviysiz qofiya ham boʻlmaydi. Qofiyaning boshqa harflaridan farqli oʻlaroq raviy qofiya tarkibida boʻlishi shart” deb taʼrif beradi.

Atoulloh Husayniyning “Risolai qofiya” asarida raviyga keng va atroflicha taʼrif beriladi. “Raviy – bir-biriga oʻxshash (ohangdosh) soʻzlar asosidagi eng oxirgi oʻxshash harf boʻlib, shoir shu harfning sifatiga qarab qofiyani yuzaga keltiradi, qofiya aniqlanadi”. Husayniy raviy soʻzining etimologiyasiga toʻxtaladi. Olim Shamsiddin Qays Roziy singari raviyning bir qancha holatlarini taqdim qiladi. Aynan asos tarkibida keluvchi raviy sifatida *faryodam* – *ozodam* soʻzlaridagi

“dol” (d) harfini ko‘rsatadi. Raviyning keyingi holati raviy vazifasini bajaruvchi bir qancha harflar turkumining kelishi bilan izohlanadi. Bu harflar birikma tarzda asos tarkibida yaxlitlanishi, uning bir qismi vazifasida kelishi tushuntiriladi. Atoullah Husayniy ham Qays Roziy keltirgan so‘zlarni namuna tarzida keltiradi: رنجور - *ranjur*, مزدور - *mazdur* so‘zlaridagi “ro” undoshi, دانا - *dano*, بينا - *biyno* so‘zlaridagi o (alif), دانشمند - *donishmand* va خداوند *xazovand* so‘zlaridagi “dol” (d) harfi.

Ba‘zan shoirlar harflarni qofiyani ta‘minlash maqsadi bilan rasman raviy sifatida taqdim etadilar. *Ham, marham, g‘am, zanam* so‘zlaridagi “mim” harfi raviy sifatida olingan. Aslida *zanam* so‘zidagi “mim” boshqa so‘zlar bilan qofiyadosh qilish maqsadi bilan keltirilgan.

Ta‘sis

Mumtoz poetikaga oid risolalarning aksariyatida ta‘sis “alif” (o) harfi bilan ifodalanishi aytiladi. “Al-Mo‘jam”, “Me‘yor ul-ash‘or”, “Me‘yor ul-jamoli”, “Risolai qofiya”, Husayniyning “Risolai qofiya” asarida ta‘sis sifatida alif harfi kelishi aytiladi. Ta‘sis raviydan oldin keluvchi harf sanaladi. Raviydan oldingi bir mutaharrik harfdan oldingi o unlisi (alif) ta‘sis harfi sifatida keltiriladi. Masalan, *mohir - zohir, oshiq - muvofiq, rohat - g‘orat* so‘zlaridagi o unlisi ta‘sis sanaladi. Abu Abdulloh Xorazmiy ta‘sisni *fa‘al* so‘zidagi “alif” ekanligini aytadi. Qays Roziy ta‘sis harfi qofiyaning asosi ekanligini ta‘kidlaydi. *Ta‘sis* so‘zining mohiyati ham “asos” degan ma‘noni anglatadi. Ta‘sis qofiyaning chegarasi sanaladi. Ta‘sisdan oldin joylashuvchi harflar qofiya bilan aloqa qilmaydi. Ya‘ni eng oxirgi ulanish sifatida ta‘sis harfi ohangni (qofiya) yuzaga keltiradi. Faxri Isfahoniy ham ta‘sisdan oldingi huruf raviy bilan, qofiya bilan aloqa qilmasligini aytadi [Isfahoniy 1337, 62]. Demak, ohangdorlikni ta‘minlab beruvchi oxirgi chegara sifatida ta‘sis harfi belgilanadi.

Qays Roziy ko‘p ajam (fors) shoirlari ta‘sis harfini bilmasliklarini, qofiyada uning ishtiroki muhim emas deb hisoblashlarini ta‘kidlaydi. Nosiriddin Tusiy va Faxri Isfahoniy ham ajam shoiri ta‘sisga e‘tibor qilmasliklarini aytadilar. Biroq Abdurahmon Jomiy “Risolai qofiya” asarida “ajam shuarosi arab shuarosiga xilof ravishda ta‘sisni nafaqat zarur, balki tahsinga sazovor hisoblash”ini aytadi [Jomiy 2009, 304]:

*Falak dar soya bar havosil,
Zamin ro bar to‘ti kard hqsil* [Roziy 1997, 138].

Berilgan baytdagi qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi ta‘sis to‘liq

qo'llangan, ohangdoshlikni hosil qilishda asosiy vazifani bajargan. Asarda keyingi namunalar sifatida ajam shoirlarining ta'sisga u qadar e'tiborli emasliklari aks etgan baytlar keltiriladi:

*Ki ro doni tu andar kuli olam,
Jinu farzonayi maqbuli muqbil.*

Faxri Isfahoniy ham *oqil*, *g'ofil*, *muqbil* so'zlari qofiyadosh so'z sifatida keltirilgan baytlarni tahlilga tortadi. *Oqil*, *g'ofil* so'zlaridagi ta'sisning o'rne va qo'llanishi aniq, biroq bu so'zlarga qofiyadosh so'z sifatida keltirilgan *muqbil* so'zida ta'sis mavjud emas. Isfahoniy "ba'zan lozim bo'lmasa ham, lozim ko'riladi" (*luzum ma la yalzam*) shaklida *muqbil* so'zini qofiyadosh so'z sifatida keltirilganini aytadi. Demak, agar shoir shu so'zni qofiyadosh so'z sifatida keltirishni lozim ko'rsa, keltiraveradi:

*Bu juz madhu sanoe shohe odil,
Suxan hargiz nago'yad mard oqil.
Agar olam musaxxar kard nashguft,
Kil alhaq ham javonbaxt ast muqbil.*

Vohid Tabriziy ham ta'sis sifatida keltiriladigan bu ikki holatga munosabat bildiradi [Tabriziy 1959, 78]. *Oqil* va *johil* so'zlari qofiyadosh so'z sanalsa, o (alif) harfi ta'sisdir. Arab adabiyoti nazariyasiga ko'ra *oqil* – *johil* so'zlariga qofiyadosh so'z sifatida *muqbil* va *mushkil* so'zlari keltirilsa, bu xato hisoblanadi. Matla'da o (alif) harfi ta'sis sifatida keltirilsa, she'rda boshdan oyoq shu qofiyadoshlikka rioya qilinishi shart. Ajam she'riyatida esa bu xatolik sanalmaydi. *Oqil* va *johil* so'zlari bilan *muqbil* va *mushkil* so'zlari she'r misralarida qofiyadosh so'z sifatida ishlatilaveradi. Faxri Isfahoniy ta'sis va daxilning mavjudligi she'rga ziynat bag'ishlashini aytadi.

*Zahi diydori tu fole saodat,
Tu ro me zibat oyine sayodat* [Isfahoniy 1337, 57].

Keltirilgan baytdagi "te" harfi raviy sanalsa, "dol" harakatli undoshi daxil bo'lib, daxildan oldingi o (alif) ta'sisdir.

Nosiriddin Tusiy ham raviydan oldingi bir mutaharrik harfdan oldingi alifni ta'sis ekanligini ta'kidlaydi. Namuna tarzida *homil* – *johil* so'zlarini keltiradi. Demak, "lom" raviy bo'lsa, bir mutharrik harf sifatida "mim" va "he" harfi daxil, o (alif) ta'sis sanaladi [Tusiy h.1325, 110].

"Funun ul-balog'a" muallifi Ahmad Taroziy ta'sisga "to'qquz hurufning og'ozi" deya ta'rif beradi. "Funun ul-balog'a"da qofiya

harflari tartibi boshqa risolalarga nisbatan farqli. Mavjud arabiy, forsiy risolalarda raviydan keyingi qofiya harfi sifatida ta'sis izohlansa, Ahmad Taroziy ta'sisni qofiya harflarining so'ngisi sifatida keltiradi. Olim alifdan boshqa harf ta'sis bo'la olmasligini ta'kidlab, *olim – hokim* so'zlari misolida tushuntiradi:

*Chun senda bor, ey hur, chenin shaklu shamoyil,
Vallohki, pari ko'rsa bo'lur jon bila moyil.*

Ushbu baytdagi o unlisi (alif) ta'sis bo'lsa, "yo" (y) harfi daxil, "lom" (l) harfi raviy sanaladi. Taroziy ta'sisning ikki turini keltiradi: 1. Muttasil 2. Munfasil. Ta'sisning muttasil turida "alif" bir so'z tarkibida keladi, ya'ni *oqil* so'zidagi o unlisi kabi. Ta'sisning munfasil turida "alif" ikki so'z tarkibida keladi: *daryodil* so'zidagi o unlisi kabi.

Arab va ajam shoirlari o'rtasida ta'sisga munosabat turlicha bo'lib, arab shoirlari g'azal qofiyasida ta'sisning muttasil turini ishlatishsa, boshdan oxir shu qofiya tizimiga amal qiladilar. Agar ta'sisning munfasil turidan foydalanishsa, bu qoida qat'iy emas, ya'ni ta'sisning muttasil va munfasil turlari qofiyadosh so'z tarkibida kelishiga ruxsat bor. Biroq fors shoirlari ta'sis harfiga u qadar e'tibor bermaganliklari bois bu xoh muttasil, xoh munfasil bo'lsin, uning ishtirokiga to'liq amal qilmaganlar. Biroq "asar mussahoning ittifoqida ta'sisning a'moli shart" bo'lishi kerak. Chunki chindan ta'sis she'rga ziynat beradi. Ahmad Taroziy qofiyadosh so'zlar tarkibida qofiya harflarining o'zaro birikib kela olish imkoniyatini ko'rsatish maqsadida maxsus qism tartib bergan. "Fasl" sarlavhasi ostida keltirilgan bu qismda ta'sisning boshqa harflar bilan birika olishini ko'rsatib bergan:

1. Ta'sis, daxil, qayd, va raviy: *monand – xishovand*.

Keltirilgan qofiyadosh so'zlarda qayd, ta'sis, daxil harflarining xususiyatlari buzilmagan. Ya'ni raviydan oldin turuvchi sukunli harf – qayd, bir mutaharrik harf – daxil, mutaharrik harfdan oldingi "alif" (o) – ta'sis. Biroq ta'sis qoidasiga ko'ra bir mutaharrik harf raviydan oldin turishi kerak. Ular orasida sukunli undoshning ishtiroki manbalarda keltirilmagan. "Funun ul-balog'a" muallifi qofiyaning chegarasi sifatida ta'sis belgilangani bois ta'sisga qadar bo'lgan jarayonni tahlilga tortgan.

2. Ta'sis, daxil, ridf, raviy: *homun – qonun*.

Homun – qonun qofiyadosh so'zlardagi "nun" – raviy, "vov" (u) – ridf, harakatli "mim" – daxil, "alif" (o) – ta'sis.

3. Ta'sis, daxil, ridf, qayd, raviy: *omuxt – vosuxt* [Taroziy 2016, 70].

Ahmad Taroziy qofiyadosh so'zlar sifatida keltirgan *omuxt* -

vosuxt soʻzlaridagi “te” harfi – raviy, “xe” harfi – qayd, “vov” (choʻziq u unlisi) – ridf, harakatli “sin” – daxil, “alif” (o unlisi) – taʼsis sanaladi.

Abdurahmon Jomiy ham “alif” harfi taʼsis sanalishini taʼsis va raviy oʻrtasida bir mutaharrik harf vosita boʻlishini taʼkidlaydi:

Ey on ki lof mezany z dil, ki oshiq ast.

Toʻby lak, ar zaboni tu bo dil muvofiq ast. Kamol Isfahoniy.

Misradagi *oshiq* – *muvofiq* soʻzlaridagi o (alif) taʼsis sanaladi.

Atoullloh Husayniy keltirgan taʼrif ham boshqa risola mualliflari taʼrifi bilan aynan: mutaharrik harf taʼsis va raviy oʻrtasida vosita boʻladi, asosan “alif” – o unlisi taʼsis vazifasini bajara oladi:

Nadoram davr az on xurshedi xovar,

Bajuz xili xiyolash yor-u yovar [Husayniy 1393, 48].

Daxil

Qofiya harflari orasida daxil taʼsis harfi bilan uzviy bogʻliq sanaladi. Tabiiyki, daxil ham raviydan oldin keluvchi harf sanaladi. Daxil “kiritilgan” degan maʼnoni anglatib, ikki majburiy harf: raviy va taʼsis oʻrtasida keladi. Shams Qays Roziy va Atoullloh Husayniy bu harfni ikki harf oʻrtasida “yopib qoʻyilgani” uchun harfi *xayil* sifatida ham nomlashadi. Daxil taʼsis bilan bogʻliq boʻlgani uchun ham Abu Abdulloh Xorazmiy bu harfni alohida izohlab oʻtirmagan. “Ichki harf” sifatida baholangan daxil taʼsis bilan birga keladi [Roziy 1997, 374]. *Oqil* va *johil* soʻzlaridagi taʼsis (o – “alif”) va raviy (“lom”) oʻrtasidagi bir harakatli harf (“qof” va “he”) daxil sanaladi. Qofiyadosh soʻzlaridagi daxil oʻzaro bir xil harf boʻlishi shart emas [Roziy 1997, 139 Biroq daxil harfining bir xil harf holati qofiya mukammalligini taʼminlab beradi. Daxil harfining ishtiroki sheʼr ohangdorligini taʼminlab beradi [Isfahoniy 1337, 63 // Husayniy h.1393, 35]

Nosiriddin Tusiy daxilni taʼsis bilan bir butunlikda tushuntiradi. Taʼsis sifatida keltirgan *homil* va *johil* soʻzlaridagi “mim” va “he” harflarini daxil sifatida izohlaydi [Tusiy 1325, 110].. “Funun ul-balogʻa”da ham daxilning oʻzaro har xil harf shaklida boʻlishi aytiladi.

Ey boʻldi sening shaʼninga husn oyati nozil,

Yoʻqtur parivu hurda bu shaklu shamoyil.

Misralardagi qofiyadosh *nozil* – *shamoyil* soʻzlaridagi “ze” (z) va “yo” (y) harflari daxil sanaladi.

Ey zoti tu bo zuhuri olam,

Chun xilqati Mustafovu Odam.

Jomiyning “Risolai qofiya” asarida daxilga qisqa ta’rif berilgan. Ta’sis va raviy o’rtasida “voqi’ bo’lgan” bir mutaharrik harf daxil ekanligi ta’sis izohida keltirilgan bayt asosida tushuntirilgan [Jomiy 2009, 305].

Demak, *oshiq* va *muvofoiq* so’zlaridagi “shin” va “fe” harflari daxil sanaladi. Vohid Tabriziy ham daxilni ta’sis ta’rifida izohlab o’tadi. *Oqil* va *johil* so’zlaridagi “qof” va “he” harflari daxil ekanligini ta’kidlaydi.

Atoulloh Husayniy daxil o’zaro bir xil – takror bo’lishi ajam shoirlari tomonidan qabul qilinmaganini aytadi. Ta’sis faqat “alif”-dan iborat bo’lishi shart qilib belgilangan bo’lsa, raviy va ta’sis o’rtasidagi mutaharrik harfning aynan bir xil harf shaklida bo’lishi qat’iy qilib belgilanmagan.

Qayd

Qofiya harflari orasida qayd raviydan oldin keladigan harflar sirasiga kiradi. “Kishanlangan” degan ma’noni anglatuvchi qayd harfi risolalarda undosh harf shaklida bo’lishi aytiladi. Boshqa harflar o’zgarsa ham, qaydning qofiyadosh so’zlar tarkibida bir xil harfdan iborat bo’lishi sabab raviyga kishanlangan ma’nosida “qayd” nomi bilan atalgan [Husayniy 1393, 42].

Shamsiddin Qays Roziy raviydan oldingi sukunli harf qayd sanalishini aytadi. Olim bu o’rinda cho’ziq unililarni bundan mustasno ekanligini ta’kidlaydi. Qayd sifatida kela oladigan 10 harf risolalarda misollar asosida keltiriladi:

“Bo” (b) - ابر (abr) – کبر – (kabr)

“Xe” (x) – بخت (baxt) – رخت (raxt)

“Re” (r) – سرد (sard) – ذرد (zard)

“Ze” (z) – دزد (duzd) – مزد (muzd)

“Sin” (s) – مست (mast) - دست (dast)

“Shin” (sh) – دشت (dasht) – تشت (tasht)

“G’ayn” (g’) – نغز (nag’z) – مغز (mag’z)

“Fe” (f) – رفت (raft) – کفت (kaft)

“Nun” (n) – بند (band) – کمند (kamand)

“Hoyi havvaz” (h) – مهر (mehr) – چهر (chehr)

Shams Qays Roziy bu o’n harf qayd sifatida kelishini qat’iy qoida sifatida keltiradi. Abdurahmon Jomiy ham ajam olimlari orasida o’nta harfning qayd sifatida kela olishini ta’kidlaydi.

Gar hurufi qaydro girand yod,

Nest dar lafzi Ajam az dah ziyod.

“Bo”u “xo”u “ro”vu “zo”vu “sin”u “shin”,

“G‘ayn”u “fo”vu “nun”u “ho” boshad yaqin [Jomiy 2009, 304].

Atoullloh Husayniy bu 10 harfning qat‘iy belgilanishi faqat-gina fors adabiyotida tegishli ekanligini ta’kidlab, arab adabiyotida bu harflar soni ko‘p ekanligiga ishora qiladi.

*Abr-u taxt-u dard-u bazm-u mast-u gash*t,
Nag‘z-u guft-u pand-u gulchehr-u xush ast.

Atoullloh Husayniy xoh fors-tojik, xoh arab adabiyotida bo‘lsin, qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi qaydning bir xil harfdan iborat bo‘lishini qat‘iy qoida sifatida keltiradi:

*Chi Misr-u chi Shom-u chi bar-u chi bah*r,
*Hama rustoyand-u Sheroz shah*r [Husayniy 1393, 43].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Al-mo‘jam”da keltirilgan adabiy parchalarning aksariyati boshqa risolalarda ham keltiriladi.

Ahmad Taroziy “ba‘zilar” qayd sifatida belgilangan o‘n harf orasida “ayn”ni ham keltirishlarini aytadi. Ahmad Taroziy poetika ilmiga oid asar va mualliflar nomlarini keltirmaydi. “Ba‘zilar” izohi ostida ularga murojaat qiladi. Ayn”ning qayd sifatidagi ishtirokini *ma‘z – na‘z* so‘zlari misolida tushuntiradi. Taroziy ajam olimlari tomonidan qat‘iy qilib belgilangan 10 harfninggina qayd sifatida kela olishi nazariy jihatdan noto‘g‘ri ekanligini isbotlab beradi. Agar qofiya arab so‘zlaridan tashkil topsa, bu o‘n harfdan tashqari boshqa harflar ham qayd sifatida kela olishi mumkin: *atr – satr, majd – najd, taxt – bax*t, *sadr – badr, asr – qasr, sa‘d – ra‘d, aqd – naqd, qalb – kalb, naml – haml, firdavs – qavs, Vays – Qays* [Taroziy 2016, 66].

Qofiya harflari orasida qayd va ridfning o‘rni bir xil: ular raviydan oldin joylashadilar. Shuning uchun ham bu ikki harf nazariyasida ixtiloflar mavjud. Qofiya nazariyasiga ko‘ra asosan undosh harflar qayd sifatida kela oladi. Demak, qaydni ridfdan farqlash kerak bo‘ladi. “Vov” harfi قوس (qavs) – فردوس (firda(u) vs), “yo” harfi قيس (qays) – كيس (kays). Arabiy so‘zlarda bu holat juda ko‘p uchraydi. Qays Roziy fors tilidagi so‘zlarda ham “vov” va “yo” harfining bu shaklini kuzatish mumkinligini, biroq ular ko‘p emasligini, نوك (navk) va پيك (payk) so‘zlaridan boshqa namuna topa olmaganini aytadi:

*Har vazir va mufti va shoir ki Tu(v)s*iy bud,
*Javn Nizom ul-Mulk, G‘azzoliy va Firdavs*iy bud.

Demak, “vov-i mazmum”, “yoy-i maqsur”, “alif-i maftuh” ridf emas, qayd sanaladi. Bugungi o‘zbek yozuvi holatida tushuntirsak, cho‘ziq unli sifatida o‘qiladigan holatda (“vov” – u, “yo” – i, “alif” –

o) bu harf ridf sanaladi. Undosh harf holatida (“vov-i mazmum” - v, “yoy-i maqsur” – y) bo’lsa, qayd sanaladi. Vov-i mazmum - firdays, yoy-i maqsur – payk.

Vohid Tabriziy ham qayd va ridfni taqqoslagan holda tushuntiradi. Qayd ridf bilan bir o’rinda turadi. Biroq ikkilasi bir vaqtning o’zida ishtirok etolmaydi. Tabriziy *mard – dard, qand – chand* so’zlaridagi “nun” harfini qayd, *qon – jon, chin – din* so’zlaridagi “alif” va “yo” harflarini ridf sifatida taqdim qiladi [Tabriziy 1959, 79].

Daxildan farqli o’laroq qayd qofiyadosh so’zlarda bir xil harfdan iborat bo’lishi shart. Atoulloh Husayniy arab va ajam shuarosida ham she’r so’ngiga qadar qaydning qofiyadosh so’zlarda bir xil bo’lishi shartligini va talaffuzidagina biroz farqli jihatlar mavjud bo’lgan harflarning qayd sifatida kelishi arab va ajam shuarolari tomonidan ham qabul qilinganini ta’kidlaydi..

Je kaft on Xudovand Tinziylu vahy (وحى)

Xudovand amr-u Xudovand nahy (نهى) [Roziy 1997, 90].

Atoulloh Husayniyda ham shunga juda o’xshash bayt keltiriladi. Unda ham *vahy* (وحى) - *nahy* (نهى) so’zlaridagi “he” va “hoi havvaz” qayd sifatida taqdim qilinadi.

Faxri Isfahoniy boshqa olimlardan farqli zarurat tug’ilganda qayd turli harflar bilan ifodalanishi mumkinligini aytadi.

Bololai so’rxı bo gule marmari,

Navro’ze dar imdoe Manucheħri.

Murg’one zabon giriftaro,

Beksho zaboni suri abri.

Ridf

Ridf ham raviydan oldin keluvchi qofiya harfi bo’lib, “orqasida turish” degan ma’noni anglatadi. Ridf raviydan oldingi cho’ziq unli bo’lib, o, u, i unllari ridf sifatida kela oladi. Bu uch unlining qayddan farqi shundaki, “alif”, “vov” va “yo” harflari madd bilan birga keladi.

Shamsiddin Qays Roziy fors tilida zamma (“vov”), kasra (“yo”)ning ikki shaklini taqdim qiladi. Birinchisi mashba’a, ya’ni to’liq, ikkinchisi qisman yoki yumshatilgan. “Vov” harfining to’liq shaklda cho’ziq u harfini ifodalay olishi حور (*hur*) – سور (*sur*) so’zlarida ko’zga tashlansa, qisman yumshatilgan shaklida o’ harfiga monand talaffuz qilinadi: روز (*ro’z*). Qays Roziy kasra (“yo”) harfining ham to’liq va yumshatilgan shakli borligini aytadi. To’liq shakli sifatida زنجبیل (*zanjabil*) so’zini yumshatilgan shakli sifatida دیر (*dir*) so’zini misol sifatida keltiradi [Roziy 1997, 128].

Qadimgi shoirlar bu ikki holatni alohida nomlar bilan keltirishgan. To'liq shakldagi "zamma" va "kasra marfu'-i ma'ruf" (ma'lum), yumshatilgan, to'liq bo'lmagan "zamma", "kasra marfu'-i majhul" (ma'lum bo'lmagan) nomi bilan atalgan. Faxri Isfahoniy ham bu ikki holatni alohida tahlilga tortgan, talaffuzdagi farqli holatni ma'lum va majhul, ya'ni ma'lum va ma'lum bo'lmagan izohi bilan *mash'aba (ma'ruf)* va *malifa (majhul)* nomi bilan keltiradi. "Yo" harfining ma'lum – *mash'aba (ma'ruf)* shakliga

*Har kiro baxti mushfiq astu hasip,
Boshad az jon g'ulomi shohe lahip,*

baytini, *malifa*, ya'ni majhul, tanilmagan shakliga

*Azu koh yoft ravnaqu zeb,
Az vujude shahe sitorae nahab*

baytini keltiradi. E'tibor berilsa, "yo" harfi *malifa – majhul* holatida ye harfiga monand talaffuz qilinadi. Isfahoniy ikki – ma'ruf va majhul "yo" harfi o'zaro qofiyadosh so'zlar sifatida keltirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Tabiiyki, bu farqli jihat talaffuzdagina ko'zga tashlanadi:

*Ba dil guftam tu bore ey dil nek-i
K-az man dur-i ba yor-i man nazdiki.
Dil go'ft ki bo daxan-u zulfash umrest,
Ta misozam ba tangi-vu toriki. Kamol Ismoil.*

Baytdagi *nik-i, nazdiki, toriki* qofiyadosh so'zlarning *nik-i (nek-i)* so'zi olim tomonidan "yo" – majhul, *nazdiki* va *toriki* so'zlari esa "yo"yi ma'ruf shakli sifatida keltiriladi.

Atoulloh Husayniy Faxri Isfahoniyning fikriga qo'shiladi. Husayniy fikrining isboti sifatida qadim fors shoirlari ijodiga murojaat qiladi. Ajam shuarolari aksariyati "vov-i ma'ruf" va "vov-i majhul"ni bir qofiyada jam' qilishga ruxsat berganlar. Biroq Jomiy bu fikrga qo'shilmaydi. "Ma'ruf deb shuni ayturlarki, "vov" va "yo"dan keyin kelgan "zamma" va "kasra" ishbo' tamom qilur, *nur – pir* singari. Majhul uldurki, bunda ishbo' tamom qilmaydir, *sho'r* va *sher* singari" [Jomiy 2009, 303].

Bir she'rda ma'ruf va majhulni hech qachon jam' qilmaydilar". Jomiy buning istisnosi tarzida Kamol Ismoilning baytini keltiradi. Ayni bayt "Me'yor ul-jamoli"da ham keltirilgan. Jomiy bunday istisno holat sifatida majhulning "yo" harfini arab so'zlarida imola qilish orqali ham jam' qilish mumkinligini aytadi:

To mohi ro'yat az man rux dar hijob dorad,

Ne dida xob dorad, ne dil shikēb dorad.

“Funun ul-balog‘a”da ham bu uch harfning ma‘ruf va majhul shakli alohida baytlar misolida tushuntiriladi. “Vov-i ma‘ruf”:

*Buzulg‘an bu mening ko‘nglumni ey hur,
Qil emdi bir tabassum birla ma‘mur.*

“Vov-i majhul”:

*Mako‘n bo oshiqoni zor xud zo‘r,
Sulaymonro chi faxr az kushtani sho‘r.*

“Yoy-i ma‘ruf”:

*Ey darig‘oki, kim mening holimni bilmadi habib,
Kim nelar qildi mening bu xasta jonimg‘a raqib.*

Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”da qofiya harflari ishtirokini forsiy va turkiycha baytlar misolida tushuntiradi. Aksar turkiy baytlar muallifning o‘ziga tegishli bo‘lib, “turkchasi” izohi bilan taqdim qiladi. Ahmad Taroziy ham “yoy-i majhul” va “yoy-i ma‘ruf”ni bir g‘azalda o‘zaro qofiyadosh so‘z sifatida keltirish xato ekanligini aytadi. Arab shoirlarida ularni qofiyadosh so‘z sifatida taqdim etish kuzatiladi. Ajam shoirlari orasida ham bu holat ko‘zga tashlanadi Ahmad Taroziyning fikricha, “bu yaxshi emas”:

*Xoja so‘zini qilibon e‘timod,
Kesti ajuz o‘z nimasidin umid. Mavlon Haydar.*

Ridf ifodalanishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi.

1. Ridfi asliy
2. Ridfi zoyid.

Ridfning *u*, *i*, va *o* unlilari bilan ifodalanishi ridfi asliyni yuzaga keltirsa, ular o‘rtasida bir undoshning orttirilishi ridfi zoyidga asos bo‘ladi. Atoulloh Husayniy bu ikki turni *murdaf ba ridfi mufrad* va *murdaf ba ridfi murakkab* shaklda nomlaydi. Ridfi asliyga asoslangan ridf ridfi mufrad (yolg‘iz ridfli), ridfi zoyidga asoslangan ridfni esa ridfi murakkab shaklda taqdim qiladi [Husayniy 1393, 44].

*Davr-u davronu amoni zamon,
Xisravi farmondihi kishvariston.*

*Sang ro az nolahoy zori dil pir xun kunam,
Dar dili on shuxi noyad rahmi amo chun kunam.*

*Chun bagulgasht bahoroni nozanin oyad burun,
Bahr popushash riyohin az zamin oyad burun.*

Atoulloh Husayniy ridfi asliy sifatida kela oladigan “alif” – o unlisi, “yo” – i unlisi, “vov” - u unlisi ishtirokidagi baytlarni namuna sifatida keltiradi. Olim ridfi asliydan so‘ng ridfi zoyidni keltiradi.

Jomiy ham ridfi zoyidga asoslangan qofiyani murakkab ridfli qofiya sifatida tanishtiradi:

Az baski tanam z-otashi ishqⁱ tu gudoxt,
Natvon tanam az sham'i sahar bozshinoxt.

Deyarli barcha risolalarda ridfi zoyid sifatida olti harfning kelishi aytiladi: “nun”, “re”, “sin”, “fe”, “xe”, “shin”

Ridfi zoyid shash buvad ay zu funun,
“Ho”-vu, “ro”-vu, “sin”-u, “shin”-u, “fo”-vu “nun”.

Ahmad Taroziy ham fors shuarosi tomonidan taqdim qilingan ridfi zoyidni hosil qiluvchi 6 hurufga qofiyadosh so‘zlardan namunalar keltiradi. Bu qofiyadosh so‘zlarning ba‘zisi ma‘muliyy, ya‘ni asl qofiya emasligini aytadi.

Shamsiddin Qays Roziy ridfi zoyidni qayddan farqlash qonuniyatlarini taqdim qiladi. Agar raviydan oldingi sukunli harfdan oldin cho‘ziq unli kelsa, bu harf ridfi zoyid sanaladi. Agar raviydan oldingi sukunli harfdan oldin “fatha”, “kasra”, “zamma” (harakat) – qisqa unli bo‘lsa, bunday holatda sukunli harf qayd sanaladi.

Vasl

Vasl raviydan keyin keluvchi qofiya harfi sanaladi. “Vasl” so‘zi *ulash*, *bog‘lash* degan ma‘noni anglatib, asos va asosdan keyingi harflarni bir-biriga ulovchi qism vazifasini bajaradi: *guli* – *muli* so‘zlaridagi *i* unlisi vasl sanaladi. Raviydan oldin keluvchi harflar o‘zaro ketma-ket joylashmaydi, biroq raviydan keyingi *vasl*, *xuruj*, *mazid*, *noyira* harflari uchun ketma-ketlik shart. Qofiya harflari orasida vaslning ahamiyati katta. Chunki vaslning ishtiroki qofiya turining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Muqayyad qofiya mutlaq qofiya turiga o‘tadi.

Arab she‘riyatida vasl sifatida kela olishi mumkin bo‘lgan besh harf sanaladi: “alif”, “vov”, “yo”, “nun”, “he”.

“Alif”:

Qafi qablat tafarrukei yo Sabo‘ha

“Ho”yi mutaharrik:

Iffati-d-diyoru mahalloho fa maqomaha

Bimani taabudi g‘avliho farxomaha

Fors shoirlari ham arab shuarosi singari asosan besh harfning

vasl sifatida kelishi mumkinligini ta'kidlashadi.

*Ey jamolingdin xijil firdavs bog'ining guli,
Tashnadur la'ling sifotin ichkali kavсар muli.*

Yuqoridagi baytda "lom" harfi raviy sanalsa, "yo" harfi vasl sanaladi.

Shamsiddin Qays Roziy vasl sifatida kela oladigan har bir harf holatiga qarab baytlardan namunalar keltiradi. "Kof":

*Dil beg'am taslim kardam man shudam nazorki,
To zi g'am sayr oyid u yo xun shud yakborki.*

"To" harfi II shaxs shakli sifatida vasl bo'lib kelgan:

*Ey ravshani ro'z zi tob ro'yat,
Toriki shab az shagin gisuyat.*

"Shin" harfi III shaxs shakli sifatida vasl harfi vazifasini bajargan:

*Ju ba xanda boz yobi asir dahan tinkash
Sadaf guvhar namoyad du lab aqiq rangash.*

"He" harfi ko'plik shakli holatida vasl harfi vazifasini bajargan:

*Ey az binafsha soxta bar gul misolho,
Bar oftob garda zi anbar hilolho* [Roziy 1997, 140-141].

Nosiriddin Tusiy vaslni qofiyadosh so'zning tarkibiy qismi sifatida berishga qarshi chiqadi. Olimning fikricha raviydan keyingi takrorlar, xususan, vasl radif tarkibida o'rganilishi kerak. Agar raviyga vasl mutaharrik harf vositasida ulanmasa, raviy sukunli holatda bo'lsa, raviydan keyingi harflar qofiya harflari sifatida o'rganilmaydi, ular radif sanaladi. Agar qofiya harflarini ulab turuvchi (vasl holatida) harakatlar ishtirok etsa, bu harflarni qofiya harflari sifatida taqdim qilish mumkin. Bunda olim raviydan keyingi harflarni qofiyadosh so'zlarga qo'shib yoki ajratib yozilishini ahamiyatsiz ekanligini ta'kidlaydi. Bu kalimalar xoh ma'no anglatmasin, xoh ma'no anglatmasin, ular qofiyaga ulanmagani uchun radif ekanligini ta'kidlaydi. Nosiriddin Tusiyning fikri so'zning tarkibiy qismi, radif va qofiya harflari qoidalariga tayanib, xulosa qilinadigan bo'lsa, to'g'ri. Ammo qofiya ilmiga oid risolalarda radif alohida so'z ekanligi aytilib, namuna sifatida keltirilgan radiflar odatda qofiyadosh so'zdan ajratib yozilgan.

Atulloh Husayniy radif va vaslning asosiy farqi sifatida so'zga qo'shilmadan alohida yozilishini ko'rsatadi. Radif qofiyadan

keyin keluvchi mustaqil soʻz, raviy qofiya tarkibidagi grammatik shakl sifatida qofiyadosh soʻz bilan bir butunlikda bir soʻz holida boʻladi. Husayniy Tusiy bilan bahsga kirishadi. “Meʼyor ul-ashʻor” muallifi asar soʻngida, harflar bahsida vaslning mutaharrik holatida ulanishi uni radifdan farqlab turuvchi belgisi sifatida koʻrsatadi. Quyidagi baytda “mim” va “shin”ni radif sifatida keltiradi:

Onki dar mardimak dida vatan soxtamash,

Qadri nashunosxt chu ashk az nazar andoxtamash

[Husayniy 1393, 44].

Atoulloh Husayniy bu sheʼr “usuli”iga toʻgʻri kelmasligini taʼkidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy vaslning xususiyati sifatida uning sukunli, yopiq boʻgʻin shaklida boʻlishini keltiradi.

Faxri Isfahoniy raviyga ulanuvchi asosiy unsur sifatida vaslni koʻrsatadi. Arab va fors shoirlari vaslga katta eʼtibor berishlarini, hatto vaslning harakati sifatida keluvchi ishboʻning farqli boʻlishini nuqson sifatida qabul qilishlarini taʼkidlaydi.

Agarchi gashta am dar har diyori,

Nadidam misli Xisrav Shahriyori

Jomiy vaslni raviydan keyin keluvchi harf sifatida taʼriflab, “mim” harfi misolida tushuntiradi.

Man ba boʻi tu havoxohi nasimi saharam,

K-oʻ zi boʻi tu xabar doradu man bexabaram.

Vohid Tabriziy vaslga raviyning izidan boruvchi harf deya taʼrif beradi: *saram* – *baram*. “Re” harfi raviy sanalsa, “mim” harfi vasldir.

Xuruj

Vasldan keyin keluvchi harf xuruj deb nomlanadi.

Ol engdin olsa nogoh oʻshul moh niqobni,

Topmas falakda oʻzga kishi oftobni.

Baytdagi “bo” harfi raviy, “nun” harfi vasl, “yo” harfi xuruj sanaladi.

Nosiriddin Tusiy fors-tojik qofiyasida xuruj harfi mavjud emasligini taʼkidlaydi. Nosiriddin Tusiy asos sifatida Yusuf Aziziyning fikrlarini keltiradi. Fors sheʼriyatida vasl unli (harakat) emas. Shuning uchun ham xurujning boʻlishi toʻgʻri emas. Yusuf Aziziy Xalil ibn Ahmad ham arab aruzi va qofiyasi haqida munosabat bildirganda xuruj deb nomlangan harfni keltirmaganini aytadi [Tusiy

1325, 113]. Nosiriddin Tusiy vasl va undan keyingi harflarning barchasi radif tarkibida o'rganilishi kerakligini aytadi. Faxri Isfahoniy bunday holatda takrorlangan so'z va harfni bir-biridan farqlash kerakligini aytadi. Olim arablarda qofiyaning oxiri sifatida xuruj harfi kelishiga ishora qiladi. Fors shoirlarida xurujdan keyingi mazid va noyira harflari ham amalda ekanligini aytadi.

Onho ki ba mardi saxovat toqand.

Sultoni jahonu Xisrave Ofoqand.

<i>No</i>	<i>So'z</i>	<i>Ridf</i>	<i>Raviy</i>	<i>Majro</i>	<i>Vasl</i>	<i>Xuruj</i>
1.	T	O	Q	A	N	D
2.	Of	O	Q	A	N	D

Vohid Tabriziy Nosiriddin Tusiyning vasl unlidan iborat bo'lmagani uchun ham xurujning kela olmasligi haqidagi fikriga qo'shilmaydi. To'g'ri, vasl odatda undosh harfdan iborat bo'lishi kerak. Bunday holda xuruj qo'shila olmaydi. Biroq vasldan keyin keluvchi qofiya harakatlari (unli) vasl va xurujni ulab turadi. *Xamsaramash* – *xambaramash* o'zaro qofiyadosh so'zlaridagi “re” – raviy, “mim” – vasl, “shin” – xuruj sanaladi. Raviydan oldingi harakat – tavjih, raviyning harakati – majro, vaslning harakati esa nafozdir.

Shamsiddin Qays Roziy ham xuruj harfi ta'rifida bu harfning ahamiyati u qadar katta emasligiga ishora qiladi. Chunki vasldan keyingi harflar qofiya chegarasidan chiqib ketadi, shuning uchun undan keyingi, xususan, xuruj harfining alohida nomlanishi, tadqiqi muhim emas [Roziy 1997, 143]. “Xuruj” so'zining ma'nosi ham aynan “tashqariga chiqish” bo'lgani uchun ham Qays Roziy xurujni qofiyadosh so'z tarkibida o'rganishni to'g'ri deb bilmaydi.

“Funun ul-balog'a” muallifi xuruj sifatida kela oladigan harflarga baytlar misolida namunalar keltiradi. Vasl va xurujning bir butunlikdagi holatini ko'rsatib beradi. “Ho” va “alif” harflari birgalikda vasl va xuruj sifatida kela olishi mumkin:

Dilo, dar rohi tu binam xatarho

“Nun” va “dol” harfi birgalikda vasl va xuruj harfi bo'la oladi: *guzarand* – *nigarand*.

Xabarot nist ki xalqi z-xamat barxizand [Taroziy 2016, 64].

Jomiy vasldan keyin keluvchi harf xuruj deb nomlanishini aytib “mim” harfi xuruj sifatida kelgan baytni namuna sifatida keltiradi:

Mo hech kasoni ko'i yorem

Mo so'xtagoni xomkorem

Atoulloh Husayniy xurujning takrori qofiya nazariyasida muhim ahamiyatga ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Mazid

Xuruj harfidan keyin keluvchi harf qofiya ilmida mazid nomi bilan keltiriladi. "Mazid" so'zi "qo'shilgan, ziyod qilingan" degan ma'noni anglatib, xurujdan keyingi qo'shilgan harfga nisbatan ishlatiladi. Arab she'riyatida xuruj oxirgi harf sifatida keltirilib, xurujdan keyingi harflar ham xuruj nomi bilan ataladi. Biroq fors she'riyatida xurujdan keyingi harf mazid deb nomlanadi. Fors she'riyatida xurujdan keyingi harflarning qo'shilishi fors tilining morfologik xususiyatidan kelib chiqqan. Fors tilining boy enklitik tizimi bu harflarning qo'shilishiga sabab bo'lgan. Atoulloh Husayniy "mazid" so'zining ma'nosidan kelib chiqqan holda xurujga bir harfning qo'shilishi, ziyod qilinishi natijasi o'laroq mazid deb nomlanganiga ishora qiladi.

*In dil ki ba zulfi dilbari bastimash
Harchand gusast boz payvastimash.
Alqissa, zi bas ba poy-u afqandim,
Chun shishe ba dast-i xish bishkastimash.*

Ruboiyda keltirilgan *bastimash – payvastimash – bishkastimash* o'zaro qofiyadosh so'zlaridagi "shin" harfi mazid sifatida kelgan.

N ^o	So'z	Qayd	Raviy	Vasl	Xuruj	Nafoz	Mazid
1.	Payva	S	T	I	m	A	sh
2.	Bishka	S	T	I	m	A	Sh

Husayn Voiz Koshifiy mazid ham vasl va xuruj singari undosh harf shaklida bo'lishi kerakligini aytadi. Biroq esdan chiqarmaslik kerakki, cho'ziq unli sifatida ishlatiladigan "vov", "alif", "yo" harflari vasl, xuruj, mazid va noyira ham bo'lib kela oladi.

Ahmad Taroziy ham mazidni "ajam ixtiroidir" deb keltiradi.

*Tilar ko'nglum yuzung ko'rsa budur lning xayoloti,
Muyassar bo'lsa bu davlat, bo'lur zohir kamoloti.*

Taroziy keltirgan baytdagi *xayoloti – kamoloti* qofiyadosh so'zlaridagi "yo" harfi mazid deb nomlanadi.

N ^o	So'z	Ridf	Raviy	Vasl	Xuruj	Mazid
1.	Xay	O	L	o	t	i
2.	Kam	O	L	o	t	i

*Chun bar sarvi sehi bargi gulastash,
Chu man har su xazonon bulbulastash* [Taroziy 2016, 65].

Baytdagi qofiyadosh soʻzlardagi “shin” harfi mazid sanaladi.

N ^o	Soʻz	Ridf	Raviy	Majro	Vasl	Xuruj	Nafoz	Mazid
1.	G	U	L	A	S	t	a	sh
2.	Bulb	U	L	A	S	t	a	sh

Abdurahmon Jomiy mazidni “xurujga payvand” harf sifatida taʼriflab, “shin” harfi misolida tushuntiradi.

*Alo aynayhi aynullah, chi chashmoni siyohastash,
Chi mijgona sinonoso, chi mardafgan nigohastash*

[Jomiy 2009, 305].

N ^o	Soʻz	Ridf	Raviy	Majro	Vasl	Xuruj	Nafoz	Mazid
1.	Siy	O	H	A	s	t	a	sh
2.	Nig	O	H	A	s	t	a	sh

Vohid Tabriziy *dilbaram ast – dar xvaram ast* qofiyadosh soʻzlari misolida mazidni xurujdan keyin keluvchi harf ekanligini aytib oʻtadi. Qofidosh soʻz sifatida keltirilgan soʻzlarda 4 qofiya harfi (raviy, vasl, xuruj, mazid) va 3 qofiya harakati (tavjih, majro, nafoz) ishtirok etgan:

N ^o	Soʻz	Tavjih	Raviy	Majro	Vasl	Nafoz	Xuruj	Mazid
1.	Dilb	A	R	A	m	a	s	t
2.	Dar xv	A	R	A	m	a	s	t

Noyira

Qofiya harflarining soʻnggi noyira boʻlib, “qochish, yon tomonga ogʻish” degan maʼnoni anglatadi. Qays Roziy olovning aynan “nor” deb atalishiga ishora qiladi. Olov alangalanganda, har tomonga ogʻib yonish xususiyati shunga ishora qiladi.

*Chekarmen bu tamaʼ birla hamisha makru olingni,
Magar topquyimen ber komi dil birla visolingni*

[Taroziy 2016, 65].

N ^o	Soʻz	Ridf	Raviy	Majro	Vasl	Xuruj	Mazid	Noyira
1.		O	L	I	n	g	N	i
2.	Vis	O	L	I	n	g	N	i

*Dar madhade shohe juzho soxtanist,
Ne naiki mujallod pardoxtanist.*

N ^o	So'z	Ridfi zoyid	Raviy	Majro	Vasl	Xuruj	Mazid	Noyira
1.	So	X	T	A	n	i	S	t
2.	Pardo	X	T	A	n	i	S	t

Noyira oxirgi harf bo'lib, qofiyadosh so'z tarkibida bir nechta kelishi mumkin. "Funun ul-balog'a"da noyiraning ikki harf shakliga misol keltiriladi:

Chandon xurim g'am ba chang ovarimishon

Baytdagi "ovarimishon" so'zidagi "alif" va "nun" birgalikda noyira sanaladi. Yoki

On mah, ki ba chashmi mehr didastemash

Az jumlai nekuvon guzidastemash [Jomiy 2009, 306].

Vohid Tabriziy mazidning "izidan" keluvchi harf sifatida noyirani izohlaydi. Qofiyadosh so'zlardan namuna keltirib, nafaqat noyira, balki qofiyadosh so'z nechta harf va harakatdan iborat ekanligini ham tahlil qiladi.

N ^o	So'z	Tavjih	Raviy	Majro	Vasl	Xuruj	Nafoz	Mazid	Nafoz	Noyira
1.	G	u	S	I	S	T	A	m	a	sh
2.	B	u	S	I	S	T	A	m	a	sh

Vohid Tabriziy qofiyadosh so'zlar 5 harf (raviy, vasl, xuruj, mazid, noyira) va 3 harakatdan (tavjih, majro, nafoz) iboratligini aytadi.

Faxri Isfahoniy noyiradan keyin keluvchi harfga ham etibor qaratadi. Olimning ta'kidlashicha, noyiradan keyin harf kelsa, **noyima** deb nomlanadi [Isfahoniy 1337, 72].

Ahmad Taroziy qofiya harflari haqida ma'lumot bergandan so'ng qofiya harflarining bir so'zda jam' bo'lgan holatini ko'rsatish maqsadida maxsus "Fasl"ni taqdim qiladi.

1. Raviydan keyingi harflar ishtiroki asosida:

Faqat raviy: *gul – bulbul.*

Raviy va vasl: *gulash – bulbulash.*

Raviy, vasl, xuruj: *gulho – bulbulho.*

Raviy, vasl, xuruj, mazid: *gulatash – bulbulatash.*

Raviy, vasl, xuruj, mazid, noyira: *gulhoyash – bulbulhoyash.*

2. Qayddan keyingi harflar ishtiroki asosida:

Qayd, raviv, vasl: *guftam – suftam*.

Qayd, raviv, vasl, xuruj: *guftamash – suftamash*.

Qayd, raviv, vasl, xuruj, mazid: *guftastam – suftastam*.

Qayd, raviv, vasl, xuruj, mazid, noyira: *guftamashon – suftamashon*

3. *Ridfdan keyingi harflar ishtiroki asosida:*

Ridf va raviv: *kamol – xayol*.

Ridf, raviv, vasl: *kamolash – xayolash*.

Ridf, raviv, vasl, xuruj: *kamolot – xayolot*.

Ridf, raviv, vasl, xuruj, mazid, noyira: *kamolatast – xayolatast*.

4. *Ta'sisdan keyingi harflar ishtiroki asosida:*

Ta'sis, daxil, raviv: *komil – vosil*.

Ta'sis, daxil, raviv, vasl: *komilash – vosilash*.

Ta'sis, daxil, raviv, vasl, xuruj: *komilho – vosilho*.

Ta'sis, daxil, raviv, vasl, xuruj, mazid: *komilhosh – vosilhosh*.

Ta'sis, daxil, raviv, vasl, xuruj, mazid, noyira: *komilhost – vosilhost*

5. *Ridf va qayddan keyingi harflar ishtiroki asosida:*

Ridf, qayd, raviv: *soxt – pardox*.

Ridf, qayd, raviv, vasl: *soxtam – pardoxtam*.

Ridf, qayd, raviv, vasl, xuruj: *soxtim – pardoxtim*.

Ridf, qayd, raviv, vasl, xuruj, mazid: *soxtimash – pardoxtimash*.

Ridf, qayd, raviv, vasl, xuruj, mazid, noyira: *soxtamashon – pardomashon*.

6. *Ta'sis, daxil, qayddan keyingi harflar ishtiroki asosida:*

Ta'sis, daxil, qayd, raviv: *monand – xeshovand*.

Ta'sis, daxil, qayd, raviv, vasl: *monandash – xeshovandash*.

Ta'sis, daxil, qayd, raviv, vasl, xuruj: *monandast – xeshovandast*.

Ta'sis, daxil, qayd, raviv, vasl, xuruj, mazid, noyira: *monandastashon – xeshovandastashon*.

7. *Ta'sis, daxil, ridfdan keyingi harflar ishtiroki asosida*

Ta'sis, daxil, ridf, raviv: *homun – qonun*.

Ta'sis, daxil, ridf, raviv, vasl: *homunash – qonunash*.

Ta'sis, daxil, ridf, raviv, vasl, xuruj: *homunast – qonunast*.

Ta'sis, daxil, ridf, raviv, vasl, xuruj, mazid: *homunhosh – qonunhosh*.

Ta'sis, daxil, ridf, raviv, vasl, xuruj, mazid, noyira: *homunhost – qonunhost*.

8. *Ta'sis, daxil, ridf, qayddan keyingi harflar ishtiroki asosida*

Ta'sis, daxil, ridf, qayd, raviv: *omuxt – vosuxt*.

Ta'sis, daxil, ridf, qayd, raviv, vasl: *omuxtam – vosuxtam*.

Ta'sis, daxil, ridf, qayd, raviy, vasl, xuruj: *omuxtamash – vosuxtamash.*

Ta'sis, daxil, ridf, qayd, raviy, vasl, xuruj, mazid, noyira: *omuxtastamash – vosuxtastamash.*

Qofiya harflari jam' bo'lgan bu kabi qofiyadosh so'zlarni baytda keltirish juda qiyin. Ahmad Taroziy aytganidek, bir necha qofiya harflari jam' bo'lgan qofiyadosh so'zlar kamchilikdan xoli bo'lmaydi:

*Go' onki, to man in hunar omuxtastamash,
Dar har daqiqa lahzae vosuxtastamash.*

Xulosa

Ko'rinib turibdiki, qofiya harf va harakatlari qofiya asosini belgilab beruvchi asosiy unsurlardir. Poetikaga oid risolalarning deyarli barchasida qofiya harf va harakatlari tadqiq etilgan. Qofiya turlari va qofiya harflariga asoslanadigan badiiy san'atlarning deyarli barchasi qofiya harflariga bog'liq bo'lgani bois qofiya harf va harakatlari risolalar tarkibining asosini tashkil qiladi. Qofiya ilmiga oid, ma'lum ijodkor she'riyatining qofiya tizimiga oid tadqiqotlarda qofiyaning *murdaf, muassas, muqayyad, mujarrad* turlari qofiyaning tuzilishiga ko'ra turlari sifatida keltiriladi. Biroq qofiya ilmi nazariyasiga oid arabiy, forsiy, turkiy manbalarning hech birida ular alohida turlar sifatida keltirilmaydi. Qofiya harflari izohida ularning ishtirokiga qarab qofiya nomlari taqdim qilinadi.

Adabiyotlar

- Жомий, Абдурахмон. 2006. *Рисолаи қофия*. Шарқ мумтоз поэтикаси. Ҳамидулла Болтабоев талқинида. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нарийети.
- Ибн Рашиқ. 1972. *Ал-Умда фи маҳосин аш-шиър ва-адаби ва-нақди*. Т. 1-2. Байрут.
- Исфаҳоний, Фаҳри. 1337. *Меъёр ул-жамоли* (Кия Садек). Техрон.
- Крачковский, И. Ю. 1956. *Арабская поэтика в IX в.* Избранные произведения. Т.2. Москва.
- Замахшарий, М. 1989. *Ал-Қистос ал-мустақим фи илмул-аруз*. Байрут: Мактабат ул-амориф.
- Мусулманкулов, Р. 1989. *Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв.* Москва: Наука.
- Розий, Шамси Қайси. 1997. *Ал-Муъжам фи маъойири ашъору-л-ажам*. Перевод с персидского исследование и комментарий Н.Ю.Чалисова. Москва: "Восточная литература" РАН.
- Розий, Ш. 1991. *Ал-Муъжам фи маъойири ашъору-л-ажам*. Душанбе:

Адиб.

- Самарқандий, Низомий Арузий. 1986. *Нодир ҳикоялар*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Табризи, Воҳид. 1959. *Джам и мухтасар*. Критический текст, пер. И примеч. Е. Бертельса. Москва: Наука.
- Туси, Носир ад-Дин. 1325. *Миъяр ал-ашъор*. Техрон.
- Тўйчиев, У. 2011. *Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Тарозий, А. 1996. *Фунуну-л-балоға*. Тошкент: Хазина.
- Хусайний, Атоуллоҳ, ҳ. 1393. *Рисолаи дар қофия*. Техрон.
- Hamroeva, O. 2021. "Abu Zakariyyo (Al-Xatib) at-Tabriziyning "Alkafif il-aruz va al-qavofiy" (Aruz va qofiyaga oid kifoya) asarida aruz va qofiya tadqiqi". *Oltin bitiglar–Golden Scripts* 4: 20–33.

Research of Theoretical foundations of rhyming letters

Orzigul Hamroeva¹

Abstract

The science of classical rhyme as a separate independent science was studied separately in the treatises as a component of poetics. In all the treatises on poetics, the theory of the science of rhyme is presented under separate sections, along with such sciences as literary types and genres, artistic arts, aruz weight. In classical literature, the types of rhyme are studied according to several aspects. It should be noted separately that the perfect use of these types according to different aspects of rhyme determined the perfection of stanzas. The composition of these rhyme types is related to the participation of rhyming letters. In the article, the theoretical foundations of rhyming letters in treatises on poetics are studied in a comparative form.

Key words: rhyming letters, xuruj, mazid, noyira, ridf, ta'sis, qayd, vasl, raviy, rhyming movements, mujarrad, muqayyad, murdaf.

References

- Jomiy, Abdurahmon. 2006. *Risolai qofiya*. Sharq mumtoz poetikasi.

¹ Orzigul J. Hamroeva – Doctor of Philological Sciences, Associate Professor, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

E-mail: arguvon87@mail.ru.

ORCID ID: 0000-0002-3904-9712

For citation: Hamroeva, O. J. 2023. "Research of theoretical foundations of rhyming letters". *Golden scripts* 2: 67–92.

Hamidulla Boltaboev talqinida. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nariyoti.

Ibn Rashiq. 1972. *Al-Umda fi mahosin ash-shi'r va-adabi va-naqdi*. T. 1-2. Bayrut.

Isfahoniy, Faxri. 1337. *Me'yor ul-jamoli* (Kiya Sadek). Tehron.

Krachkovskiy, I. Yu. 1956. *Arabskaya poetika v IX v*. Izbrannie proizvedeniya. T.2. Moskva.

Zamaxshariy, M. 1989. *Al-Qistos al-mustaqim fi ilmul-aruz*. Bayrut: Maktabat ul-amorif.

Musulmankulov, R. 1989. *Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika X-XV vv*. Moskva: Nauka.

Roziy, Shamsi Qaysi. 1997. *Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam*. Pervod s persidskogo issledovaniye i kommentariy N.Y.Chalisova. Moskva: "Vostochnaya literatura" RAN.

Roziy, Sh. 1991. *Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam*. Dushanbe: Adib.

Samarqandiy, Nizomiy Aruziy. 1986. *Nodir hikoyalar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Tabrizi, Voxid. 1959. *Djam i muxtasar*. Kriticheskiy tekst, per. I primech. Y. Bertelsa. Moskva: Nauka.

Tusi, Nosir ad-Din. 1325. *Mi'yar al-ash'or*. Tehron.

To'ychiyev, U. 2011. *O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.

Taroziy, A. 1996. *Fununu-l-balog'a*. Toshkent: Xazina.

Husayniy, Atoullloh. h.1393. *Risolai dar qofiya*. Tehron.

Hamroyeva, O. 2021. "Abu Zakariyyo (Al-Xatib) at-Tabriziyning "Alkafif il-aruz va al-qavofiy" (Aruz va qofiyaga oid kifoya) asarida aruz va qofiya tadqiqi". *Oltin bitiglar-Golden Scripts* 4: 20-33.

“Lison ut-tayr” dostoni kompozitsiyasi va obrazlari uyg'unligi

Alisher Razzoqov¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari tasvvufiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Maqola oldiga qo'yilgan ilmiy muammoning yechimida, avvalo, Alisher Navoiyning tasavvuf va uning naqshbandiya ta'limotidagi o'ziga xos qarashlariga ahamiyat berilgan. Asar kompozitsiyasining o'ziga xosligiga diqqat qaratilib, undagi har bir bo'lim, har bir detal Alisher Navoiyning, eng avvalo, islomiy, so'ngra tasavvufiy dunyoqarashini o'zida aks etgani tahlillar orqali asoslangan. Dostonning kirish qismidagi islom tarixida mashhur bo'lgan tarixiy shaxslar haqidagi hikoyatlar asarning tasavvufiy mohiyatini to'g'ri anglash va obrazlar badiiyatini yoritishdagi ahamiyati ta'kidlangan. Asarning 95-bobida tasvirdangan Abu Turob Naxshabiy va uning muridi haqidagi hikoyat ham tahlil qilinib, unda so'fiylikning axloqiy-ta'limiy mavzulari qalamga olingani haqida xulosa chiqarilgan. Mavzuni yoritishda Alisher Navoiy asarlaridan tashqari tasavvufiy mavzuda ijod qilgan shoirlar, islom tarixi, tasavvufga doir klassik va zamonaviy mualliflar fikrlari asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: *“Lison ut-tayr”, badiiy ijod, islom, tasavvuf, kompozitsiya, hikoyat, obraz.*

Kirish

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonini umri so'nggida yozganligi ma'lum. Muallif bu asar ustida umri davomida ishlagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Faqat ijodiy jarayon shoirning onggi va tafakkurida kechgan. Asar xotimasidan Navoiyning bolalik chog'laridayoq Fariduddin Attor asariga o'xshash doston yozishga ahd qilganini bilish mumkin. O'sha paytlardan boshlab Navoiy butun umri davomida asarni yozishga tayyorgarlik ko'rgan... Shu

¹Razzoqov Alisher Abduzohidovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: razzoqovalisher45@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0089-5874

Iqtibos uchun: Razzoqov, A.A. 2023. “Lison ut-tayr” kompozitsiyasi va obrazlari uyg'unligi”. *Oltin bitiglar* 2: 93–110.

sababdan bo'lsa kerak, bu asarning tahlil va talqini borasidagi bahs-u munozalar haligacha davom etmoqda. Zero, "...badiiy asarni turlicha talqin qilish mumkin, haqiqat esa cheksiz, hatto bir shaxs yoki bir davrning o'z haqiqati bor... Resipient (talqin qiluvchi –A. R.) fikri asar ma'nosi va g'oyasining qaysidir qirrasini aks ettirishi mumkin, lekin u hech qachon so'nggi va yagona qarash bo'la olmaydi. Fanda mavjud bo'lgan bu xulosa badiiy asarni ham turli jihatlardan talqin qilish imkonini beradi" [Эркинов 2018, 8]. "Lison ut-tayr" tadqiqotchilari ham shu paytgacha o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda asarning turli qirralari haqida fikr bildirib kelganlar. Asarga bo'lgan yondashuv va munosabat har bir davrning mafkurasiga qarab o'zgarib turganligi ham ma'lum haqiqat.

Doston kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklar

Chin ma'nodagi badiiy adabiyotda mumtoz ruh va mazmun bilan birgalikda asar kompozitsiyasi ham shunga monand ravishda shakllantiriladi. Nafaqat asardagi voqealar rivoji, syujetida, balki uning kompozitsiyasida ham ijodkor tafakkuri, g'oyasi, e'tiqodi bo'y ko'rsatib turadi. "Asar kompozitsiyasi, dastavval, muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan belgilanadi, ya'ni kompozitsiya birinchi navbatda g'oyaviy-estetik tushunchadir. Yozuvchi nuqtai nazari kompozitsiyaning hal etuvchi unsuridir" [Sulton 2005, 124]. "Lison ut-tayr" dostoni kompozitsiyasi ham bevosita Alisher Navoiyning duyoqarashi, badiiy niyatlariga asoslanib ishlangan. Asar kompozitsion xususiyatlarining barchasi haqida bir maqola doirasida fikr bildirish qiyin, albatta. Bu o'rinda faqat dostonning muqaddima va xotima boblarining asarni talqin qilishdagi o'rni haqida fikr yuritmoqchimiz.

Mumtoz adabiyot an'anasiga ko'ra, lirik devonlar nasriy debochalar, yirik hajmdagi epik dostonlar esa muqaddimaviy boblar bilan boshlanadi. Asarning mazkur qismlarida adibning o'z ijodiy maqsadlari, e'tiqodiy-falsafiy qarashlari o'z aksini topib, asarning asosiy mazmunini tushunishga o'quvchini tayyorlaydi. Shu jumladan, "Lison ut-tayr" asarining kirish boblari ham, ularda qo'yilgan masalalar ham butun asar g'oyaviy yo'nalishini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asar talqinlariga doir tadqiqotlarda e'tirof etilganidek, "Lison ut-tayr" debochasi konkret ilmiy ishlar "kirish" qismlaridan ham aniqroq, sistemaliroq tarzda asosiy qismdagi poetik konsepsiyalarni belgilab beradi" [Жўрақулов 2015, 108].

"Lison ut-tayr" dostoni bugungi kunga qadar, asosan, falsafiy

va tasavvufiy aspektda talqin qilib kelindi. XX asr boshlaridayoq zamonaviy navoiyshunoslikda Y.Bertels dostonida "Foniy" taxallusining qo'llanishi haqida fikr bildirib, bunday taxallusni faqat tasavvufiy dunyoqarashga ega bo'lgan shoir qo'llashi mumkin, degan mulohazani o'rta tashlaydi [Бертельс, 1965, 386]. Bu ishni sobiq sho'rolar davridan davom ettirgan navoiyshunoslar uzoq yillar davomida shoirning tasavvufga munosabatini butunlay inkor etmagan bo'lsalar-da, lekin bu haqida gapirishga to'g'ri kelganda tasavvufning hurfikrlilik bo'lib ko'ringan falsafiy tamoyillariga urg'u berdilar, uning islomiy mohiyatini esa Navoiy dunyoqarashidagi ba'zi ziddiyatli holatlar yoki "reaksion ruhoniylar"ni chalg'itish, deyish bilan cheklanildi. Aynan shoir asarlari muqaddimalariga xolis baho berish Navoiyning tasavvufiy dunyoqarashida ziddiyat bo'lmaganligini ko'rsatadi. Shu muammoga javob tariqasida "Favoyid ul-kibar" devonining 306-g'azalida shunday deyiladi:

Birovga musallam tariqi tasavvuf

Ki, zotida mavjud emastur taxalluf [Навоий (е) 2011, 311].

Navoiy bu g'azalini bejiz aynan shunday mazmundagi bayt bilan boshlamagan. Avvalo, ixtilofli masalani hal qilib olishni niyat qilgan ko'rinadi. Bayt talqiniga ko'ra, tasavvufga doxil bo'lmoqchi solik o'z zotidagi "taxalluf" – ixtilof, nomuvoqlikni yo'qotishi kerak. Haq amriga va qazosiga muvofiq kelmaslik, xilof yo'l tutishni aslo o'ylamasligi va e'tiqodida mustahkam bo'lish kerak. Shu ma'noda "Lison ut-tayr" dostonining ham tavhid g'oyasi asosidagi hamd, munojat, na't, me'roj va salafi solihlar bo'lmish xulafoyi roshidin siyratlariga bag'ishlangan boblar bilan boshlanishida Alisher Navoiyning o'ziga xos badiiy niyati, e'tiqodiy dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Shoir to'g'ridan-to'g'ri asosiy mavzuga o'tishdan oldin e'tiqodiy masalalarni o'quvchi ongiga joylashni maqsad qiladi. Bu orqali u tasavvuf maslagi, eng avvalo, Haqni tanish, Uning bir-u bor ekanligiga iqror bo'lish, inson hech qachon Allohga loyiq darajada ibodat qila olmasligini eslatish; shuningdek, haqiqiy ma'nodagi tasavvuf Payg'ambar s.a.v. va sahobalarning yo'li ekanini uqdirmoqchi bo'ladi. Tasavvuf yo'lining ham andozasini shunga qarab belgilaydi. Zero, Payg'ambar s.a.v.ning ham siyratlari tarixiga nazar solsak, risolatning ilk davrlarida u zot, avvalo, johiliyat davrida buzilib ketgan aqidalarni tuzatish va tavhid g'oyasini qaror toptirish bilan shug'ullangan bo'lsalar, keyinchalik harom ishlardan ogohlantirish, qaytarish va so'ngra farzlarni ado etishga amr qilganlar.

Dostonning munojot mavzusidagi ikkinchi bobida bayon

qilingan fikrlar ham shoirning inson va Haq o'rtasidagi munosabat qanday bo'lmog'i kerak, degan masalaga oydinlik kiritadi. Bunda Alisher Navoiy o'quvchiga o'zini shunday tanishtiradi:

*Qilmadim umrumda bir rak'at namoz,
Sar-basar mahzi niyoz, ey beniyoz.
Hargiz andoq qo'ymadim tufroqqa bosh,
Kim keraklik bo'lmag'oy boshimg'a tosh.
Bermadim hargiz gadog'a bir diram,
To o'zumni ko'rmadim sohib karam.
Tutmadim oting qilib farzonalik,
Sabha eldin osmoyin yuz donaliq.
Bir amal hargiz riyosiz qilmadim,
Zarqsiz hargiz o'zumni bilmadim.
O'ylakim mendurmen, inson bo'lmasun,
Yo'qki inson, devu shayton bo'lmasun*

[Навоий (h) 2011, 11 – 12].

Alisher Navoiyning nafaqat ijtimoiy hayoti, balki shaxsiy fazilatlaridan ham xabardor kishi uning yuqoridagi baytlarini o'qib, shoir nega ibodatlarini, butun savobli ishlarini yo'q deb hisoblayapti, deb ajablanishi tabiiy. Alisher Navoiyning islom shariatiga qay darajada jiddiylilik bilan amal qilgani haqida tarixchi Xondamir quyidagicha guvohlik beradi: "Bandalar va ibodat qiluvchilarning pushti panohi bo'lgan bu zot (Navoiy – A.R.)ning juma va jamoat namozlarini o'qishni tashkillashtirishdagi sa'y-harakatlari va g'ayratlari shu darajada ediki, Marg'aniy bog'i ichida o'ta chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan bir masjid qurib, o'z zamonasi qorilarining sarasi bo'lgan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni ushbu masjid imomligiga tayinlagandilar va o'zlari ham bu yerda besh mahal jamoat bilan o'qiladigan namozlarning barchasida qatnashardilar" [Хондамир 2018, 127].

Navoiy yuqoridagi misralari orqali, avvalo islomning ma'rifiy g'oyalariga urg'u bermoqda. Mazkur g'oya dostonning asosiy boblarida ham ba'zi hikoyatlari orqali illustrasiya qilinib, shoir o'zining qisqacha xulosalarini berib borgan. Masalan, Azozil haqidagi hikoyatni shunday xulosalaydi:

*O'zni ko'rmak – toatin ko'rmakdurur,
Qilg'onin ko'ngliga kelturmakdurur* [Навоий (h) 2011, 173].

Yoki "Layli va Majnun" dostonida shunday yozadi:

Toat qilu ko'zga ilma oni,

Ko'rmak bila hech qilma oni [Навоий (g) 2011, 263].

Inson toat bilan erishgan fazilatlaridan mamnun bo'lishning nimasi yomon, degan savolga "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi shayx Alouddavla Simnoniy tilidan aytilgan quyidagi so'zlar javob bo'lishi mumkin: "...Darvesh kerakki, o'z nafi kaminida bo'lg'ay, to har ko'zki, o'z kamolini ko'rarg'a ochqay, filhol ani tikkey. Va agar mundoq qilmasa, anga xabar bo'lg'uncha nafs aning har sari mo'yidin o'z kamolin ko'rarg'a bir ko'z ochgay va Haqning kamolini ko'rardin ko'r qilg'ayki, nafsning odati budur" [Навоий (i) 2011, 346].

Navoiy "Lison ut-tayr" munajatida yuqoridagi baytlari orqali inson ko'p amaliga ishonib emin bo'lmasligi, shu bilan birga Allohning rahmatidan ham noumid bo'lmasligi lozim demoqchi bo'ladi. Shoir bu umidvorlikni keyingi baytlarda shunday ifodalagan:

Gar manga bu dard bedarmon erur,

Lek darmoni sanga oson erur.

Dardima darmon inoyat aylagil,

Tavbai komil hidoyat aylagil [Навоий (h) 2011, 12].

Navoiyning mazkur baytlari tasavvufdagi "xavf va rajo" – qo'rquv va umid g'oyasining ifodasidir. Bu masalaning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, unga ko'ra, "Emin bo'lish va noumid bo'lish – ikkisi Islom millatidan chiqaradi. Ahli qibla uchun haq yo'l – shu ikkisining orasida bo'lishdir" [Бадахшоний 2014, 237]. Bu bilan Navoiy, eng avvalo, solikning aqidasi sog'lom bo'lishi kerakligini ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Hamd va munajatdan so'ng Payg'ambar a.s. haqidagi na't mavzudagi boblarning joylashuvi mumtoz adabiy an'ana, albatta. Lekin asar kompozitsiyasini bu taxlit tuzish orqali Alisher Navoiy yana muhim bir e'tiqodiy masalaga diqqatni tortadi, ya'ni valiy hech qachon nabiy martabasiga yeta olmaydi: "...avliyolardan birortasi, kim bo'lishidan qat'i nazar, anbiyo alayhissalomlarning birortasidan afzal bo'la olmaydi... Agar hamma avliyolar bitta nabiy bilan solishtirilsa, nabiy ulardan ustun chiqadi va martabasi yuqori bo'ladi... Alloh taolo xaloyiqning hammasini, jumladan, avliyolarni ham payg'ambarlarga ergashishga buyuradi" [Бадахшоний 2014, 328].

Dostonda na'tdan so'ng xulafoi roshidin – Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali r.a.lar manoqibiga doir lavhalarni muqaddimaviy boblarda joylashtirish orqali ham Navoiy yana e'tiqodiy masalaga yuzlanadi – Payg'ambar a.s. sahobalariga muhabbat ham e'tiqodning

muhim bir juz'idir: "Sahobalarni faqat yaxshilik, odob va ulug'lash bilan yodga olamiz. Ularni yaxshi ko'rish din, iymon va ehsondir. Kim ularni yaxshi ko'rmasa, uning dini ham, iymoni ham, ehsoni ham yo'qdir" [Бадахшоний 2014, 261]. Shu asnoda Alisher Navoiy tasavvuf ilgari surgan axloqiy va falsafiy masalalar targ'ibi uchun Payg'ambar a.s. va salafi solihlarning axloqini namuna – etalon qilib ko'rsatadi. Shu tariqa dostonning asosiy g'oyaviy masalalarini yoritish uchun zamin hozirlaydi.

Xotima boblarda bayon qilingan fikrlar ham asar haqidagi, umuman, navoiyshunoslikdagi ba'zi bahsli munozalarga bir qadar oydinlik kiritadi. Ma'lumki, rus sharqshunosi Y.Bertels o'zining "Navoiy va Attor" nomli maqolasida Navoiy tasavvufning muxlisi, qalban so'fiy, bu ta'limotning bilimdoni bo'lsa-da, lekin hech qachon amaliyotchi so'fiy bo'lmagan, degan xulosaga keladi [Бертельс 1965, 419]. Bunday xulosa qaysi jihatlari bilan o'zini oqlamasligi haqida keyingi yillar adabiyotshunosligida ham asosli fikrlar bildirilgan [Жўрақулов 2015, 119]. E'tiborli jihati, bu bahsli masalaga "Lison ut-tayr"da Navoiyning o'zi oydinlik kiritadi. Ma'lumki, asarda tasvirlangan yetti vodiy – solikning oliy haqiqatga yetish uchun bosib o'tishi lozim bo'lgan tasavvuf bosqichlaridir. Navoiy doston xotimasidagi "...taxallus tag'yirining uzri" sarlavhali bobida shunday yozadi:

Chun "Lison ut-tayr" og'oz ayladim,

Turfa qushlar birla parvoz ayladim [Навоий (h) 2011, 285].

"Turfa qushlar" dostonida jamiyatning turli tabaqa vakillaridir. Ularning Haqqa intilishi, talabgorligi, iste'dodi turli-tuman. Navoiy ham shunday odamlar bilan hamnafas holda tariqat bosqichlarini o'tkazganiga ishora qilmadimikin? Zero, biror fikrni to'g'ridan-to'g'ri emas, unga ishora sifatida ifodalash tasavvuf adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Shunisi aniqki, Navoiy Jomiy rahbarligida tasavvuf tarbiyasi va ta'limini olgan, lekin tafsilotlarini batafsil oshkor qilmagan. Buning ham ayrim sabablarini Navoiyning o'z asarlaridan bilish mumkin. Masalan, "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida Navoiy ustoz va piri Abdurahmon Jomiyning tasavvufdagi o'ziga xos yo'li haqida shunday ma'lumot beradi: "...tariqat odobi sulukida andoq daqiq ravish bila tariqlarini tuzdilarkim, hech kishi alarning zohir ulumi va she'r va muammo va insho va bu nav' nimalardin sharifroq nihoniy amrg'a mashg'ul erkonlarin bilmadilar va fahm ham qilmadilar..." [Навоий (f) 2011, 739]. Demak, Jomiy va Navoiy mansub naqshbandiya tariqatining ta'lim va tarbiya usuli ko'p

hollarda shu tarzda yo'lga qo'yilgan. Naqshbandiya shayxlarining zohiriy ko'rinishlari ham boshqa musulmonlardan deyarli farqlanmagan.

Tasavvufiy obrazlar badiiyati

Badiiy asar matnini tahlil va talqin etishda undagi badiiy obrazlar silsilasi, ularning kelib chiqish manbalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki badiiy obrazga asar muallifining "men"ligi, estetik ideali singdirilgan bo'ladi. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton ta'kidlaganidek, "Xarakter (obraz) – insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri... Xarakterda yozuvchining (umuman olganda shoirning ham — A.R.) kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi. Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir" [Sulton 2005, 103]. Alisher Navoiy yaratgan obrazlar haqida fikr bildirganda ham bularni albatta inobatga olish kerak.

Alisher Navoiy ijodining tub mohiyatini anglash va talqin etishda "Lison ut-tayr" asari, undagi badiiy obrazlar tarixi, genezisini o'rganishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Chunki "Lison ut-tayr"ni tadqiq etish orqali navoiyshunoslikning juda ko'p muhim, aytish mumkinki, nazariy masalalarini oydinlashtirishi mumkin" [Олим, 1992, 4]. Asarning asosiy mohiyatini bilish uchun, eng avvalo, muallifning o'ziga quloq tutish lozim. Bu haqda Alisher Navoiy asarning o'zida shunday ma'lumotlar bergan:

Kim bu daftar nazmidin kulli murod,

Chunki marja' mayli erdiyu maod.

Munda foniy bo'lmay ish o'lmas tamom,

Foniy ondin topti nazimim ehtimom [Навоий (h) 2011, 286].

Ya'ni, "bu daftar" – "Lison ut-tayr" asarini yozishdan umumiy maqsad asl manbaga qaytib borishni tasvirlashdan iborat. Bu esa insondan foniy bo'lishni talab etadi. Asarning "Foniy" taxallusi bilan yozilishiga ham bu bir sabab sifatida ko'rsatilgan. Shu misolning o'zi ham dostonning tasavvufiy mavzuda yozilganiga shubha qoldirmaydi.

Alisher Navoiy o'z ijodi doirasida juda ko'plab tasavvufiy obrazlar yaratgan. Ularning aksariyati prototip asosida, ya'ni zamirida konkret tarixiy shaxs bo'lgan obrazlardir. Bu obrazlarning genezisini bilish uchun tasavvufning qanday manbalardan shakllanganligini chuqur bilish lozim. Tasavvufning ilk nazariyotchi olimlaridan Abu Nasr Sarroj o'zining "Al-Lum'a" asarida Qur'oni karimdagi "Alloh adolat ila turib, albatta, Undan boshqa iloh yo'qligiga

guvohlik berdi, farishtalar hamda ilm egalari ham (shunday guvohlik berdilar)” (Olim Imron, 18-oyat) oyatini asos qilib shunday yozadi: “Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning “Olimlar payg‘ambarning vorislaridir” degan hadislarini rivoyat qilingan. Mening tushunishimga ko‘ra, Alloh bilar, ammo, oyatda kelgan “adolat ila turib guvohlik beradigan” ilm sohiblari payg‘ambar vorisi bo‘lishga loyiq kimsalardir. Chunki ular Allohning Kitobini tutgan, Rasulullohga muvofiq kelgan, as‘hob va tobeinning yo‘liga kirgan taqvo ahli va solih kishilarning yo‘rig‘ini o‘zlashtirgan kimsalardir. Bular uch guruhdir: muhaddislar, faqihlar va tasavvuf arboblardir. Mana shu uch guruh Allohning vahdoniyatiga shohidlik beradigan va payg‘ambar vorisi bo‘lishga loyiq kishilardir” [Serrac 1996, 10].

Ko‘rinadiki, Sarroj tasavvuf ahlini muhaddis va faqihlar bilan bir qatorga qo‘yib, uning asos manbalarini Qur‘on, Sunnat va salafi solihlarning yo‘llari tashkil qilishiga urg‘u bergan. Junayd Bag‘dodiyning quyidagi so‘zlari ham bunga uyg‘undir: “Ushbu yo‘limiz asllar: Kitob va Sunnat bilan bog‘lab qo‘yilgan. Kim kitobni hifz qilmasa, hadis yozmasa, faqih bo‘lmasa unga ergashilmaydi” [Муҳосибий 2020, 184].

“Lison ut-tayr”dagi shoir nuqtayi nazari, estetik ideali komil inson, uning vositasi esa tasavvuf ta‘limotidir. Buning uchun Alisher Navoiy Attor asaridagi vahdat ul-vujud falsafasiga o‘ziga xos tarzda yondashgan. Turk adabiyotshunosi Ogoh Sirri Levendning qayd etishicha, “Navoiy Attordagi vahdat ul-vujud falsafasini yetarli darajada yumshatib, tasavvufdagi bu ta‘limotni ahli sunnat qarashlariga yaqinlashtirishga intilgan” [Levend 1965, 238].

Haqiqatdan ham, Alisher Navoiy mansub bo‘lgan naqshbandiya tariqatida Abn Arabiyning vahdat ul-vujud falsafasiga qiziqish Bahouddin Naqshbandning shogirdi Xoja Muhammad Porso ilmiy faoliyatidan boshlanib, Abdurahmon Jomiyning ilmiy-ijodiy faoliyatida o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Jomiy tomonidan Ibn Arabiyning bir qator asarlariga sharhlar bitilgani buning dalilidir. Alisher Navoiyning o‘zi “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida Abdurahmon Jomiyning tasavvufga doir sharh asarlarining nomini sanar ekan, ularni shaxsan o‘zining iltimosiga binoan yozilganligini shunday ta‘kidlagan: “...bu faqir alar tasnifig‘a sabab va ta‘lifig‘a bois bo‘lubmen” [Навоий (f) 2011, 767]. Tasavvufshunos olim J.Xolmo‘minov naqshbandiyaning vahdat ul-vujud ta‘limotiga munosabati haqida shunday yozadi: “Naqshbandiya ta‘limoti Ibn Arabiyning Vahdat ul-vujud falsafasini ma‘lum darajada o‘ziga singdirdi, ammo buni Hanafiya fiqhiy-aqidaviy prinsiplaridan chetga

chiqmagani holda amalga oshirdi. Natijada, Naqshbandiya ta'limoti irfon falsafasi bilan o'zini nazariy-ilmiy jihatdan mustahkamlab oldi va shu bilan birga uni naqshbandiylikka moslashtirishga ham muvaffaq bo'ldi" [Холмўминов 2020, 153].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "Lison ut-tayr" asari kompozitsiyasi ham shoirning badiiy niyati, e'tiqodiy-tasavvufiy qarashlari bilan uzviy bog'liq holda tuzilgan. Asardagi an'anaviy hamd, munojot, na't-me'roj boblaridan so'ng to'rt xalifa vasfiga bag'ishlangan boblarga o'rin berilib, ular hayotidagi eng muhim voqealarni keltirish bilan asosiy fikr to'ldirilgan. Dastlab, birinchi xalifa Abu Bakr Siddiq (r.a.) ta'riflangan bobda uning islom va Payg'ambar (a.s.) uchun qanchalik fidoyilik, jonbozlik ko'rsatgan shaxs ekaniga urg'u berilgan. Unga ilova qilingan hikoyatda esa uning islom ruknlarining yaxlitligini saqlashda qanchalik kuchli ehtimom sohibi ekaniga e'tibor qaratilgan:

*Mustafodin so'ngra ahli irtidod,
Chun xilofatqa ul o'ldi istinod,
Din tariqida adovat tuzdilar,
Kim hujum aylab jadal ko'rguzdilar.
Bergali islom ruknig'a halal,
Kim zakot aylab ayon erdi jadal.
Ul g'azab aylab bu nav' etti xitob,
Kim nabi qonunidin bir rishtatob –
O'ksamak tag'yir ila imkoni yo'q,
O'ksutur elga qilichdur, dog'i o'q*

[Навоий (h) 2011, 20].

Alisher Navoiy asarda Abu Bakr Siddiq siyratini chizar ekan, unga islom tarixidagi aniq bir voqealarni asos qilib olgan. Xuddi shu voqeani mashhur olim Jaloliddin Suyutiy o'zining "Tarix al-xulafo" asarida ham Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari asosida bayon qilgan [Суютий 2020, 52 – 53].

Keyingi bobda Hazrat Umar Foruq (r.a.) obrazi tasvirlanadi. Unda xalifa Umar shaxsiyatidagi adolat, qanoat va saxovat sifatleri haqida so'z boradi. Jumladan, uning ehson dasturxonidan jahon ahli to'ysa ham, o'zining ochligini unuttirish uchun qorniga g'isht bog'lab yuradi:

*Xoni bazlidin jahon ahli to'yub,
Ul o'zin to'yg'org'ali kirpich qo'yub*

[Навоий (h) 2011, 21].

Nafsini ehtisob qilishda o'zini umuman ayamasligi, hatto

o'z farzandiga ham shafqat qilmasligi qalamga olingan:

*Nafsini o'lturgon ichibon zahri nob,
O'g'lun o'lturgon qilurda ehtisob*

[Навоий (h) 2011, 21].

Jaloliddin Suyutiyning yuqorida tilga olingan asarida Umar (r.a.)ning o'z nafsini doimo jilovlab turishi haqida Abdulloh ibn Umar tilidan quyidagi voqea keltirilgan: "Bo'yniga mesh ortib olgan Umarni ko'rgan odamlar: "Bunday qilmang, bu nima qilganingiz?" deb koyishdi. Umar dedilar: "Nafsim kibrga ketib qolyapti, shuning uchun uni pasaytirmoqchiman" [Суютий 2020, 103]. Bu holat tasavvufdagi nafs riyozatining asosidir. Mazkur bobga ilova qilingan hikoyatda xalifa Umar obrazining yana bir qirrasini – uning dunyo moliga umuman iltifoti yo'qligi namoyon bo'ladi: uning xalifaligi davrida Madoyin fath etilib, sultonlarning necha yuz yillik xazinalari qoshida jamlanganida aqlni shoshiradigan bunday boylikka ko'z qirini ham tashlamaydi.

Asarning XI va XII boblarida Hazrat Ali (r.a.) obrazi gavdalanitiriladi. Alisher Navoiy, eng avvalo, Hazrat Ali (r.a.) siyratidagi ilm va valoyat sifatlarini tilga oladi:

*Ilm daryosi, valoyat gavhari,
Olam ahlida ajoyib mazhari* [Навоий (h) 2011, 24].

Haqiqatdan ham, Hazrat Ali (r.a.) sahobalar ichida eng ilimli zot ekani bilan ajralib turgan. "Sahobalar ichida yettita buyuk qozi, hukm va fatvo beruvchi bo'lgan. Ulardan biri Hazrati Ali, yana birlari Oysha onamiz edilar... Faqatgina Hazrati Alining fiqhiy ilmlari Hazrati Umardan ustun edi. Ba'zi fiqhiy masalalarni Ali (roziyallohu anhu)dan so'rardilar" [Жўшон 2018, 37]. XII bobdagi hikoyatda Hazrat Ali (r.a.)ning yana muhim sifati – ibodat asnosida suyagiga qadalgan o'qni sug'urib olganda ham sezmaydigan darajada o'zini unutishi haqida so'z boradi. Alisher Navoiy undagi bu sifatni "Nasoyim ul-muhabbat" asarida so'fiylarning ham eng muhim sifatlaridan biri deb ko'rsatadi: asarning muqaddima qismida bayon qilinishicha, so'fiylar namoz ibodatiga shu qadar katta e'tibor qaratar ekanlarki, Boyazid Bistomiyning namozdagi holati haqida shunday deyiladi: "...sulton ul-orifin Shayx Abu Yazid Bistomiy q.s. namoz qilsa erdilar, qa'qa alarning ko'ksi so'ngaklaridin chiqar erdi. Haq s.t. haybatidin va shariat ta'zimidin va hozir xalq eshiturlar erdi" [Навоий (i) 2011, 94].

Bulardan tashqari Alisher Navoiy xulafoyi roshidinni "Nazm ul-javohir" asarining kirish qismidagi bir ruboiyda ham xuddi "Lison

ut-tayr" da ta'riflangan sifatlar bilan tilga olgan:

*Avvalg'ini fazl durrig'a ummon bil,
Soniysini adl gavharig'a kon bil,
Solisni hayo gulbunig'a bo'ston bil,
Robi'ni valoyat badanig'a jon bil* [Навоий (i) 2011, 31].

Ya'ni, Abu Bakr Siddiq – fazl durrining ummoni, Umar – adolat gavharining koni, Usmon – hayo gulining bo'stoni, Hazrati Ali esa valoyat badanining joni, deya vasf etilgan.

Alisher Navoiy nega tasavvufiy mavzudagi dostonining aynan shu o'rnida xulafoyi roshidin obrazlariga o'rin bergan, degan masalaga yana qaytadigan bo'lsak, birinchidan, shoir bu orqali o'z dini buyurgan e'tiqod va odob namunasini ko'rsatgan. Ya'ni, islomiy odobga ko'ra, Payg'ambar (a.s.)dan so'ng kishilarning eng afzali deb chahoriyorlar e'tiborga olinishi lozim. Bu haqda So'fi Olloyor "Sabot ul-ojiziyn" manzumasida shunday deydi:

*Nabiyilar so'nggidin bilgil batahqiq,
Ki inson afzali Bu Bakr Siddiq.
Ki andin so'ng Umardur, so'ngra Usmon,
Ki andin so'ng Ali, beshubha, ey jon* [Оллоёр 1991, 19].

Ikkinchidan, Payg'ambar (a.s.)dan so'ng to'rt xalifa siyмосi so'fiylar uchun andoza – etalon bo'lishi lozimligiga ishora qilingan. Tasavvuf nazariyasiga doir fors tilidagi birinchi asar muallifi Mustamliy Buxoriy (vaf. 1043 y.)ning "Sharh at-Ta'arruf" asarining ko'pgina o'rinlarida sahobalar, shuningdek, tobeinlar orasidan yetishib chiqqan so'fiylarning hayot yo'llari keyingi davr tasavvuf vakillari uchun namuna bo'lib xizmat qilganligi eslatib o'tilgan [Раҳимов 2020, 123]. Zero, turk olimi Hasan Komil Yilmaz to'g'ri ta'kidlaganidek, "Oyat va hadislarda anglatilgan, Payg'ambarimiz va as'hobining yashagan ruhoniy hayoti tasavvufiy hayotning asosini tashkil etadi" [Yilmaz 2004, 45].

Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida murshid va murid obrazlari badiiy asardagi obrazlar tizimini birlashtirib turadigan asosiy o'ringa egadir. Murshid, ya'ni pir, ustoz obrazi Navoiy g'azaliyotida turli usullar, tasviriy vositalar orqali badiiylashtirilgan. Masalan, quyidagi baytda "pir" yoki "murshid" so'zlari bevosida ishlatilmay, balki uning sifati bo'lgan "ogoh" so'zidan foydalanilgan:

*Navoiy bor esang ogah, salomat mulki ham xushtur,
Valekin rahbaring bo'lsa yo'li qat'ida ogohe*

[Навоий (e) 2011, 582].

Ya'ni, mazkur baytdan ey Navoiy, ogohlik darajasiga yetgan bo'lsang, salomatlik mulki ham senga ziyon emas. Faqat sharti shuki, ogohlik manziliga ogoh rahbar – pir bilan yetgan bo'lishing kerak, degan umumiy ma'no chiqarish mumkin. Boshqa bir g'azalida shoir bu obrazlarni payg'ambarlar tarixi vositasida badiiylashtiradi:

Pirsiz kezma bu vodiy ichrakim, topmas Kalim

Tiyra shomin ravshan amr etmay anga xidmat Shuayb

[Навоий (а) 2011, 72].

Alisher Navoiy estetik idealini asarlarida komil insonlar obrazida mujassamlashtirishga harakat qilgan. Bu idealni shoir asarlarida ustoz, pir obrazlari bilan ham chizib ko'rsatadi. Navoiy yaratgan obrazlar, asosan, uning tasavvufiy dunyoqarashidan shakllangan bo'ladi. Zero, "...obraz muayyan dunyoqarash bilan yo'g'rilgan aql mahsuli hamdir" [Адабиёт назарияси 1978, 108].

Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asaridagi pir obrazi vositasida tasavvufning eng muhim axloqiy-estetik tamoyillarini ilgari surgan. Dostonning 95-bobida tasvirlangan Abu Turob Naxshabiy va uning muridi haqidagi hikoyatda so'fiylikning muhim axloqiy sifati – tavoze' va uning ziddi bo'lgan riyo, zohirbinlik, manmanlikning zarari haqida gap boradi. Nima uchun zohirbinlik tasavvufda malomat qilingan, degan savolga Abdulloh Ansoriyning ushbu fikri javob bo'ladi: "Botiningni zohiringdan afzal ko'rki, zohir xalqning nazargohi bo'lsa, botin Haqning nazargohidir" [Бертельс 1965, 304]. Bunga aynan uyg'un fikr naqshbandiya tariqatiga doir manbalarda ham uchraydi. "Rashahotu ayn ul-hayot" asarida Abdulxoliq G'ijduvoniy aytadiki: "Zohiringga oro bermagilkim, zohirning oroyishi botinning xarobliqidin turur" [Али Сафий 2004, 37]. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida tashqi ko'rinishiga oro beradigan erkaklarni malomat qiladi: "Eranlar yasanmog'ikim, namoyish uchundir, xotinlar bezanmagidekdurki, oroyish uchundir. Agarchi bu ma'no ikkalasiga qabihdir, ammo erkaklarga mujibi tafzihdir" [Навоий (h) 2011, 501].

Hikoyat tahliliga kirishishdan oldin shunga e'tibor berish kerakki, Navoiy bu mavzudagi syujet bosh qahramoniga bejiz Abu Turob Naxshabiy ismini tanlamagan. Negaki, arab tilida "turob" tuproq ma'nosini anglatadi. Tuproq esa xokсорlik va tavoze' ramzidir. Hikoyatning umumiy g'oyasi ham xokсорlikka targ'ibdir. Tasavvuf axloqiga binoan azizlikka, baland martabaga tavoze' orqali erilishadi. Navoiyning quyidagi baytida shu ma'no ko'zda tutilgan:

El ayog'ig'a tushardin boshqa chiqmoq rasmini,

May kuhanpiridin ushbu dayr aro irshod bil [Навоий (а) 2011, 385].

Baytda tilgan olingan "may kuhanpiri" — tavhid asroridan solikni ogoh etuvchi piri tariqat, murshid. U solikni bu dunyoda el oyog'i ostida tuproq kabi yastanib yotishdan avliyulloh darajasiga yetib olguniga qadar tarbiyalab, so'ngra ruxsatnoma beradi" [Salohiy 2018, 99].

"Lison ut-tayr" hikoyatidagi Abu Turob Naxshabiy ham o'z muridida zohirbinlik illati bo'y ko'rsata boshlaganini mulohaza qiladi:

*Bir muridi holig'a solib nazar,
Zeb-u ziynatdin topar erdi asar.
Hirqasida vuslalar erdi orig',
Ranglar onda qizil, yoshil, sorig'.
Mayl ko'p nafsig'a ra'nolig' sori,
Kisvati faqr ichra zebolig' sori* [Навоий (h) 2011, 145].

Ustoz shogirdini bu "dard"dan tuzatish uchun avval yengil muolajalarni qilib ko'rdi, lekin o'zgarish bo'lmaydi:

*Ko'p riyozatlar buyurdi pir anga,
Ul takalluf topmadi tag'yir anga* [Навоий (h) 2011, 145].

Shundan so'ng muridning holatidan kelib chiqib o'zgacha bir davo usulini qo'llaydi. Ruhiy tarbiya kitoblarida shunday uqdiriladiki, "Muridlar nafsining davolovchisi ularning hammasiga ham bir xil riyozatni belgilayvermasligi kerak. Avvalo, hamma dardni bir xil dori bilan davolab bo'lmaydi" [Муҳаммад Юсуф 2014, 216]. Abu Turob Naxshabiy qo'llagan o'ziga xos davo usuli quyidagicha:

*Har kun o'z nafi bila razm aylamak,
Dog'i dorussalxqa azm aylamak.
Bir sabadga qo'yning ich-olotini,
Solibon ihshou qozurotini,
Bosh uza oni qo'yub, mahkam tutub,
Mehnatu ranjiddin oning qon yutub.
Qatralar haryon tomib dastoridin,
Oni o'tkargay Nasaf bozoridin* [Навоий (h) 2011, 145].

Shogirdga bunday riyozat buyurilishining sababi u muhtalo bo'lgan ma'naviy xastalik sababidandir. Negaki, "Murshid hakimga o'xshaydi. Hakim o'ziga murojaat qilgan xastani uning kasalligi, organizmining xususiyatlari, kasallik bilan qanday kurasha olishiga

qarab davolasa, murshid ham o'ziga murojaat qilgan kimsalarga shunday tashxis va davo qiladi" [Yilmaz 2004, 187]. Muridning kasalligiga qarab tayinlangan muolaja ham o'z natijasini ko'rsatadi:

Nafsig'a oning yetib mundoq inod,

Necha kun bu ish topti imtidod.

Hirqasida qolmadi zebolig'i,

Boshidin chiqdi bori ra'nolig'i...

To maqomi bo'ldi ayvoni vusul,

Harne matlubig'a yuz qo'ydi husul. [Навоий (h) 2011, 145 – 146].

Tahlil qilingan bu hikoyat asarning bundan oldingi bobida qo'yilgan masalaga ilustrasiya vazifasini o'tagan. Unda asarning bosh qahramoni – majoziy obraz Hudhudga qushlardan biri o'z tabiatidagi "talavvun" – sabotsizlikdan shikoyat qiladi. Talavvunning aksi istiqomat bo'lib, tasavvufda oliy maqsad yo'lidagi har qanday katta-yu kichik amallarni bajarishdan og'ishmaslik, sobitqadamlik tushuniladi. Bu fazilat, albatta, pirning tarbiyasi bilangina kamolga yetadi, deb hisoblangan. Hudhud bu kasallik pir rahbarligidagi riyozat orqali tuzalishi mumkinligini aytadi:

Bu maraz topmish riyozatdin iloj,

Kim kishiga mustaqim o'lgay mizoj.

Nafsidin har kimgakim bu bim erur,

Chora murshid oldida taslim erur [Навоий (h) 2011, 144].

Xulosa

Bu singari talqin va mulohazalar Navoiy dahosining asarlari qatiga singdirilgan shoir badiiy niyatlarini uning o'zi nazarda tutganidek ochib bera olmaydi. Zero, "...asarni o'quvchiga taqdim etishda, u orqali o'zining badiiy tafakkuri va iste'dodini namoyish etishda muallif imkoniyatlari kengroq, albatta u talqin etuvchidan oldingi o'rinda turadi" [Салоҳий 2005, 22]. Alisher Navoiy ijodiy tafakkurinnig sarhisobi, cho'qqisi bo'lgan bu dostonning talqini uchun imkoniyatlar ham hali bisyor. Shoir lirikasida qo'yilgan muammolarning yechimini shu asarning mohiyatini tushungandan so'nggina anglash mumkin. Birgina asar kompozitsiyasidagi mantiqni ilg'ay bilishning o'zi "Lison ut-tayr" va umuman, Alisher Navoiyning tasavvufiy pozitsiyasi haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitishi turgan gap.

Alisher Navoiy ijodidagi tasavvufiy obrazlar genezisini, eng avvalo, uning o'z ijodidan izlash lozim. Xususan, "Lison ut-

tayr" asarining o'ziga xos kompozitsiyasi va undagi muqaddimaviy boblarda tasvirlagan *xulafoyi roshidin* obrazlarini o'rganish shoirning boshqa asarlaridagi tasavvufiy obrazlar mohiyatini to'g'ri anglashning muhim omilidir.

Shuningdek, "Lison ut-tayr" asaridagi murshid va murid Alisher Navoiy estetik ideallarini, tasavvuf ta'limotining muhim nazariy masalarini o'zida umumlashtiradigan obrazlardir. Mazkur obrazlar shoir lirikasida anchayin siqqlik bilan, tafsilotlardan xoli ravishla tasvirlansa, epik asarlarida majoziy yoki tarixiy prototip obrazlar qatnashgan hikoyatlar orqali illustratsiya qilingan.

Adabiyotlar

- Levend, Agah Sırrı. 1965. *Ali Şir Neval. I.Cild. Hayatı, sanatı va kişiligi.* Ankara: Türk tarih kurumu basimevi.
- Salohiy, D. 2018. *Tasavvuf va badiiy ijod.* Toshkent: Navro'z nashriyoti.
- Serrac, Ebu Nasr Tusi. 1996. *El-Lüma. Islam Tasavvufu.* Istanbul: Altinoluk Yayinlari.
- Sulton, Izzat. 2005. *Adabiyot nazariyasi.* Toshkent: O'qituvchi.
- Yılmaz, Hasan Kamil. 2004. *Tasavvuf ve Tarikatlar.* Istanbul: Ensar.
- Али Сафий, Фахруддин. 2004. *Рашаҳоту айнил-ҳаёт.* Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти.
- Адабиёт назарияси. 2 томлик: 1-том. 1978. Тошкент: Фан.
- Бадахшоний, Муҳаммад Анвар. 2014. *"Ақидатут-Таҳовия" шарҳининг талхийси.* Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф таржимаси. Тошкент: Nilol-nashr.
- Бертельс, Е.Э. 1965. *Избранные труды: Суфизм и суфийская литература.* Москва: Наука.
- Жўрақулов, У. 2015. *Назарий поэтика масалалари.* Тошкент: Ғ.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Жўшон, Маҳмуд Асъад. 2018. *Пайғамбар алайҳиссалом меросхўрлари.* Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Муҳаммад Юсуф, Шайх Муҳаммад Содиқ. 2014. *Руҳий тарбия. 1-жуз: Покланиш.* Тошкент: Nilol-nashr.
- Муҳосибий, Ҳорис. 2020. *Рисолатул Мустаршидийн. Абдулфаттоҳ Абу Ғудда шарҳи. Таржимон: 3.Шосалимов.* Тошкент: Шарқ.
- Навой, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 1-жилд.* Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Навой, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 2-жилд.* Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Навой, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 3-жилд.* Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Навой, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 4-жилд.*

- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 5-жилд.* Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 7-жилд.* Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 9-жилд.* Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Навоий, Алишер. 2011. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 10-жилд.* Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Олим, С. 1992. *Ишқ, ошиқ ва маъшуқ.* Тошкент: Фан.
- Оллоёр, Сўфи. 1991. *Саботул-ожизийн.* Тошкент: Чўлпон.
- Раҳимов, К. 2020. *Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VII – XI асрлар).* Тошкент: Akademnashr.
- Салоҳий, Д. 2005. *Навоийнинг шеърий услуби масалалари.* Тошкент: Фан.
- Суютий, Жалолиддин. 2020. *Тарих ал-хулафо. Таржимон: Абдуллоҳ Шокиров.* Тошкент: Шарқ.
- Холмўминов, Ж. 2020. *Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва Нақшбандия таълимоти.* Тошкент: Tafakkur.
- Хондамир, Ғиёсиддин. 2018. *Макорим ул-ахлоқ. Форс тилидан К.Раҳимов таржимаси.* Тошкент: Akademnashr.
- Эркинов, А. 2018. *Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV – XX аср боши).* Тошкент: Tamaddun.

"Lison ut-tayr" composition and harmony of images

Alisher Razzakov¹

Abstract

This article analyzes Alisher Navai's work "Lison ut-Tayr" from a mystical point of view. Alisher Navai's unique views on Sufism and his

¹Alisher A. Razzakov – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: razzoqovalisher45@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0089-5874

For citation: Razzakov, A.A. 2023. "Lison ut-tayr" composition and harmony of images". *Golden scripts* 2: 93–110.

Naqshbandi doctrine are given the importance in the solution of the scientific problem posed before the article. Paying attention to the uniqueness of the composition of the work, it is based on the analysis that every section, every detail reflects Alisher Navai's first Islamic and mystical worldview. The importance of stories about the famous historical figures in the history of Islam in the introduction of the work to the correct understanding of the mystical nature of work and the illumination of artistry of the images are emphasized. The story of Abu Turab Nakhabi and his disciple described in the 95th chapter of work was also analyzed, and it was concluded that the most important moral and educational topics of Sufism were written in it. In covering the subject, besides the works of Alisher Navai, the poets who created on the mystical theme, the history of Islam, the opinions of classic and modern authors on mysticism were taken as a basis.

Key words: *"Lison ut-tayr", artistic creation, Islam, Sufism, composition, narrative, image.*

References

- Levend, Agah Sirri. 1965. *Ali Shir Nevai. I. Vol. Life, art and manhood*. Ankara: Türk Tarih Kurumu Basimevi.
- Salahi, D. 2018. *Sufism and artistic creativity*. Tashkent: Navroz publishing house.
- Serrac, Ebu Nasr Tusi. 1996. *El-Luma. Islamic Sufism*. Istanbul: Altinoluk Publications.
- Sultan, Izzat. 2005. *Literary Theory*. Tashkent: O'qituvchi.
- Yilmaz, Hasan Kamil. 2004. *Sufism and Sects*. Istanbul: Ansar.
- Ali Safi, Fakhruddin. 2004. *Rashahotu ainil-hayat*. Tashkent: Medical publishing house named after Abu Ali ibn Sina.
- Literary theory. 2-story: 1-story. 1978. Tashkent: Fan.
- Badakhshani, Muhammad Anwar. 2014. *Analysis of the commentary «Aqidatut-Tahaviya»*. Translated by Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Tashkent: Hilal publication.
- Bertels, E.E. 1965. *Selected Works: Sufism and Sufi literature*. Moscow: Nauka.
- Dzhorakulov, U. 2015. *Theoretical Poetics Issues*. Tashkent: creative publishing house named after Gafur Ghulam.
- Joshon, Mahmoud As'ad. 2018. *Heirs of the Prophet*. - Tashkent: creative publishing house named after Gafur Ghulam.
- Muhammad Yusuf, Sheikh Muhammad Sadiq. 2014. *Spiritual education. Part 1: Atonement*. Tashkent: Hilal publication.
- Muhasibi, Horis. 2020. *Risalatul Mustarshidin*. Commentary by Abdulfattah Abu Gudda. Translator: Z. Shosalimov. Tashkent: Shark.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 1*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 2*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.

- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 3*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 4*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 5*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 7*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 9*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Navoi, Alisher. 2011. *The Complete Works. 10 volumes: Volume 10*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.
- Olim, S. 1992. *Love, lover and lover*. Tashkent: Fan.
- Olloyor, Sufi. 1991. *Sabotul-ojizin*. Tashkent: Cholpon.
- Rahimov, K. 2020. *History of Movarounnahr Sufism: formation and systematization of doctrine (VII-XI centuries)*. Tashkent: Akademnashr.
- Salahi, D. 2005. *Issues of Navoi's poetic style*. Tashkent: Fan.
- Suyuti, Jalaluddin. 2020. *Tarikh al-khulafa*. Translator: Abdullah Shokirov. Tashkent: Shark.
- Kholmo'minov, J. 2020. *The Philosophy of Wahdat ul-Wujud and the Doctrine of Naqshbandiyya*. Tashkent: Tafakkur.
- Khondamir, Ghiyasiddin. 2018. *Makarim ul-Akhlaq*. Translation from Persian by K. Rahimov. Tashkent: Akademnashr.
- Erkinov, A. 2018. *Sources of interpretation of Alisher Navoi's "Khamsa" (15th - early 20th centuries)*. Tashkent: Tamaddun.

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” asarining o'zbekcha o'girmalaridagi ayrim yanglish ochiqklamalar to'g'risida

G'aybulla Boboyorov¹

Abstrakt

Maqolada XI yuzyillikda yashagan Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” (Turkiy so'zlar devoni) asarida tilga olingan bir necha eski turkcha so'zlarning qanday o'qilishiga to'xtalib o'tiladi. “Devon” shu choqqacha turk, o'zbek, ingliz, qozoq, rus, uyg'ur, fors, qirg'iz tillariga o'girilgan bo'lib, ularning sezilarli bir bo'lagida ayrim so'zlar to'g'ri o'qilmagani yoki noto'g'ri ochiqklamalar berilgani ko'zga tashlanadi. Bu holat, ayniqsa, “Devon”ning o'zbekcha, qozoqcha va uyg'urcha o'girmalarida birmuncha ko'proq uchraydi. Bunday yanglish ochiqklamalarning negizida esa “Devon”ning qo'lyozmasida ayrim so'zlarda nuqta tushishi yoki o'rin almashinuvi yotadi. Shuningdek, ayrim izlanuvchilar biror so'zni ochiqqlar ekan, asarning qo'lyozmasiga emas, o'zlaridan oldingi o'girmalarga tayanishgani, bu esa ayrim chalkashliklar keltirib chiqargani anglashiladi.

Ochqich so'zlar: *eski turkcha, Koshg'ariy, so'zlik, turkiy tillar, o'girmalar, yondashuvlar, yanglishuvlar, tuzatishlar.*

Kirish

Turkiy tillarning bugungacha aniqlangan ilk yirik so'zligi bo'lmish “Devonu lug'ati-t-turk” asarini turkiy tillarga o'girganlar orasida o'zbek tilchilarining o'ziga xos o'rni bor. Bu asar 1928-yilda K.Brokkelman tomonidan nemis tiliga, 1930-yillar so'ngida

¹*Boboyorov G'aybulla Bolliiyevich* – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi.

E-pochta: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3405-4325

Iqtibos uchun: Boboyorov, G. B. 2023. “Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” asarining o'zbekcha o'girmalaridagi ayrim yanglish ochiqklamalar to'g'risida”. *Oltin bitiglar* 2: 111–128.

esa turkiyalik Besim Atalay tomonidan Onado'li turkchasiga o'girilganidan ko'p o'tmay, o'zbek tilchilari ham ushbu so'zlikni o'z tillariga ag'darib, el-yurtga tanitishga intildilar. 1960-yillarda S. Mutallibov tomonidan "Devon"ning o'zbekchasi kun yuzini ko'rdi. 1980-yillarda asarning inglizcha Dankoff-Kelli va uyg'urcha o'girmalari chop etilgungacha yuqorida tilga olingan turkcha va o'zbekcha nashlaridan boshqa biror tilda "Devon" o'girmalariga ko'zimiz tushmadi. Biroq keyingi o'nyilliklarda "Devon"ning qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, rus, fors va xitoy tillariga ag'darilishi asardagi so'zlar bilan bog'liq yuzlab chigalliklarning yechilishiga olib keldi.

Keyingi yillarda turkiyalik tilchilar tomonidan "Devon"ning bir necha o'girmalari bosilib chiqishi bilan asarda uchraydigan so'zlarning ochiqlanmasi bilan bog'liq tortishuvlar o'z yechimini topa boshladi. Turkiyalik izlanuvchilarning B. Atalay tomonidan yo'l qo'yilgan yanglish o'girma va ochiqlamalarga aniqlik kiritib, ayrim so'zlarning o'qilishi, asarni ko'chirgan xattotlarning yanglishuvlari kabi kamchiliklarni tuzatishga intilganliklari ko'zga tashlanadi. Shunga o'xshash yondashuvlar asarning Dankoff-Kelli nashrida ham uchrab, ingliz tilli izlanuvchilar asarning B. Atalay, S. Mutallibov nashrlarida yo'l qo'yilgan ko'plab yanglish o'qishlarga tuzatishlar kiritilgan edilar. O'rnak uchun: Tärkän (Tarkan) – Taškän (Tashkan = Toshkent) deb tuzatib o'qilganidek, Yankänd – Baykänd (Poykent) kabi so'zlardagi nuqta almashinuvi yuzasidan kelib chiqqan chalkashliklarga aniqlik kiritildi [DLT 1985b(III), 68, 180]. Bunday yondashuv taniqli turkiyalik tilshunos olim A. B. Erjilasun nashrida ham kuzatiladi. U asarda uchraydigan nuqta almashinuvlaridan bir nechtasini tuzatgan bo'lib, so'zlarning tub turkiy ko'rinishini tiklashda ularning bugungi turkiy tillarda qay ko'rinishda uchrashiga ko'proq to'xtalgan [DLT 2014].


O'zbekistonda bajarilgan tadqiqotlar

Keyingi yillarda yuqoridagiga o'xshash yondashuvlar O'zbekistonda bajarilgan ayrim izlanishlarda ko'zga tashlana boshladi. Atoqli o'zbek tilshunosi Alibek Rustamiy "Devon"ni rus tiliga o'girar ekan, ko'proq so'zlarning to'g'ri yozilishini, ayniqsa, unli tovushlarning orfografik tomonlarini deyarli barcha o'girmalar negizida qarab chiqdi [DLT 2010].

2017-yilda "Devonu lug'ati-t-turk"ni o'zbek tiliga o'girgan Q.Sodiqov ko'plab so'zlarning yozilishi va ochiqlamasi yuzasidan yangicha yondashib, shu choqqacha yo'l qo'yilgan o'nlab

yanglishuvlarga tuzatish kiritdi. O'rnak keltiradigan bo'lsak, u Tarkan atamasini Taškän ko'rinishida berib bugungacha noto'g'ri ochiqqlanib kelinayotgan atamaga oydinlik kiritdi [DLT 2017, 176]. Shu bilan birga, Q. Sodiqov boshqa ko'plab izlanuvchilar kabi "Devon"da nuqta almashinuvidan *Yankand* deb o'qilgan Paykand (Poykend)ni *Yenkänd* (Yenkand) ko'rinishida keltirishiga to'laqonli qo'shilib bo'lmaydi [DLT 2017, 374]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, bizning izlanishlarimiz chog'ida ham Tarkan – Tashkan (Toshkent) deb tuzatilgan, Yankand – Poykend atamalariga aniqlik kiritilgan edi [Boboyorov 2006, 23-25; Babayar 2011, 313-321]. Qizig'i shundaki, biz bu kabi tuzatishlarni Dankoff-Kelli o'girmasidan xabarsiz bajargan edik.

"Devon"ning turli tillardagi o'girmalarida u yoki bu ko'rinishda ayrim yanglishuvlar uchrashining negizida quyidagi omillar yotadi:

1. "Devonu lug'ati-t-turk"ning Mahmud Koshg'ariy tomonidan yozilgan tub nusxasi bugungacha aniqlanmagan. Asar ko'chiruvchisi o'nlab so'zlarning yozilishida, ayniqsa, nuqta, harf belgilarining ust va ost nuqtalarini qo'yishda yanglishuvlarga yo'l qo'yan. O'rnak uchun:  **sengil** – **sebkil** "sepkil" [DLT 1941, 242].

2. "Devon"ni o'z tiliga o'giran tilchilar o'zidan oldingi o'girmalarda yo'l qo'yilgan yanglishuvlar ta'sirida qolganlar. O'rnak uchun: B. Atalay **Terken** deb keltirgan [DLT 1985^a I, 1985, 443] Toshkentning eski otlaridan birini S. Mutallibov **Tärkän** ko'rinishida bergan [DLT 1960 (I), 414], bunday yondashuv ushbu o'girmaning qayta nashrida ham o'rin olgan [DLT 2016, 78].

3. O'girish chog'ida o'z tilidagi so'z qolib, uning o'rniga qardosh tillarda qo'llanilgan so'zlarni berish. O'rnak uchun: S. Mutallibov "Devon"da uchraydigan **boynaq** so'zi uchun o'zbekcha "kaltakesak" so'zi o'rniga "kirtangkala deyilgan jonivor" deb ochiqqlama bergan [DLT 1963 (III), 190]. Bu yerda bu so'zning Onado'li turkchasidagi "kertenkele" ko'rinishi o'zbekcha "kaltakesak" so'zi o'rnida qo'llanilgan. Keyinchalik "Devon" uchun tuzilgan ko'rsatkich (indeks)da "bir xil kaltakesak" deb to'g'rilangan bo'lsa-da [Koshg'ariy 1963 (4), 72], Q. Sodiqov uni Onado'li turkchasidagi kabi "kirtangkala deb atalgan jonivor" deb o'girgani ko'zga tashlanadi [DLT 2017, 384]. Bunga o'xshash yondashuvlarga quyida ko'rib chiqiladiganidek, ko'proq "Devon"ning qozoqcha va uyg'urcha o'girmalarida ham duch kelinadi [DLT 1997; DLT 1998; DLT 2008].

"Devon"da uchraydigan turkiy so'zlar ochiqqlamasi bo'yicha bu

va bunga o'xshash yondashuvlar yana ko'plab uchrab, bunday holatga ayniqsa, unlilar va yozuv bichimi (orfografiya va paleografiyasi)da bir-biriga yaqin harf belgilari o'rnagida ko'p duch kelinadi. Quyida biz ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

1. "**Sanaç kesürgü** - narsa solish uchun qizil teridan qilingan maxsus idish, sonoch¹" [DLT 1960 (I), 340]. "Devon"ning ilk o'zbekcha o'girmasida bu so'z birikmasi **سناچ كسیرلو** **sanch kicirlü** deb yozilgan bo'lib, boshqa tillardagi o'girmalarida **sanaç käsirgü** / **sanaç kesirgü** ko'rinishlarida berilgan [DLT 1985^b, III: 153; DLT 2005, 466]. Bizningcha, chet ellik izlanuvchilar ham **kesürgü** o'qilishi kerak bo'lgan bu so'zni **käsirgü** / **kesirgü** ko'rinishlarida o'qib, birmuncha yanglishuvga yo'l qo'yishgan.

S. Mutallibovning bunday o'qishi negizida bu so'z birikmasining **سناچ كسیرلو** ko'rinishida birinchi so'zning s.a.n.ch o'laroq n - ch undoshlari orasida a (alif) unlisining yozilmasdan qolib ketgani, ikkinchi so'zda esa so'nggi k- undoshining l- ko'rinishida yozilgani yotadi. Izlanuvchilar ushbu so'z birikmasidagi ikkinchi so'z "Devon"ning boshqa betida **كسیرلو** ko'rinishida yozilganiga qarab uni **käsirgü** / **kesirgü** o'laroq o'qiganlar. "Devon" o'zbekcha o'girmasining birinchi jildidagi **كسیرلو** **kösürgü** so'zini "xalta, qop" deb o'giran S. Mutallibov ham [DLT 1960 (I), 452], keyinchalik asarning ko'rsatkich (indeks)ini tuzgan boshqa o'zbek tilchilari ham bu so'zga tayanib, **sanch kicirlü** so'z birikmasini **sanach käsürgü** deb o'qish kerakligiga urg'u berishlari kerak edi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, "Devon" ko'rsatkichini tuzuvchilar **كسیرلو** **kösürgü** so'zini "xalat, qop" berar ekan, "xalta" so'zini "xalat" ko'rinishida yozib, yanglishuvga yo'l qo'yganliklarini aytib o'tish kerak [DLT 1967, 157].

"Devon"ning o'zbekcha nashrida **sanch** deb o'qilgan so'zning **sanaç** (sanach) deb tiklanishida bu so'zning ko'plab turkiy tillarda **sanaç**, **çanaç** ko'rinishlarida saqlanib qolganiga tayanamiz. O'zbek shevalarida **sanoç** (**sənaç**) / **chanoç** (**çənaç**) "echki terisidan qilingan cho'ponlar xaltasi" ko'rinishlarida uchrashiga duch kelinadi [Жыраев 1969, 147].

2. "**qarsaq** - tulkilar jinsidan bo'lgan bir hayvon, uning oq, o'siq pochasidan po'stin qilinadi" [DLT 1960 (I), 439]. Bu so'z o'zbek adabiy tili va shevalarida "tulkiga o'xshash, biroq undan kichikroq yirtqich hayvon" ma'nosida **qarsâq** / **qarsaq** ko'rinishlarida uchrasa-da [O'TIL 2008, 253], "Devon"ning ilk va undan keyingi





¹ "Devon"ning indeksida bu so'z II, 340 - 1 betda deb ko'rsatilgan. Holbuki, u I, 340 - 1 berilgan [Koshg'ariy 1960, (1), 340].

o'girmalarida uning bu ko'rinishini uchratmaymiz [DLT 1960 (I), 439; DLT 1967, 353; DLT 2017, 188]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Mahmud Koshg'ariy keltirgan so'zlarning ko'pchiligi o'zbek tilida yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, ko'plab so'zlar o'zbekchaga o'girilar ekan, berilmasdan qolib ketgani ko'zga tashlanadi. Bu esa "Devon"dagi so'zlar bilan tanishayotgan kishilarda, ayniqsa, qardosh ellarda (ozarbayjon, turk, uyg'ur, qozoq, qirg'iz va b.) "o'zbek tilida shunday so'z saqlanmagan ekan" degan tushunchalar kelib chiqishiga turtki bo'ladi.

3. "**Tagay** - tog'a, onaning aka-ukalari" [DLT (III), 174]. Bu so'zni Mahmud Koshg'ariy تَغَايُ الْاِخْوَانِ ko'rinishida bergan bo'lsa-da, "Devon"ning barcha o'zbekcha o'girmalarida uning "amaki" deb berilganiga duch kelamiz [DLT 1963 (III), 256; DLT 1967, 255; DLT 2016 (III), 165; DLT 2017, 405]. Kezi kelganda aytib o'tish kerak, 2016 yilgi o'zbekcha nashrda izlanuvchilar ruscha o'girmalaridagi "**tagay** - tog'a" (V. Radlovda: *amaki, tog'a*; Olmota nashrida: *tog'a (ona tomoni)*) ochiqdamasiga to'xtalib o'tishgan [DLT 2016 (III), 165]. Holbuki, bu so'z shu ko'rinishda turkiy tillar orasida eng ko'p o'zbekchada saqlanib qolgan bo'lib, uning **tagay, taga** "tog'a" ko'rinishlari bor [O'XShL 1971, 354]. Shuningdek, boshqa tillardagi o'girmalarida bu so'z "tog'a" anglamida beriladi: turkchada - "**dayi**" (tog'a) [DLT 2005, 522]; inglizchada **taɣay** "mother's brother [xāl]" (onaning og'a-inilari) [DLT (III), 174]; ruschada **tagāy** «дядя со стороны матери» (ona tomondan amaki) [DLT 2005, 921]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, eski turkchada bo'lgani kabi o'zbek tilida "tog'a" va "amaki" so'zlari boshqa-boshqa tushunchalar bo'lib, "tag'oy" so'zini "amaki" deb ochiqlash to'g'ri bo'lmaydi.


4. **Xitay** - Yuqori Chin (o'lkasi)ning oti" [DLT 1985b (III), 243 DLT 2017, 405]. Bu so'z "Devon"ning ilk o'zbekcha o'girmasida bir-ikki o'rinda "Xitay - Chindir", "O'rta Chin, buni Xitay deyiladi" [DLT 1960 (I), 64, 422-423] deb berilsa-da, boshqa o'rinda kelganda "**xitaj (xitay)** - yuqori mansab nomi" ko'rinishida noto'g'ri ochiqlama berilgani ko'zga tashlanadi [DLT 1963 (III), 256]. Bu esa asarning o'zbekcha qayta nashrida ham bunday ochiqlama o'rin olishiga turtki bo'lgan. Q. Sodiqovdan boshqalar خِتَائِي **xitaj** - yuqori mansab nomi" deb o'giran bo'lib, izlanuvchilarimiz asarning ruschasidagi "(V. Radlovda: *Xitoy*; Olmota nashrida: *Yuqori Chin* nomi) degan ochiqlamalarni keltirib o'tadiki, bu esa o'quvchida "demak, ruscha o'girmalarda yanglishuvlarga yo'l qo'yilan ekan-da" degan tushunchani keltirib chiqaradi [DLT 2016 (III), 165]. Bizningcha, asar qo'lyozmasidagi خِتَائِي اسم الصِّدِّيقِ الْعَلِيِّ - *xitāy ism aṣ-Ṣin al-'ulīyā*

“Xitoy – Yuqori Sin (Chin)ning otidir” deb berilishidan kelib chiqilsa [DLT 1941, faksimile: 550], “xitoy” atamasini “yuqori mansab nomi” deb ochiqlash butunlay o‘zini oqlamasligi oydinlashadi. Shu o‘rinda “Devon”ning boshqa tillardagi o‘girmalarida ham bu atama “Xitoy – Yuqori Sin (Chin)ning otidir” deb berilganini ko‘zdan qochirmaslik kerak [DLT 1985b (III), 243; DLT 2005, 645 va b.]. Kezi kelganda shuni aytib o‘tish kerak, “Devon”dan foydalanayotganda uning barcha tillardagi o‘girmalariga yuzlanish kerak bo‘ladi.

5. “**teñig** – havo (osmon)” [DLT (III), 185; DLT 2005, 551]. Qo‘lyozmada  ko‘rinishida berilgan [DLT 1941, faksimile: 604] bu so‘zni S. Mutallibov  **sögyk** – havo” deb o‘qigan [DLT 1963 (III), 377]. “Devon”ning 2016 yilgi qayta nashrida tilchilarimiz  **sögyk** – havo” deb ochiqlashlariga, Q. Sodiqovning esa  **yeñäk** “havo” deb o‘qishiga qo‘shilib bo‘lmaydi [qar. DLT 2016, 243; DLT 2017, 447]. Birinchidan, bu so‘zning yozuv bichimi bunga yo‘l bermasa, ikkinchidan, na eski turkchada va na bugungi turkiy tillarda “havo” so‘zi “so‘gük” yoki “yeñäk” ko‘rinishida uchraydi. Bu so‘zni “**teñig**” o‘laroq o‘qish kerakligini “Devon”da uchraydigan shu kabi so‘zlar ham qo‘llab-quvvatlaydi: 1) **qush teñdi** – qush osmonga ko‘tarildi; 2) **teñyrdi** – juda baland uchirdi; 3) **teñitti** – (o‘qni) balandlatib otdi; 4) **teñtyrdi** – uchirdi [DLT 1963 (III), 398, 400, 405-406].

“Devon”ning chet ellardagi o‘girmalarida esa bu so‘z quyidagicha berilgan: V. V. Radlovda: “*tepäk* – havo”; Olmaota ruscha nashrida: “*tañik* – havo” [DLT 2005, 1013], qozoqcha “*teñek* – aua (havo) [DLT 1998 (III), 491] ko‘rinishlarida keltirilgan bo‘lib, 2016 yilgi o‘zbekcha nashrda bu o‘qishlar o‘rinsiz tanqid qilingan [DLT 2016, 243]. Turkiyalik izlanuvchilar bu so‘zni **tengig ko‘rinishida keltirganlar** [DLT 2005, 551], inglizcha o‘girmasida so‘roq belgisi ostida **teñig** ko‘rinishlarida berilgan [DLT (III), 185].

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, A. Erjilasun yaqin yillarda bu to‘g‘rida to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, u B. Atalay va “Eski turkcha so‘zlik” (Drevnetyurkskiy slovar)da *teñek*, J. Kloson *teñig*, Dankoff-Kelli *teñig* (?) deb keltirilganiga urg‘u beradi. Unga ko‘ra, so‘zboshidagi t (te) harf belgisi ustiga nuqta qo‘yilmagani ayrim yanglish ochiqlamalarni keltirib chiqargan. Uning yozishicha, B. Atalay to‘xtalib o‘tganidek qo‘lyozmadagi *teñitti* so‘zi bu so‘zda ham ilk harf belgisining t (te) bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, A. Erjilasun bu so‘zni *teñük* deb o‘qish kerakligini ilgari suradi [DLT 2014, 496].

6. **tikmäginçä** – tikmaguncha (ekmaguncha). “**tikmäginçä ünäs tilämäginçä bulmas**” –  tikma-

guncha unmas, tilamaguncha bulmas (topilmas)", ya'ni "Ekilmaguncha – daraxt o'tqazilmaguncha, hosil unmaydi, (biror maqsad ketidan yurib) istalmaguncha topilmaydi, qo'lga kiritilmaydi" degan otaso'zi – maqol "Devon"da keltirilgan bo'lib [DLT, 274], S. Mutallibov va 2016 yilgi o'zbekcha qayta nashrida unga "Bu so'z يکماکنجا tarzida berilgan bo'lsa-da, uni arabcha iboraga muvofiq, تکماکنجا *tikmägyncha* tarzida tuzatildi" deb yanglish ochiqlama berilgan [DLT 1963 (III), 28; DLT 2016, 2: 21, 26-ochiqlama]. Bundan tashqari, qayta nashrda matn orasida ushbu so'z تیکمکنجا ko'rinishida noto'g'ri yozilib ketgan [DLT 2016 (III), 21]. Biroq qo'lyozmada ushbu otaso'zidan oldin **tikmäk** fe'li keltirilgan bo'lib, undan keyin berilgan **tikmäkinçä** so'zi يکماکنجا ko'rinishida emas, to'g'ri yozilgani aniq ko'rinib turibdi [DLT 1941, facsimile: 274].

7. **boşlag** – bo'sh qo'yilgan (hayvon)" [DLT 1941, faksimile: 232]. O'zbekcha o'girmalarda bu so'z "bashlag" (**başlag**) [DLT 1960 (I), 429], turkcha va inglizcha o'girmalarida **boşlag** ko'rinishida keltirilgan [DLT 1985b, 1985, 77; DLT 2005, 176]. A. Rustamiyning 2010-yilda ruscha o'girmasida ham "bashlag" ko'rinishida berilgan bo'lib, ushbu tilchi olim Dankoff nashridagi **boşlag** ni qabul oilmagan [DLT 2010, 374]. Biroq bu so'z qo'lyozmada **boşlag** **yilqi** so'z birikmasi o'rnagida ham uchrab, so'z boshidagi ilk b – sh harf belgilari orasidagi belgining - (alif) yoki - (vav) ekanini aniqlash birmuncha qiyin [DLT 1941, faksimile: 232]. "Devon"da **boş** "erkin, bo'sh, bo'shatilgan" so'zi bilan birga **boşlaglandi** "takabburlandi" fe'li uchrashi [DLT 1963 (III), 137; DLT 1963 (II), 316] bu so'zni "bashlag" emas, "bo'shlag" o'qish kerakligini ko'rsatadi. Shu o'rinda bu so'zni **boşlag** deb o'qishimizni o'zbek shevalarida "**boşlag**" (boshlag) ("bo'sh: mallar boshlag' yuripti") so'zi uchrashi ham qo'llab-quvvatlaydi [Абдуллаев 1961, 29].

8. **tolarsuq** – oyoq to'pig'i; Bu so'z ko'pincha hayvonlarning orqa oyog'i (to'piq suyagi) ma'nosida ishlatiladi" [DLT 1960 (I), 460; DLT 2005, 575]. Bu so'z "Devon"ning deyarli barcha o'zbekcha o'girmalarida "oyoq izi" deb berilgan. O'rnak keltiradigan bo'lsak, S. Mutallibov "**tolarsaq** – oyoq izi. Bu so'z ko'pincha hayvonlar izi haqida so'zlanadi" deb o'girgan bo'lsa [DLT 1960 (I), 460], ushbu asarning ko'rsatkichini tuzgan tilchilar esa uni "**tolarsaq** (qar. **tolursuq** – oyoq izi – пята (животных))" deb ochiqlashgan [DLT 1967, 273]. K. Brokkelman bu so'zni "**tolarsuq** - Ferse, namentlich im Pferde" (tovon, ayniqsa, ot tovonini uchun qo'llaniladi) deb o'girgan [DLT 1928, 217]. "Devon"ni Onado'li turkchasiga o'girgan B. Atalay bu so'zning **tolarsuq** yoki **tolarsaq** o'qilishi yuzasidan quyidagicha

yoʻzgan: “Brokkelman bu soʻzni “tolarsuk koʻrinishida yoʻzgan boʻlsa-da, qirgʻiz (qozoq – G. B.) tilida u “tolarsak” oʻlaroq uchraydi. Radlov “tolarsak” degan soʻzga tushuntirish berar ekan uni “tizza qopqogʻi suyagi” deb ochiqaydi”) [DLT 1985a (I), 502]. B. Atalayga ergashgan koʻpchilik izlanuvchilar bu soʻz qoʻlyozmada “tolarsuq” oʻlaroq yoʻzilgan boʻlsa-da, uni “tolarsaq” koʻrinishida yoʻzadilar.

“Devon”ning oʻzga tillardagi oʻgirmalarida bu soʻz quyidagicha keltirilgan: ingliz. **تَلْرَسُق** **tolarsuq** – heel (animal)” (tovon (hayvonniki)) [DLT 1985 (III), 194]; qozoq. “**tolarsaq** – ayaqtin ekshesi. Ädette maldin artqi siragʻina qatisti aytiladi” (oyoq oʻkchasi (tovoni). Koʻpincha molning orqa oyogʻi uchun ishlatiladi) [DLT 1997 (I), 558]; rus. “**tolarsuk** – “Пятка”. Чаше всего это слово употребляется в значении “ступня животного” (“tovon”. Koʻpincha bu soʻz “hayvon tovon” anglamida qoʻllaniladi) [DLT 2005, 464]; uygʻur. “**تَلْرَسُق** **tolarsuq** – suk, sunjaq. Odatta hayvonlarning sunjiqi shundoq deyilidu” (suyak, tovon. Koʻpincha hayvonlarning tovon shunday deb ataladi) [DLT 2008 (1), 380]; fors. **تَلْرَسُق** “**tolarsaq** – poshna po. Beshtar baroi poi ‘aqibi shutur ba kor miravad (Oyoq tovon. Koʻpincha tuyaning orqa oyoqlari uchun ishlatiladi) [DLT 2004, 287]; Anadolu turk. “**tolarsuk** – topuk. Genellikle hayvanların topuğu için kullanılır” (tovon. Koʻpincha hayvonlarning tovon uchun qoʻllaniladi) [DLT 2005, 575].

Mahmud Koshgʻariy “tuya tovon” anglamidagi soʻzni “**tapan**” koʻrinishida keltirgan boʻlib [DLT 2017, 160], bu soʻz bugungi turkiy tillarning koʻpchiligida “tovon (inson va hayvonlar oyogʻining ostki qismi)” uchun ishlatiladigan “**tapan**”, “**taban**”, “**tavan**”, “**davan**” soʻzlari bilan bitta negizga ega. Demak, “Devon”dagi **tolarsuq** soʻzi bugungi turkiy tillarda **taban** (tovon, oyoqning eng ost qismi) soʻzidan birmuncha boshqacharoq maʼnoda qoʻllanilgan. Chamasi, bu soʻz tovon va oshiq suyaklarining orasidagi suyaklardan biri boʻlib, u koʻpincha uy hayvonlarining orqa oyogʻidagi suyaklardan birini bildirgan. Buni quyidagi oʻrnaklar ham qoʻllab-quvvatlaydi. Oʻzbek tilining Toshkent shevasida “**tolarsogʻ** – katta ustixon, suyak” maʼnosini bildiradi [OʻXShL 1971, 259]. Gʻafur Gʻulom quyidagi satrlarda bu soʻzni “hayvon suyagi” anglamida qoʻllaydi: “*Toʻkislik suprasida doimo chaynab toʻlarsoqlar, Qoʻqon umrboqi qobun, Denovdan nayshakar roming*” [Gʻafur Gʻulom 1954, 294].


Turkman tilida “**tolarsak** [tolorsok] – tuya va sigir oyoq-larining tizza terisi hamda undan qilinadigan choriq” degan maʼnoda keladi [TDDS 2016, 374]. Yuqorida keltirib oʻtilganidek, “Devon”ning qozoqcha oʻgirmasida “**tolarsaq** – oyoq

o'kchasi (tovoni). Ko'pincha molning orqa oyog'i uchun ishlatiladi" deb ochiqqlansa-da [DLT 1997 (I), 558], uning qozoq tilida saqlanib qolgani to'g'risida biror so'z aytilmaydi. Holbuki, qozoqlarda bu so'z ancha keng uchrab, quyidagicha ma'nolarda qo'llaniladi: 1. **Предплюсна** (у животных); косточка на задних ногах скота ("to'piq (hayvonlarda)); mol orqa oyog'ining suyagi). **Толарсақ сүектері - кости предплюсны** (to'piq suyagi); 2. **щиколотка** (о человеке) (to'piq (odamniki)). *Su tolarsaqtan aspaydy* - вода не выше щиколотки (Suv to'piqdan oshmaydi) [Qazaqsha - otyssha so'zdik / <https://sozdik.kz>; Қалиев 2014, 577]. Qirg'iz tilida **tolorsuk** "boldir va oshiq suyaklari orasidagi kichik suyak", "tizza suyagi" ko'rinishlarida saqlanib qolgan [Юдахин 1985, 247]. Xakas tilida **толарсых** - 1. Оyoq tarog'i (metatarsus), oyoqning ust suyagi. *hazıranıñ hazıgın da pırbespın, torbahtıñ tolarsıgın daa pırbespın* "tuyaning oshiq suyagini ham bermayman, buzoqning oyoq suyagini ham bermayman"; 2. Oshiq suyaklari saqlanadigan to'ruva" [Domajakov 1948, 112; Arikoğlu 2015].

Shuningdek, ayrim izlanuvchilarning **تولرساق** ko'rinishida yozilgan [DLT 1941, facsimile: 251] bu so'zni **tolarsaq** (tolarsaq) deb o'qish kerakligi to'g'risidagi qarashlariga to'laqonli qo'shilib bo'lmaydi. Uning turkmancha, qirg'izcha va xakaschada **tolorsog**, **tolorsuk** / **tolarsyx** ko'rinishlarida uchrashi bu ko'z qarashimizni kuchaytiradi.


9. "**bıçal** - sunnat qilingan ayol yoki bichilgan erkak, ot yoki har qanday bir (bichilgan) hayvon uchun bu so'z ishlatiladi" [DLT 1985b (III), 72; DLT 2005, 185]. "Devon"ning o'zbekcha nashrlarida bu so'z biroz boshqacha o'girilgan: **باجال** **bajal** - erlar, ayollar va hamma hayvonlarning kuchliroq, mahkamroq, pishiqrog'i [DLT 1960 (I), 373], **bachal** - akavachcha (коскопленный, кастрированный) [DLT 1967, 58]. O'zbekcha o'girmasining ko'rsatkichini tuzgan S. Mutallibov va boshqalar bu so'zning ma'nosini to'g'ri bergan bo'lsalar-da, yozuv bichimida biroz noaniqlikka yo'l qo'yishgan. Shuningdek, "Devon"ning 2017-yilda chop etilgan o'zbekcha o'girmasida Q. Sodiqov o'zidan oldingi ochiqklamalarga ergashib, bu so'zni **bäčäl (bachal)** - erlar, xotin-qizlar va hamma hayvonlarning kuchliroq, pishiqrog'i" deb o'giringan [DLT 2017, 158].



Asarning ozarbayjoncha o'girmasida "**bəçəl** - xedim insan, axta at ve sair heyvanlar" (bichilgan inson, axta ot va boshqa hayvonlar) deb keltirilgan [DLT 2006 (I), 392; DLT 2006 (IV), 79]. "Devon"ning boshqa tillardagi ko'pchilik o'girmalarida esa bu so'z **bıçal** ko'rinishida berilgan bo'lib [DLT 1985^b (III), 72; DLT 2005,

185], bizningcha, bunday yondashuv to'g'ridir. Mahmud Koshg'ariy bir necha o'rinda **biçmaq** (bichmoq, kesmoq, tilmoq) fe'lini keltirib o'tgan bo'lib, u bilan bog'liq **biçdi** (kesdi, tildi), **biçim** (tilim, kesim), **biçgu** (narsalarni kesuvchi asbob, bichg'i (o'zbek shevalarida)), **biçguç** va boshqa so'zlar uchraydi [DLT 1967, 67]. O'zbekcha va boshqa ko'pchilik turkiy tillardagi "**biçmaq**" (bichmoq, kesmoq) so'zi bilan bog'liq so'zlarning negizi eski turkchadagi so'zlarga borib taqaladi. Demak, bu so'zni **bajal** / **bachal** ko'rinishlarida keltirish o'zini oqlamaydi. Qolaversa, "Devon"da bu so'zning yozilishi va u bilan bog'liq ochiqlamalar bunday o'qishga to'laqonli yo'l qo'ymaydi:  [DLT 1941, fakismile: 198].

10. "**yarpuz** – bir xil xushbo'y o't, yalpiz" [DLT 2014: 365, 955]. "Devon"ning o'zbekcha o'girmalarida bu so'z "**jarbuz** - bir xil xushbo'y o't - o'simlik" deb o'girilgan bo'lsa-da [DLT 1963, III: 46; DLT 1967: 115], uni turkiy tillar orasida ko'proq o'zbek tilida "**yalpiz**", qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillarida "**jalpīs**" ko'rinishlarida uchraydigan o'simlik bilan tenglashtirish to'g'riroq. Buni Jizzax viloyatining Forish tumanida o'zbek tilining qarluq-o'g'uz aralash shevasida "**yārpuz**" (yalpiz) ko'rinishida saqlangani ham qo'llab-quvvatlaydi [O'XShL 1971, 130]. Shuningdek, Onado'li turkchasining ayrim shevalarida "**yarpuz**" so'zi uchrab, u "Ballıbabagillerden, çiçekleri birbirinden ayrı halka durumunda, nane türünden, kısa saplı, az veya çok tüylü, güzel kokulu bir bitki (Mentha pulegium)" (Mentha pulegium oilasiga kiruvchi, gullari bir-biridan ayri halqa ko'rinishida, yalpiz turidan, qisqa bandli, oz yoki ko'p tukli, xushbo'y hidli o'simlik) deb ochiqlanadi [<https://tr.wiktionary.org/wiki/yarpuz>].

Bu o'simlik turi "Devon"ning boshqa tillardagi o'girmalarida quyidagicha berilgan: ingliz. "**yarpuz** – basil (plant)" (rayhon (o'simlik)) [DLT 1985 (III), 217]; rus. "**yarbuz** – "bazilik", rastenie" ("rayhon", o'simlik) [DLT 2005, 771]; turk. "**yarpuz** – güzel kokulu bir ot, kır nanesi" (xushbo'y hidli o't – o'simlik, qir yalpizi) [DLT 1985a (III), 39], "fesleğen: bir bitki" (rayhon, o'simlik) [DLT 2005, 668] "**yarpuz** – yarpuz, bu bir bitkidir (Mentha pulegium)" (yalpiz, o'simlik turi) [DLT 2014, 365, 955].

11. "**buw** – mog'or, uzoq turib qolish yoki hidlanishdan non yuzida paydo bo'lgan ko'kimtirlik" [DLT 1963 (III), 143; DLT 1967, 76]. Bu so'z "Devon" qo'lyozmasida  "**buw** – al-xudra" (ko'kimtir) deb keltirilgan [DLT 1985b, 499] bo'lishiga qaramay, uni ko'pchilik izlanuvchilar **boq** ko'rinishida berib kelishadi [qar. DLT

1985a (III), 76; DLT 2005, 194; DLT 2014, 400, 593]. Ularga ko'ra, q (qof) harf belgisi ustiga keyinchalik bitta nuqta qo'shib qo'yilgan bo'lib, bu so'z qof bilan tugaydigan so'zlar sirasida kelgani uchun uni **boq** deb o'qish kerak bo'ladi [DLT 2014, 400]. Bu so'zni B. Atalay  **pow** deb o'qib, asar qo'lyozmasi bo'yicha ish olib borgan R. Kilisli uni  ko'rinishida yozganiga e'tiroz bildirib o'tgan [DLT 1985a (III), 129]. Unga ergashgan S. Mutallibov uni **buw** ko'rinishida bergan [DLT 1963 (III), 143]. Bizningcha, **buw** to'g'riroq bo'lsa kerak. O'zbek shevalarida "**buv** - nonning ustidagi mog'or", "biror narsa tagida qolib, ustida o'zgarishlar bo'lgan non" so'zi uchraydi. Shuningdek, "Devon"ning uyg'urcha o'girmasida "**pov** - puv. Uzun turib qolg'onliq yoki buzulg'onliqtin nonning ustida paydo bo'lg'on ko'k" [DLT 2008 (III), 178] deb ochiqnamasi ham turkiy tillarda bu so'zning eski turkcha **buw** "buv" ko'rinishi saqlanganini ko'rsatadi. Aytib o'tish kerak, "Devon"ning qozoqcha o'girmasida bu so'z "**buv**", ozarbayjonchasida "**pow**" ko'rinishida berilgan [DLT 1998 (III), 184; DLT 2006 (III), 136].

O'zbek tilining Forish shevasida **bug'ruqmoq** "mog'or-lamoq" (заплесневет, покрывается гнилью) so'zi uchraydi [O'XShL 1971, 56]. Bunga tayanib "mog'or" manosiidagi turkiy so'z eski turkchada va bugungi turkiy tillarda "buv" va "bug" ko'rinishlarida qo'llanilgan deb ochiqlasa bo'ladi.

12. "**qaq** - 1. danak, mag'iz; 2. qaq et. Qoq go'sht va har bir qotgan narsa. 3. Yomg'ir va sel suvidan paydo bo'lgan ko'l"; 4. O'rtasidan ikkiga bo'lingan har qanday narsa" [DLT 1963 (II), 326-327; DLT 2005, 400]. "Devon"ning boshqa tillardagi o'girmalarida bu so'zning uchta ko'rinishi berilgan bo'lib, 2005 yilgi turkcha o'girmasida to'rtta ma'nosi keltirilgan [DLT 2005, 400].

"Devon"ning o'zbekcha o'girmalarida bu so'zning "danak, mag'iz", "qoq go'sht", "yomg'ir va seldan keyin paydo bo'lgan ko'l" kabi ma'nodagilari berilgan bo'lib, "O'rtasidan ikkiga bo'lingan har qanday narsa" ochiqnamasi o'rin olmagan [DLT 1963 (II), 326-327; DLT 1967, 359]. "Devon"dagi kabi "qaq" so'zi o'zbek adabiy tilida va shevalarida "qoq", "qaq", "qaqi" ko'rinishlari saqlanib qolgan [O'TIL 2008, 353-354; Nafasov 2011, 431]. Shuningdek, o'zbek qipchoq shevalarida "**qaq / qa'q** - yomg'ir va seldan keyin to'planib qolgan kichik ko'lmak suv", "Lalmi yerlarda suv to'planib qolgan chuqur joy" anglamida ishlatiladi [Nafasov 2011, 431]. Bundan tashqari, o'zbek tilida bu so'z "markaz, o'rta joy" ma'nosida ham qo'llanilib, "Devon"dagi "O'rtasidan ikkiga bo'lingan har qanday narsa" ma'nosiga birmuncha yaqin keladi.

13. “**küb** – kub (idish)” [DLT 1941, faksimile: 494]. “Devon”ning ilk o‘zbekcha o‘girmasida bu so‘z “ko‘p” (многo) o‘laroq ochiqqlangan [DLT 1960 (I), 130; DLT 1967, 168]. Asarning 2016-yilgi o‘zbekchasida ham izlanuvchilar shunday yondashib, quyidagicha yozishgan: “Olmaota nashrida bu o‘rindagi ko‘b – *katta ko‘za, bochka*, deb berilgan. Izoh noto‘g‘ri” [DLT 2016 (III), 78]. Biroq “Devon”ning qo‘lyozmasida  **küb** – al-dann “kub” (idish) ko‘rinishida berilgan bo‘lib [DLT 1941, faksimile: 494], ko‘plab chet ellik turkologlar uni “**küp** – kub (suyuqlik idishi)” o‘laroq o‘girkanlar [DLT 1985a (III), 119; DLT 1985b (III), 114; DLT 2005, 334; DLT 2014, 396]. O‘zbekistonlik tilchilar orasida birgina Q. Sodiqov bu so‘zni **küb** – “kub” ko‘rinishida to‘g‘ri o‘girgan [DLT 2017, 364]. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, asarning qozoqcha va uyg‘urcha o‘girmalarida ham yanglishuvga yo‘l qo‘yilib “**kyp** – көр” (ko‘p) o‘laroq ochiqqlangan [DLT 1998 (III) 171; DLT 2008 (III), 165].

To‘xtam

Qisqasi, keltirib o‘tilgan bu kabi yanglishuvlar asar ustida izlanishlar olib borgan, uni o‘z tiliga o‘girib, izlanuvchilar-u el-yurtga tanitgan bilga – olimlarimizning xizmatiga hech qanday ko‘lanka tashlay olmaydi. Ayniqsa, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari bo‘yicha deyarli bir asrlik izlanishlar chog‘ida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritilganini aytib o‘tish kerak. Asar turli tillarga o‘girilar ekan, undagi so‘zlarning ochiqlanmasi yuzasidan ko‘plab yangi qarashlar o‘rtaga tashlanganini olqishlash kerak. “Devon”ning 1950- yillarda boshlab, bugungi kungacha bir necha bor o‘zbek tiliga o‘girilishi esa bilga – olimlarimizning ulkan yutug‘idir.

Adabiyotlar

- Абдуллаев 1961 – Абдуллаев Ф. *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*. Тошкент.
- Бобоёров 2006 – Бобоёров Ғ. “Беруний ва Маҳмуд Кошғарий асарларида туркий халқлар тарихининг ёритилишига доир”. *Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллик юбилейига бағишлаб ўтказилаётган “Мажлис Уламо ўрта аср Шарқининг йирик илмий маркази” номли илмий-амалий конференция материаллари*, 23-25. Тошкент.
- Домажаков 1948 – Домажаков Н. Г. *Орфографический словарь*. Пасталыҕ, читі чыллыҕ паза ортын школаларга. Пастағызын сыхча Хакасскай облоно чаратхан – Абакан: Хакоблнациздат.
- Жўраев 1969 – Жўраев Б. *Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари*. Тошкент:

Фан.

- Киргизско-русский словарь. 1985. Составитель К.К. Юдахин. Книга 1.
А – К. Фрунзе.
- ДЛТ 1960, I – Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1- том. Тошкент: Фан.
- ДЛТ 1963, II – Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 2- том. Тошкент: Фан.
- ДЛТ 1963, III – Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.
- ДЛТ 1967 – Девону луғотит турк. Индекс-луғат. Ғ. Абдурахмонов ва С. Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- ДЛТ 1997 – Қашқари М. Түрік сөздігі. 1-том. Аударған А. Егеубай. Алматы: ХАНТ.
- ДЛТ 1997 – Қашқари М. Түрік сөздігі. 2-том. Аударған А. Егеубай. Алматы: ХАНТ.
- ДЛТ 1998 – Қашқари М. Түрік сөздігі. 3-том. Аударған А. Егеубай. Алматы: ХАНТ.
- ДЛТ 2005 – Кашгари, М. Дивану лугат ат-тюрк [Текст]. М. Кашгари; пер., предисл. З. А. М. Ауэзовой. Алматы: Дайк-Пресс.
- DLT 2006 – Mahmud Kasğari. *Divanü lügat-it-türk*. I cild. Тәрсүмә едән вә нәсрә hazırlayan: R. Әskär. Bakı: Ozan.
- DLT 2006 – Mahmud Kasğari. *Divanü lügat-it-türk*. II cild. Тәрсүмә едән вә нәсрә hazırlayan: R. Әskär. Bakı: Ozan.
- DLT 2006 – Mahmud Kasğari. *Divanü lügat-it-türk*. III cild. Тәрсүмә едән вә нәсрә hazırlayan: R. Әskär. Bakı: Ozan.
- ДЛТ 2010 – Махмуд ал-Кашгари. *Диван лугат ат-турк* (Свод тюркских слов). В 3-х томах. Т. 1. Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И. В. Кормушина [Текст]. Махмуд ал-Кашгари. Москва.
- ДЛТ 2011 – Махмуд Кашгари. *Словарь тюркских языков*. Перевод на кырг. Т. Токоев, К. Кошмоков. Т. I. Бишкек.
- ДЛТ 2012 – Махмуд Кашгари. *Словарь тюркских языков*. Перевод на кырг. Т. Токоев, К. Кошмоков. Т. II. Бишкек.
- ДЛТ 2016 – Кошғарий, Маҳмуд. Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Нашрга тайёрл. Болтабоев, Б. Исабеков. Масъул муҳаррир.: Ҳ. Дадабоев. Тошкент: Mumtoz so'z.
- ДЛТ 2017 – Кошғарий, Маҳмуд. Девону-луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Нафасов 2011 – Нафасов Т. *Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати*. Тошкент: Муҳаррир, 2011.
- Қазақша – орысша сөздік / <https://sozdik.kz>.
- Қалиев 2014 – Қалиев Б. *Қазақ тілінің түсіндірме сөздігі*. Алматы.
- ЎТИЛ 2008 – *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилдди. Шукрона – Ҳ. А.

Мадвалиев тахрири остида. Тошкент.

- ЎХШЛ 1971 – Ўзбек халқ шевалари луғати. Масъул муҳаррир Ш.Ш. Шоабдурахмонов. Тошкент: Фан.
- Arıkoğlu 2005 – Arıkoğlu E. *Örnekli Hakasça – Türkçe Sözlük*. Ankara.
- Babayar 2011 – Babayar G. “Birünî ve Kâşgarlı Mahmud’un Bazı Orta Asya Yer Adlarını Türklerle İlişkilendirmesi Üzerine”. *Mahmūd al-Kâşğarî 'nin 1000. Doğum Yıldönümü Dolayısıyla Uluslar arası Dîvânü Luğâtî't-Türk Sempozyumu* 5-7 Eylül 2008, 313-321. İstanbul: EREN.
- DLT 1928 – Brockelmann C. *Mitteitürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kashgaris Divan Lugat at-Turk*. Budapest - Leipzig.
- DLT 1939 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt I. Ankara.
- DLT 1940 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt II. Ankara.
- DLT 1941 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt III. Ankara.
- DLT 1941, facsimile – Besim Atalay. *Divanü Lugat-it-Türk Tıpkıbasımı “Faksimile”*. Ankara.
- DLT 1943 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt IV. – Ankara, 1943.
- DLT 1985a – *Divanü Lūgat-it Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt I-IV. TDK yayınları: 521–524. Ankara.
- DLT 1982 – Mahmūd al-Kāşrārî. *Compendium of the Turkic Dialects* (Dîwān Luğāt at-Turk). Edited and Translation with Introduction and Indices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part I. Cambridge.
- DLT 1984 – Mahmūd al-Kāşrārî. *Compendium of the Turkic Dialects* ((Dîwān Luğāt at-Turk). Edited and Translation with Introduction and Indices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part II. Cambridge.
- DLT 1985b – Mahmūd al-Kāşrārî. *Compendium of the Turkic Dialects* (Dîwān Luğāt at-Turk). Edited and Translation with Introduction and Indices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part III. Cambridge.
- DLT 1981 – Məhmüt Kəşkəri. *Türki tillar divanı – Divanü lüğat-it-türk*. I tom. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 1982 – Məhmüt Kəşkəri. *Türki tillar divanı – Divanü lüğat-it-türk*. II tom. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 1982 – Məhmüt Kəşkəri. *Türki tillar divanı – Divanü lüğat-it-türk*. III tom. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 2008 – Mehmed Kaşgeriy - *Türkiy tillar divanı*. I-IV tomlar. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 2004 – *ديوان لغات التّرك شيخ محمود كاشغرى*. Prof. Dr. Hüseyin Düzgün. (Shayx Mahmud Kashghari. *Divan-ü Luğat-it Türk*. Edit. Hüseyin Düzgün (Hossein Mohammadzade Sadigh). Tebriz, 2004 (1383).
- DLT 1990 – *Divanü Lugat-it-Türk*. (Tıpkıbasım). Kültür Bakanhğı Yayınlan, Ankara.
- DLT 2005 – Kaşgarlı Mahmud. *Divänü Luğatî't-Türk*. Çeviri, Uyarlama,

Düzenleme Seçkin Erdi, Serap Tugba Yurteser. İstanbul:
Kabalıcı Yayınevi.

DLT 2014 - Kaşgarlı Mahmud. *Divānū Lugati't-Türk*. Hazırlayanlar: Ahmet
B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. Ankara, TDK.

TDDS 2016 – *Türkmen diliniñ düşündirişli sözlügi*. Düzüjiler: G. Kyásowa,
A. Geldimyradow, H. Durdyýew. Iki tomluk. II tom, K-Z. Aşga-
bat: Ylym.

<https://tr.wiktionary.org/wiki/yarpuz>

On the some mistakes in the Uzbek translations of Mahmud Kashgari's "Dīwān Luyāt at-Turk"

Gaybulla Babayarov¹

Abstract

In this article it is discussed how to read several Old Turkic words mentioned in the work by Mahmud Kāshgarī, who lived in the 11th century, "Dīwān Luyāt at-Turk" (Dictionary of Turkic Languages, briefly – Dīwān). The Dīwān has been translated into Turkish, Uzbek, English, Kazakh, Russian, Uighur, Persian, Kyrgyz languages. And in a large part of them it is noticeable that some words were misread or wrong statements were made. This situation is especially prevalent in the Uzbek, Kazakh, and Uighur versions of the Dīwān. At the basis of such erroneous statements lies the drop of a dot or the displacement of some words in the Dīwān's manuscript. It is also clear that some researchers, when interprets certain word, relied not on the manuscript of the work, but on the previous translations which caused confusions.

Key words: *Old Turkic, Kāshgarī, vocabulary, Turkic languages, translations, approaches, mistakes, corrections.*

References

- Abdullaev 1961 – Abdullaev F. *O'zbek tilining Xorazm shevalari*. Toshkent.
Boboyorov 2006 – Boboyorov G'. "Beruniy va Mahmud Koshg'ariy
asarlarida turkiy xalqlar tarixining yoritilishiga doir".
Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yillik yubileyiga

¹Gaybulla B. Babayarov – Doctor of Historical Sciences, Associate Professor,
National Center of Archaeology.

E-mail: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3456-3410

For citation: Babayarov, G. B. 2023. "On the some mistakes in the Uzbek translations of Mahmud Kashgari's "Dīwān Luyāt at-Turk". *Golden scripts* 2: 111–128.

bag'ishlab o'tkazilayotgan "Majlisi Ulamo o'rta asr Sharqining yirik ilmiy markazi" nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 23-25. Toshkent.

- Domajakov 1948 – Domajakov N. G. *Orfograficheskiy slovar*. Pastalig', chiti chillig' paza ortin shkolalarga. Pastag'ızyın sixcha Xakasskay oblono charatxan – Abakan: Xakoblatsizdat.
- Jo'raev 1969 – Jo'raev B. *Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari*. Toshkent: Fan.
- Kirgizsko-russkiy slovar*. 1985. Sostavitel K.K. Yudaxin. Kniga 1. A – K. Frunze.
- DLT 1960, I – Koshg'ariy, Mahmud. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 1-tom. Toshkent: Fan.
- DLT 1963, II – Koshg'ariy, Mahmud. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 2-tom. Toshkent: Fan.
- DLT 1963, III – Koshg'ariy, Mahmud. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov.
- DLT 1967 – *Devonu lug'otit turk*. Indeks-lug'at. G'. Abdurahmonov va S. Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida. Toshkent: Fan.
- DLT 1997 – Qashqari M. *Tyrik so'zdigi*. 1-tom. Audarg'an A. Yegeubay. Almati: XANT.
- DLT 1997 – Qashqari M. *Tyrik so'zdigi*. 2-tom. Audarg'an A. Yegeubay. Almati: XANT.
- DLT 1998 – Qashqari M. *Tyrik so'zdigi*. 3-tom. Audarg'an A. Yegeubay. Almati: XANT.
- DLT 2005 – Kashgari, M. *Divanu lugat at-tyurk* [Tekst]. M. Kashgari; per., predisl. Z. A. M. Auezovoy. Almati: Dayk-Press.
- DLT 2006 – Mahmud Kashgari. *Divanü lüğat-it-türk*. I cild. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: R. Əskər. Bakı: Ozan.
- DLT 2006 – Mahmud Kashgari. *Divanü lüğat-it-türk*. II cild. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: R. Əskər. Bakı: Ozan.
- DLT 2006 – Mahmud Kashgari. *Divanü lüğat-it-türk*. III cild. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: R. Əskər. Bakı: Ozan.
- DLT 2010 – Maxmud al-Kashgari. *Divan lugat at-turk* (Svod tyurkskix slov). V 3-x tomax. T. 1. Per. s arab. A.R. Rustamova pod red. I. V. Kormushina [Tekst]. Maxmud al-Kashgari. Moskva.
- DLT 2011 – Maxmud Kashgari. *Slovar tyurkskix yazikov*. Perevod na kirg. T. Tokoev, K. Koshmokov. T. I. Bishkek.
- DLT 2012 – Maxmud Kashgari. *Slovar tyurkskix yazikov*. Perevod na kirg. T. Tokoev, K. Koshmokov. T. II. Bishkek.
- DLT 2016 – Koshg'ariy, Mahmud. *Devonu-lug'ati-t-turk* (Turkiy so'zlar devoni). Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. Nashrga tayyorl. Boltaboev, B. Isabekov. Mas'ul muharrir.: H.Dadaboev. Toshkent, Mumtoz so'z.
- DLT 2017 – Koshg'ariy, Mahmud. *Devonu-lug'ati-t-turk* (Turkiy so'zlar devoni). Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

- Nafasov 2011 – Nafasov T. *Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati*. Toshkent: Muharrir, 2011.
- Qazaqsha – o'g'yssha so'zlik / <https://sozdik.kz>.
- Qaliev 2014 – Qaliev B. *Qazaq tiliniñ tysindirme so'zdigi*. Almaty.
- O'TIL 2008 – *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildli. Shukrona – H. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent.
- O'XShL 1971 – *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. Mas'ul muharrir Sh.Sh. Shoabdurahmonov. Toshkent: Fan.
- Arıkoğlu 2005 – Arıkoğlu E. *Örneklı Hakaşça – Türkçe Sözlük*. Ankara.
- Babayar 2011 – Babayar G. "Birunî ve Kâşgarlı Mahmud'un Bazı Orta Asya Yer Adlarını Türklerle İlişkilendirmesi Üzerine". *Mahmūd al-Kâşğarî 'nin 1000. Doğum Yıldönümü Dolayısıyla Uluslar arası Dîvānu Luğātî't-Turk Sempozyumu* 5-7 Eylül 2008, 313-321. İstanbul: EREN.
- DLT 1928 – Brockelmann C. *Mitteitürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kashgaris Divan Lugat at-Turk*. Budapest - Leipzig.
- DLT 1939 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt I. Ankara.
- DLT 1940 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt II. Ankara.
- DLT 1941 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt III. Ankara.
- DLT 1941, facsimile – Besim Atalay. *Divanü Lugat-it-Türk Tıpkıbasımı "Faksimile"*. Ankara.
- DLT 1943 – *Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt IV. – Ankara, 1943.
- DLT 1985a – *Divanü Lūgat-it Türk Tercümesi*. Çev. B. Atalay. Cilt I-IV. TDK yayınları: 521–524. Ankara.
- DLT 1982 – Mahmūd al-Kāşğarî. *Compendium of the Turkic Dialects* (Dîwān Luyāt at-Turk). Edited and Translation with Introduction and Indices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part I. Cambridge.
- DLT 1984 – Mahmūd al-Kāşğarî. *Compendium of the Turkic Dialects* ((Dîwān Luyāt at-Turk). Edited and Translation with Introduction and Indices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part II. Cambridge.
- DLT 1985b – Mahmūd al-Kāşğarî. *Compendium of the Turkic Dialects* (Dîwān Luyāt at-Turk). Edited and Translation with Introduction and Indices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part III. Cambridge.
- DLT 1981 – Məhmüt Kəşkəri. *Türki tillar divanı – Divanü lüğat-it-türk*. I tom. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 1982 – Məhmüt Kəşkəri. *Türki tillar divanı – Divanü lüğat-it-türk*. II tom. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 1982 – Məhmüt Kəşkəri. *Türki tillar divanı – Divanü lüğat-it-türk*. III tom. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 2008 – Mehmed Kaşgeriy - *Türkiy tillar divanı*. I-IV tomlar. Ürümçi, Şincanq Xəlik nəşriyyiti.
- DLT 2004 / 1383 – Shayx Mahmud Kashghari. *Divan-ü Luğat-it Türk*. Edit. Hüseyin Düzgün (Hossein Mohammadzade Sadigh). Tebriz.
- DLT 1990 – *Divanü Lugat-it-Türk*. (Tıpkıbasım). Kültür Bakanhğı Yayınlan,

Ankara.

DLT 2005 – Kaşgarlı Mahmud. *Divānū Lugati't-Türk*. Çeviri, Uyarlama, Düzenleme Seçkin Erdi, Serap Tugba Yurteser. İstanbul: Kabalcı Yayınevi.

DLT 2014 - Kaşgarlı Mahmud. *Divānū Lugati't-Türk*. Hazırlayanlar: Ahmet B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. Ankara, TDK.

TDDS 2016 – *Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi*. Düzüjiler: G. Kyýasowa, A. Geldimyradow, H. Durdyýew. İki tomluk. II tom, K-Z. Aşgabat: Ylym.

<https://tr.wiktionary.org/wiki/yarpuz>

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transleteratsiyasini berish ham mymkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mymkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarimas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr

sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 06. 2023-yilda ruxsat etildi
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62